

Komil Haydarov

TARBIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK
MAHORAT MARKAZI**

Komil HAYDAROV

**TARBIYA VA UNI O‘QITISH
METODIKASI**

(O‘quv qo‘llanma)

Samarqand - 2025

UDK 340
BBK 87.87

Komil HAYDAROV. Tarbiya va uni o‘qitish metodikasi // O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, – “ACCESS SERVICE” nashriyoti, 2025-y. – 196 bet.

Mas’ul muharrir:

Sh.NIGMATOVA.

falsafa fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

J.YAXSHILIKOV,

falsafa fanlari doktori, professor

A.IBRAGIMOV,

pedagogika fanlari doktori, professor

E.ABDUMANNOTOV

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Mazkur o‘quv qo‘llanmada oliy ta’lim islohotlari jarayonida “Tarbiya va uni o‘qitish metodikasi” fanining o‘rni va ahamiyatini oshirish orqali ta’lim-tarbiyaning eng zamonaviy va samarali shakl va usullarini joriy qilish, ushbu fandan ta’lim beruvchi o‘qituvchilarning kasbiy bilim, ko‘nikma hamda pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish, sinf rahbari faoliyatini oqilona tashkil etish, shuningdek, Tarbiya va uni o‘qitish metodikasiga doir qo‘shimcha materiallar berilgan. O‘quv qo‘llanma ushbu fan o‘qituvchilari, mutaxassislar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

Muallif haqida: Komil Donaboyevich Haydarov, falsafa fanlari doktori (DSc), professor, 300 dan ziyod ilmiy va uslubiy ishlar muallifi, “Eng faol ma’naviyat targ‘ibotchisi” respublika tanlovining g‘olibi, Birinchi darajali “Mehnat faxriysi” ko‘krak nisoni sohibi.

ISBN: 978-9910-8721-2-9

O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti Ilmiy kengashining 2024-yil 4-iyuldagi 13-sonli yig‘ilishi qarori bilan nashrga tavsiya yetilgan.

© “ACCESS SERVICE” nashriyoti

© Komil HAYDAROV

SO‘Z BOSHI



“Yurtimizda Uchinchi Renessans davri poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini halqiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak”.

Sh.Mirziyoyev

Mamlakatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. 2022-2026 -yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi yangi jamiyat poydevorini barpo yetishdek g‘oyat ulkan va yezgu maqsadni qo‘ygan bo‘lib, bunga eng avvalo ta’lim-tarbiya jarayonini tubdan isloh qilish, “maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo‘llash”¹ orqali erishish mumkinligini ye’tirof yetdi. Taraqqiyot strategiyasining to‘rtinchi va beshinchi ustuvor yo‘nalishlarida belgilangan maqsadlar ham pirovardida ta’lim-tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishish, ushbu jarayonni eng zamonaviy shakl va uslublarda tashkil yetishni nazarda tutadi.




Ayniqsa 2024-yilning mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nomlangani, shunga muvofiq vazifalarning belgilanganligi zamonaviy ta’lim tizimini yaratish sari ulkan qadam bo‘ldi. Shu boisdan, tarbiya – bugun jamiyatimizga suv va havodek zarur bo‘lgan, farovon turmushimizni ta’minlashning eng ishonchli yo‘li va kafolatidir.

¹ “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. - Т.: Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. - 2022 йил 29 январь. 06/22/60/0082-сон.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida “tarbiya” degan atamaga “aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon”², deb ta’rif berilganligi bejiz emas. Ayniqsa, bugungi yangilanish davrida ushbu jarayon jamiyatdagi demokratik islohotlarning o‘zagini tashkil yetishi, mamlakatimiz kelajagi, xalqimizning yertangi taqdiri va porloq istiqbolini belgilovchi bosh omil sifatida tobora dolzarb ahamiyat kasb yetib borayotgani ayni haqiqatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 -yil 11 maydagi “2022-2026 -yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmonida yoshlarning “bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash” ta’lim islohotlarida eng muhim va ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi ham aslida ushbu maqsadni ko‘zda tutadi.



Ayniqsa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ustuvor vazifalar belgilangan bo‘lib, ular mazkur darslik uchun huquqiy va metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Ushbu hujjat asosida Tarbiya fani, uni o‘qitishga doir konsepsiya tasdiqlanib, u o‘sib kelayotgan avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi, zamonaviy bosqichga olib chiqish bilan bog‘liq ustuvor vazifalar, maqsad va yo‘nalishlarni aniq-tiniq qilib belgilab beradi.

Shuningdek, konsepsiyada belgilangan tadbirlar yurtimiz yoshlarini jismonan va ma’nan barkamol qilib tarbiyalash, iste’dodi va iqtidorini ro‘yobga chiqarish, ularni yurt taraqqiyoti maqsadlariga yo‘naltirish,

² “Таълим тўғрисида”. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. - Т.: Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. - 2020 йил 24 сентябрь. 03/20/637/1313-сон.

tashabbuslarini mumkin qadar qo‘llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Uzluksiz ta‘limning mazmun-mohiyatiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur singdirish, uning ta‘sirchanligini kuchaytirish eng avval ushbu jarayonning mustahkam huquqiy asoslarini barpo yetishga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26 martdagi “Ma‘naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasini tashkil yetish to‘g‘risida”gi Qarorida ta‘limning barcha bo‘g‘inlarida “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi”da belgilangan vazifalardan kelib chiqib, o‘quv-metodik mazmundagi qo‘llanmalar, “ma‘naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi va metodikasini boyitishga qaratilgan ilmiy-amaliy adabiyotlar yaratish, ularni nashr yetish va joylarga yetkazish”³, shuningdek, ushbu sanada qabul qilingan “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish”⁴ muhim va juda dolzarb vazifalar sifatida belgilanganligi mualliflar va mutaxassislar oldiga katta mas‘uliyat yuklash barobarida ularni yangi, kreativ mazmundagi tadqiqotlar sari ilhomlantirdi.

Mazkur darslik yuqorida qayd yetilgan hujjatlar mazmunidan kelib chiqqan holda Tarbiya va uni o‘qitish metodikasi fanidan ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar, shuningdek, talabalarining mustaqil ta‘limini tashkil etish, ular sifati va mazmunini oshirishda muayyan darajada ko‘mak berishiga ishonamiz.

3 “Ma‘naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / “Халқ сўзи” газетаси, 2021 йил 27 март. -62 (7842)-сон.

4 “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / “Халқ сўзи”, 2021 йил 27 март. - 62 (7842)-сон.



1-mavzu: Tarbiya va uni o‘qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari

Reja:

1. “Tarbiya”, “ta’lim”, “fan”, “ilm”, “metod”, “metodika” tushunchalari.
2. Tarbiya va uni o‘qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
3. Fanni o‘qitishda ilmiy tadqiqot materiallaridan foydalanish zarurligi.

Tayanch iboralar: tarbiya, tarbiyaviy ishlar, metod, metodika, ta’lim va tarbiya metodikasi, tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati, ilm, ilmiy tadqiqot, o‘quv va ilmiy adabiyotlar.

Falsafiy va pedagogik mazmundagi adabiyotlarda “Bashariyat tarixi – g‘oyalar tarixi”, “Odamzot tarixi – ma’naviyat tarixi” degan iboralar bor. Aslida “Insoniyat tarixi – tarbiya tarixi” degan ibora mazmunga boy va haqiqatga eng yaqin tushunchadir, chunki inson paydo bo‘libdiki, tarbiya degan tushuncha bor, boshqacha aytganda, “inson” bilan “tarbiya” degan tushunchalar bir-biriga xos. Zero, “tarbiya” degan tushuncha odamdan boshqa birorta tirik mavjudotga nisbatan qo‘llanilmaydi, masalan, “tarbiyali hayvon”, “tarbiyali sigir”, “mushugimiz juda tarbiyali” degan iboralar hych bir mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. Shu boisdan, “tarbiya” degan so‘z insonning aqlu idrokini,



onglilik darajasini belgilovchi va uni dunyodagi barcha mavjudotlardan ajratib turadigan xususiyatdir. Tarbiya aslida inson faoliyatini belgilovchi, uning boshqalardan farq qiluvchi xususiyatigina emas, balki uni yanada takomillashtirib, “sayqallashtirib” borishi zarur bo‘lgan jihatdir.

Inson tarbiyaviy jihatdan qachon va qanday shakllanib boradi – qachonki tarbiya jarayoni ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashsa. Boshqacha aytganda, “ta’lim” bilan “tarbiya” – dialektik o‘zaro bog‘liqlikda va o‘zaro ta’sirda bo‘lgan, bir-birini taqozo yetuvchi, bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi, boyituvchi tushunchalardir. Keling, avvalo ana shu tayanch tushunchalarning mohiyatini ochishga harakat qilaylik.

Manbalarda ko‘rsatilishicha, “*tarbiya*” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, rivojlantirish, o‘stirish, o‘rgatish, ilm berish ma’nolarini bildiradi. Tarbiya ta’lim, odob-axloq va shu kabi shakllar orqali insonni voyaga yetkazish, ulg‘aytirish, o‘stirish jarayonini ifodalaydi.

“Jahon falsafasi qomusi”⁵ ning ikkinchi kitobida “tarbiya” degan atamaga “jismonan sog‘lom va ma’nan barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatuvchi tushuncha”⁶ degan ta’rif berilgan. Yangilanayotgan O‘zbekistonda sog‘lom va barkamol shaxsni shakllantirish - tarbiya jarayonining pirovard maqsadi hisoblanadi. Shuning uchun bizning mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’lim maktabi bir butun tarbiya jarayonining bosh bo‘g‘ini sifatida qaraladi, boshqacha aytganda, maktab butun bir tarbiya tizimida asosiy o‘rin tutadi. Bola maktab ostonasini bosib o‘tgan kundan boshlab rejalashtirilgan tarbiyaviy ta’sir doirasiga kiradi, shu kundan e’tiboran “murg‘ak qalb faoliyatini jamiyat, millat manfaati tomon burish uchun dastlabki qadam tashlanadi”⁷.

5 Давлатимиз раҳбари Ш.Мирзиёев ўзининг “Янги Ўзбекистон стратегияси” номли асарининг (Т.: “O‘zbekiston”, 2021) 238-бетида икки китобдан иборат бўлган “Жаҳон фалсафаси қомуси” энциклопедик нашрини “дунёдаги энг салмоқли энциклопедиялардан бири” деб баҳолаган.

6 Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-китоб. – Т.: “Маънавият” нашриёти, 2019. – 270-бет.

7 Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-китоб. – Т.: “Маънавият” нашриёти, 2019. – 270-бет.

“*Ta’lim*” degan soʻz ham arabcha boʻlib, oʻrgatish, oʻqitish, maʼlumot berish maʼnolarida qoʻllaniladi, deb manbalarda koʻrsatilgan. Taʼlim - bilim berish, malaka va koʻnikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy



vositasidir. “Taʼlim” va “ilm” degan tushunchalarni bir-biridan farqlash kerak. Pedagogik yensiklopediyada “*ilm* (arab. – bilim, fan, nazariya) – oʻqish-oʻrganish va tadqiqot, tahlil yetish bilan yerishiladigan bilim; koʻnikma, maʼlumot; ish-faoliyatning ilm bilan bogʻliq sohasi; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi, fan. Ilm – insonning oʻqish, oʻrganish va shaxsiy hayotidagi tajribalar, kuzatishlar natijasida shakllangan bilim va malakalar majmui”⁸, deb taʼriflangan. Kundalik leksikonimizda koʻpincha “ilm-fan” degan iboraning qoʻllanilishi ham bejiz emas, chunki “*fan*” degan tushunchaning oʻzi ilm izlash, tadqiqot bilan shugʻullanishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, “taʼlim” bilan “ilm” tushunchalari bir-biridan farq qilsada, ularni bir-biridan ajralgan holda tushunish ham toʻgʻri emas. Mamlakatimiz hududida turli davrlarda taʼlimning har xil turlari shakllangan boʻlib, pedagog olimlar J.Yoʻldoshev va S.Usmonovlar ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib koʻrsatadi:

anʼanaviy taʼlim, yaʼni dunyo maktablarida eng koʻp qoʻllanayotgan va didaktika prinsiplariga muvofiq boʻlgan sinf-dars tizimi;

oiladagi taʼlim-tarbiya faoliyati, yaʼni oilaning katta yoshdagi aʼzolari tomonidan kichiklarga har xil axloqiy, kasbiy, ilmiy va boshqa axborotlarni oʻrgatish, odob, muomala, gigena kabi masalalarda bilim va koʻnikmalarini shakllantirish vazifalari;

yakka taʼlim, oʻqituvchi-murabbiy tomonidan oilada amalga oshiriladigan taʼlim turi;

guruhli taʼlim, bir necha oʻquvchiga bir vaqtda taʼlim-tarbiya berish;

8 Педагогика: энциклопедия. II жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2015. – Б.67.

sinf-dars ta'limi, bir xil yoshdagi o'quvchilarning ma'lum miqdoridan iborat guruhi sinfni tashkil qiladi;

ota yoki ona kasbini o'rgatish ta'limi, oilada ota yoki ona kasbini (ko'proq kasb-hunar) o'rgatish;

jamoatchilik ta'lim-tarbiyasi, ya'ni katta yoshdagi qo'shnilar, qarindoshlar, mahalla oqsoqollari va faollari tomonidan amalga oshiriladigan ta'lim;

usta-shogird ta'limi va tarbiyasi, ya'ni ustozning o'z shogirdlariga ta'lim-tarbiya berishi, hunar o'rgatishi⁹.

“Metodika” degan atama yunoncha methodiks so'zidan olingan bo'lib, ikki xil ma'noda tushuniladi: “1) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado yetish tushunchalari, usullarining yig'indisi; 2) o'qitish usullari haqidagi ta'limot. Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi”¹⁰. Biror fanni o'qitish metodikasi deganda uzluksiz ta'lim tizimida o'sha o'quv fanining ahamiyatini, o'rnini, uning vazifalarini, o'qitish mazmuni va hajmini, ushbu fanni o'qitishda qo'llaniladigan shakllar, usul va vositalarni tushunish mumkin.

Tarbiya va uni o'qitish metodikasi fani aslida falsafiy mazmun bilan yo'g'rilgan pedagogik fan hisoblanadi. U ta'lim jarayoni samaradorligi va sifatini oshirishga yo'naltirilib, o'quvchi yoshlarga puxta bilim berish, ularni vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash va kamol toptirishda ushbu fanning maqsadi, vazifalari, mazmun-mohiyati, metod va usullari hamda vositalarini belgilab beradi. Tarbiya fanini o'qitish metodikasini o'rganish shuning uchun zarurki, u o'qituvchini tarbiya fanidan mashug'ulotlarni olib borishning ilmiy asoslari bilan qurollantiradi.

Shu bois ushbu fandan dars beruvchi o'qituvchi doimo izlanishda bo'lishi, fan bo'yicha yangiliklar, ilmiy tadqiqot natijalari, vaqtli matbuotda fanni o'qitish masalalariga bag'ishlab chop etilayotgan maqolalardan yaxshi xabardor bo'lishi uning faoliyatida juda muhimdir. Zero, tarbiya masalasi har qanday jamiyat, har qanday mamlakatning kelajak taqdirini belgilovchi masaladir. Ushbu masala ko'plab davlatlar siyosatida ustuvor hisoblanishi

9 Қаранг: Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари: қўлланма. – Т.: “Ўқитувчи”, 2004. – 35-37 бетлар.

10 Педагогика: энциклопедия. II жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2015. – Б.307.

bejiz emas. Ta'lim-tarbiya masalasi ustuvor ahamiyat kasb yetgan davlatlar rivojlanadi, barcha jabhalarda taraqqiy yetadi. Aynan ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bois har qanday davlatning moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish, xalqning farovonligini ta'minlash kabi pirovard maqsadlari amalga oshadi, mamlakat har tomonlama yuksalib boradi. Yosh avlodda iste'dod va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratiladi, tarbiya barkamol avlodning ma'naviy shakllanishini ta'minlaydi.

Davlatimiz rahbari "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hyech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar yetamiz"¹¹, deb ta'kidlagan edi. Ta'lim-tarbiya muammolarini hayot talablari va hozirgi taraqqiyotimizning eng dolzarb muammolari bilan birgalikda o'rganish, ularni boyitish, takomillashtirib borish, xalqimiz o'rtasida keng targ'ib yetish g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

Yangilanayotgan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar bois barcha sohalarda bo'lgani singari uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimida ham yangiliklar va tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ular mazmunan ilmu fan hamda ta'lim-tarbiya sohalarini butunlay yangi bosqichga ko'tarish maqsadlariga yo'naltirilgan. Ma'lumki, hukumatning 2020 -yil 6 iyundagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy yetish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-sonli qarori ushbu yo'nalishda muhim amaliy qadam bo'ldi - umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fani 1-9-sinflarda 2020-2021 o'quv - yilidan joriy yetildi. So'ngra, 10-11sinflarda ushbu fan 2021-2022 o'quv - yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy yetilishi belgilab qo'yildi, maxsus konsepsiya ishlab chiqilib, joriy yetilmoqda. Pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim

11 Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз". Т.: "Ўзбекистон", 2016. – 14 бет.

muassasalarida “Tarbiya va uni o‘qitish metodikasi” fanining 30 soatlik hajmda o‘qitilishi, shu jumladan, 14 soat ma’ruza, 16 soat amaliy mashg‘ulot tarzida tashkil etilishi maktabda “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonini sifatli amalga oshirishga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Shu nuqtai nazardan ushbu fan bo‘yicha mutaxassislik ko‘nikmalarini egallashga shaylangan bo‘lajak o‘qituvchilar uchun Tarbiya va uni o‘qitish metodikasi fanining o‘ziga xos xususiyalari va tamo-yillarini bilish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya va uni o‘qitish metodikasi fanining *predmeti* bo‘lajak pedagoglarga jamiyatimiz kelajagi bo‘lmish barkamol avlod tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy tamo-yillar, ushbu jarayonning mazmuni, shakl va uslublari, hozirgi davrdagi zamonaviy yondashuvlari haqida mushohada yuritadi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining *tadqiqot obyekti*ni uzluksiz ta’limning turli xil muassasalaridagi ta’lim –tarbiya jarayonlari tashkil qiladi.

Shundan kelib chiqib, Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining *maqsadi* - bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarda barkamol avlod tarbiyasi jarayonining sifati va mazmunini oshirishga munosib hissa qo‘shish, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda boy va betakror milliy hamda umuminsoniy qadriyatlardan keng va oqilona foydalanishlarini ta’minlash, tarbiyaviy ta’sir va imkoniyatlarga ega bo‘lgan manbalarni ajrata olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tarbiyaning hayotdagi o‘rni va ahamiyati haqida to‘xtalib, “Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun yesa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.”¹², deya ye’tirof yetganlari buning isbotidir.

12 Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. – 275 бет.

Prezidentimizning Farmon va Qarorlarida belgilab berilgan tadbirlar yoshlarimizni ma'nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, bilim va iqtidorini yuzaga chiqarish, jamiyatimiz taraqqiyotiga tatbiq qilish, tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida huquqiy negizlar, real imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasizdir.

Shunday qilib, Tarbiya fanining asosiy vazifasi yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning ijtimoiylashuvi hamda shaxs sifatida kamol topishiga ko'maklashish, samarali hamkorlik qilish, bo'sh vaqtini to'g'ri va mazmunli tashkil qilish, milliy-ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishdan iborat.



Shuningdek, Tarbiya va uni o'qitish metodikasi fani talabalarda yangicha dunyoqarash va ko'nikmalarni rivojlantirish, mustaqil va tanqidiy tafakkurni shakllantirish, ular qalbida g'oyaviy bo'shliq vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik, mafkuraviy saviyasini mustahkamlash maqsadlariga qaratilgandir.

Tarbiya - yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan, insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini tarkib toptirish jarayonlaridir.

Ushbu fanni o'qitish talaba yoshlarning nafaqat ma'naviy yuksalishi va axloqiy barkamolligiga, balki ularning olamni bilish, ya'ni intellektual kamol topishiga ham ta'sir ko'rsatishi lozim. Umuman, yoshlarning bilish faoliyatini rivojlantirish oson ish emas. Buning uchun mazkur fan o'qituvchisining o'zi intellektual jihatdan barkamol bo'lishi talab yetiladi. Yoshlarning o'qish va o'qishdan tashqari hollarda bilish faoliyatining rivojlanishi ko'p omillarga, asosan, mashg'ulotlar mazmunining g'oyaviy

hamda ilmiy-nazariy jihatlarini yuqori saviyada bo'lishiga, o'qituvchining pedagogik mahorati - mashg'ulotlarni faol, jonli va ishonarli tarzda olib borishiga, hayotiy voqyealarni teran tahlil qila olishiga, o'quvchi va talabalarda olamni, odamlarni bilishga kuchli ishtiyoq va mo-yillik uyg'ota olishiga bog'liqdir. Bu yesa o'qituvchining mashg'ulotlar mazmunini o'zlashtirib borilishini oqilona nazorat qilishi, talabalar yoki o'quvchilar faoliyatini mohirona boshqarishi, ularning yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'zlarida mavjud bo'lgan bilim va malakalardan oqilona foydalana olishlari juda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Tarbiya va uni o'qitish metodikasi fani eng serqirra, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan fan hisoblanadi. Eng avvalo, ushbu fan falsafiy mazmundagi fanlar bilan chambarchas bog'liq. Masalan, axloqshunoslik (etika) fani insonning xulq-atvori, uning jamiyatdagi o'rni, hatti-harakatlarining axloqiy me'yorlarga muvofiqligi, axloqiy barkamollikka erishish yo'llari, qonuniyatlari va tamo-yillari to'g'risidagi fan bo'lgani bois Tarbiya fani bilan o'zaro yaqin va bevosita aloqador fan hisoblanadi. Nafosatshunoslik (estetika) fani ham xuddi shunday – Tarbiya fani bilan o'zaro aloqador bo'lib, ular bir-birin boyituvchi, to'ldiruvchi fanlar hisoblanadi.

Nafosatshunoslik ham barcha fanlar singari o'zining qoida va tamo-yillariga, qonun va kategoriyalariga ega fandir. Mohiyat jihatidan nafosatshunoslik va tarbiya fanlarining uzviyligi shundaki, ushbu fanlarning tadqiqot obyekti asosan inson va uning hayotdagi o'rni, yashashdan maqsad-muddaosidir. Insonning botiniy va zohiriy go'zalligi, ichki olami va tashqi alomatlarining o'zaro uyg'unligi g'oyasi ushbu fanlarni o'zaro birlashtirib turuvchi asosiy xalqadir.

Tarbiya va uni o'qitish metodikasi fani pedagogika hamda psixologiya fanlari bilan o'zaro yaqindir. Chunki pedagogika hamda psixologiya fanlarining markazida ham bevosita inson, uning ma'naviy olami, aqliy kamoloti, ruhiy barkamolligi kabi maqsadli tamo-yillar yotadi.

Tarix fani ham ushbu fanga o'zaro yaqin bo'lgan fanlar qatoriga kiradi. Chunki insoniyat tarixini tarbiya tarixi sifatida talqin qilish mumkin. Masalan, xalqimizning boy va betakror tarixi, ma'naviy merosi tarbiya fanining takomilida muhim manba sifatida xizmat qiladi. Tarixiy o'tmishni

o'rganish, undan kerakli xulosalarni chiqarishga o'rgatish faqatgina tarix fanining emas, balki tarbiya fanining ham muhim maqsadi hisoblanadi.

Aynan barkamol avlod tarbiyasi masalasi Tarbiya va uni o'qitish metodikasi fani bilan aloqador bo'lgan barcha fanlarni o'zaro birlashtirib turadigan hamda ularni o'qitishdan kutiladigan pirovard maqsaddir. Uni o'qitish va atrofni bilish faoliyati orqali yoshlarda tafakkur shakllanadi, ularning aqliy jihatdan kamol topishiga ko'mak beradi. Shuning uchun ushbu fanni o'qitish bilan bog'liq metodik usul va vositalarni tanlashda o'qituvchidan muayyan darajada zukkolik talab yetiladi.

Tarbiya va uni o'qitish metodikasi fanini o'rganish o'quvchi va talaba yoshlarning intellektual fazilatlari va olamni bilish imkoniyatlarini oshirishga qaratilar ekan, ushbu jarayon ikki yo'l bilan amalga oshiriladi, boshqacha aytganda, ushbu jarayonda ilmiy bilishning ikki metodi ishtirok yetadi.

Birinchisi - kuzatish metodi bo'lib, u orqali o'quv-metodik mazmundagi adabiyotlar, o'quvchi va talabalarning yozma ishlari, ma'ruzalari, ularning javoblari, ularga berilgan baho va xulosalar bilan tanishib chiqiladi, ba'zan darslar kuzatiladi, o'quvchilar bilimi va malakasi o'rganiladi. Shu metod orqali o'qituvchi ushbu fanni o'qitishning amaldagi tajribasi doirasida kuzatadi va o'rganib chiqadi.

Ikkinchisi - yeksperiment metodi. Ushbu metodni tajriba deb ham ataydilar. O'qituvchi o'qitish jarayonini rasional tashkil qiladi - ijodiy ishlar qiladi, tajribalar o'tkazadi. Bunda ijodiy izlanishlarning ilmiy tajribadan farqi shundaki, o'qituvchi mashg'ulot jarayonida amaliy vazifani hal qiladi, olingan xulosalar yesa faoliyatining natijasi bo'ladi. Tarbiya va uni o'qitish metodikasi fanini o'rganishga doir jarayonni tadqiq yetishdagi kuzatish metodi ilmiy yeksperimental tadqiqotdan shu tarzda farq qiladi.

Xalqimizda "tarbiya" degan so'z o'ziga xos jozibali va muqaddas hisoblanadi. Tarbiya aslida "ma'naviyat" degan tushunchaning uzviy bo'lagidir. "Ma'naviyat", "tarbiya", "ta'lim" tushunchalarining falsafiy mazmun-mohiyati, ta'rifi, kategoriyalari, unsurlari, ularga yondosh tushunchalarga oid dunyo hamda Sharq xalqlari falsafiy ta'limotlaridagi o'ziga xos yondashuvlar mavjudligi ayni haqiqatdir. Ushbu tushunchalar o'zaro chambarchas bog'langan va bir butun jarayonni tashkil yetuvchi

falsafiy kategoriyalar ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Bu tushunchalar bir-biridan ajralgan holda voqyelikka aylanmaydi, boshqacha aytganda, qadriyatlar aynan ma'naviyat va tarbiyaning uyg'unligida, ya'ni ma'naviy tarbiya jarayonida voqyelikka aylanadi.

“Ma'naviyat” tushunchasi faqatgina “ma'ni”, “ma'no” degan so'zlarni ifodalash bilangina cheklanganda edi, uning ijtimoiy ahamiyati, inson va insoniyat uchun suv va havo kabi zarurligi ochilmay qolgan bo'lur edi. “Ma'naviyat azal-azaldan insonni komillikka yetaklaydigan beqiyos ne'mat”¹³ ekanligi uning hayotiy mohiyatini ochib beradi, zero “hayotga ma'naviyat ko'zi bilan qaragan kishi har narsadan hikmat topadi”¹⁴.



“Tarbiya” ham shunday – uning ijtimoiy ahamiyatini “ma'naviyat” tushunchasidan ayri holda tasavvur qilish mushkul. Chunki “tarbiya” degan kategoriya “jismonan sog'lom, ma'nan barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatuvchi tushuncha”¹⁵ ekanligini “ma'naviyat” tushunchasi bilan uyg'unlashgandagina his qilish, anglab yetish mumkin. Ma'naviyat va tarbiya uyg'unligi insoniy barkamollikka erishishning eng asosiy shartidir.

Shunday ekan, “ma'naviyat” ham xuddi “tarbiya” singari “ta'lim” tushunchasi orqali mavjud bo'lishi mumkin. Aniqroq aytganda, ma'naviy tarbiya ta'lim orqali to'laqonli voqyelikka aylanishi, insonning ma'naviy va axloqiy fazilatlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tarbiya umuminsoniy xarakterga ega bo'lganligi bois, hozirgi sharoitda turli mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro ilmiy aloqalar va hamkorlik -yildan--yilga kengayib va rivojlanib bormoqda. O'zbekistonning

13 Шодиев Ф. Маънавият ва ёшлар. –Т.: ABU MATBUOT-KONSALT, 2008. -46 бет.

14 Қаршибоев М. Эзгулик ва маънавият. –Т.: “Маънавият”, 2009. -49 бет.

15 Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-китоб. –Т.: “Маънавият”, 2019. -270 бет.

umumta'lim maktablarida "Tarbiya", pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida "Tarbiya va uni o'qitish metodikasi" fanlarini o'qitishning yo'lga qo'yilganligi kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda tom ma'noda tarixiy voqyea bo'ldi. Bugun mamlakatimiz umumta'lim maktablarida ushbu fanni o'qitish borasida kutilgan natijadorlikka erishish g'oyat muhim vazifa bo'lib turibdi.

Boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar singari tarbiya fanining ham bebaho manbalari bor, ularning ildizi uzoq moziyga borib taqaladi. Bugungi vazifamiz – ana shu boqiy manbalarga tayanga holda ulardan ijodiy foydalanib, yendi tetapoya qilib kelayotgan tarbiya fanini izchil yo'lga qo'yish, tizimga aylantirishdan iborat.



2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur, ya'ni Rivojlantirish dasturi, unda nazarda tutilgan asosiy parametrlar, pedagog kadrlarni zamonaviy metodikalar asosida o'qitish amaliyotining joriy yetilganligi bugun tom ma'noda uzluksiz ta'lim ravnaqining asosiy omillari hisoblanadi. Shundan kelib

chiqib, bugungi kunda ta'lim standartlarini takomillashtirish, darsliklarning yangi avlodlarini yaratish, informasion axborot vositalari, kompyuterlashtirish, axborot–resurs markazlarini jihozlash va boyitish maktab ta'limi oldida turgan g'oyat dolzarb vazifalardan hisoblanadi.



Ayniqsa, Tarbiya va uni o'qitish metodikasiga doir darsliklar, o'quv qo'llanmalari va metodik mazmundagi boshqa adabiyotlar chop yettirish, ularni ushbu fandan dars beruvchi o'qituvchilarga yetkazish borasida muayyan ishlar amalga oshirilsa-

da, ularni yanada takomillashtirib, mukammallashtirib borish yehtiyoji kundan-kunga oshib bormoqda. Respublika Ta'lim markazi tomonidan 2021 -yilda pedagogika fanlari doktori, professor Begzod Xodjayeov, markaz direktori Shuhrat Sattorov, pedagogika fanlari doktori, dosent Muhayyo Artikova hammuallifligida chop yetilgan "Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi" nomli o'quv qo'llanmasi ushbu yo'nalishda muhim qadam bo'ldi. Mazkur o'quv qo'llanmasi Tarbiya fanini o'qitish jarayoniga texnologik yondashuvni tatbiq yetish, uning imkoniyatlari, afzalliklari, ushbu fanni o'qitishda qo'llaniladigan umumpedagogik texnologiyalar tavsifi, Tarbiya fanini o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish masalalari, fan bo'yicha topshiriqlar to'plami – xullas, ushbu fanni o'qitishga doir qimmatli metodik taklif va tavsiyalar, g'oya va yo'nalishlarni o'zida mujassamlagan manba bo'lib, fan o'qituvchilari uchun metodik ko'mak berib kelmoqda.

Albatta, Tarbiya fanini o'qitish masalalariga bag'ishlangan maqolalar, ilmiy tadqiqot materiallari amaliyotga keng tatbiq yetib borilmoqda. Ammo bugun fragmental materiallardan ko'ra yaxlit, fundamental nashrlarga yehtiyoj tobora ortib bormoqda. Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi shuni taqozo qilmoqda.

Ana shu ma'noda Tarbiya va uni o'qitish metodikasi fanining nazariy asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj ham kundan kunga ortib borayotir. Shu o'rinda pedagogika fanlari doktori, professor Muhammad Quronovning tadqiqotlari, xususan, uning "Milliy tarbiya" nomli ilmiy-metodik mazmundagi kitobi (T.: "Ma'naviyat", 2007 -yil), "Bolam baxtli bo'lsin, desangiz..." nomli risolasi (T.: "Ma'naviyat", 2014 -yil), mazkur nashr muallifining "Sharq falsafasida ma'naviy tarbiya ustuvorligi" nomli monografiyasi (T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashri, 2020), shuningdek, keyingi -yillarda himoya qilingan bir qator dissertasiya tadqiqotlarini keltirish mumkin¹⁶.

Pedagog olimlarimizning keyingi -yillardagi tadqiqotlarida uzluksiz ta'limda yangi bo'lgan Tarbiya fani mashg'ulotlarining sifati va

¹⁶Диссертация мавзулари адабиётлар рўйхатида келтирилган.

samaradorligini oshirishga qaratilgan e'tiborga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda asosiy e'tibor Tarbiya fanini o'qitishning yangi, innovasion metodlari hamda texnologiyalarini ishlab chiqish masalasiga qaratilmoqda. Bunga misol sifatida pedagogika fanlari doktorlari, professorlar B.Ziyomuhammadov, F.Ismoilovning "Barkamol avlodni voyaga yetkazish sirlari"(T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2011), "Pedagogik mahorat asoslari" (T.: "Tib-kitob", 2009) kabi tadqiqotlarni keltirish mumkin. Shuningdek, 2015 -yilda nashr etilgan "Pedagogik ensiklopediya" nomli qomusiy to'plamda ham Tarbiya fani va uni o'qitish metodikasi mazmunini oshirishga doir qiziqarli materiallar topish, ularni o'rganish, ta'lim jarayoniga tatbiq etish tavsiya etiladi.

Ilmiy tadqiqot ishlari, shuningdek, respublika miqyosida o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda Tarbiya fani mashg'ulotlarining sifati va mazmunini oshirish yo'nalishida quyidagilarga e'tibor qaratilmoqda:

1. Yoshlar ongida bo'layotgan o'zgarishlar;
2. Yoshlarning axloqiy qiyofasidagi o'zgarishlar;
3. Yoshlarni qamrab olgan muhit;
4. Yoshlarning o'zgalar bilan munosabatidagi xususiyatlar;
5. O'quvchi yoki talabaning internet madaniyati;
6. Yoshlarning o'z bilimini oshirishga bo'lgan intilishi va h.k.

Tarbiya va uni o'qitish metodikasi fanini o'qitish doirasidagi ilmiy tadqiqotlar, yangilik va izlanishlardan ko'zlangan maqsad yagona – Prezidentimiz so'zlari bilan aytganda, "bizni hamisha o'ylantirib keladigan muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Mazkur o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin... Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"¹⁷.

Tarbiya fanini o'qitish, uning metodikasini takomillashtirish hozirgi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi, desak


¹⁷ Куронов М. Инсон қадрини улуғлаш ва тарбия маскани // "Халқ сўзи", 2022 йил 31 январь. -№22 (8084)-сон.

to'g'ri bo'ladi. Ushbu masalaning yuqori doiralarda muhokama etib borilishi fikrimizning isbotidir. Masalan, Parlamentning Qonunchilik palatasida 2020-yilning 1-dekabr kuni o'tkazilgan "Hukumat soati"da deputatlar "Umumta'lim maktablarida vatanparvar avlodni tarbiyalash, yangi joriy etilgan Tarbiya fani o'qitilishini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi masalani muhokama qilishib, unda ayni paytda maktab ta'limini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish borasida tizimli ishlar olib borilayotgani, shuningdek, barcha ta'lim muassasalarida ma'naviy-tarbiyaviy ishlar yangicha asosda tashkil etilayotgani ta'kidlandi. Deputatlar Tarbiya fanini o'qitish bo'yicha olib borilayotgan tashkiliy ishlar bilan qiziqdilar. Ta'kidlandiki, fan bo'yicha o'quv-uslubiy ta'minotning axborot platformasini yaratish maqsadida internet tarmog'ining www.tarbiyam.uz domenida fanga doir ma'lumotlar va vazifalari bayon etilgan o'qituvchiga uslubiy yordam ko'rsatuvchi ma'lumotlar bazasi yaratildi. Bu platformada o'qituvchilar uchun Tarbiya fanining maqsad-vazifalarini ochib beruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar – fan konsepsiyasi, Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturi, uslubiy tavsiyalar, taqvim-rejalar, fanni o'qitishga doir texnologiyalar, dars ishlanmalari, qo'shimcha manbalar joylashtirilmoqda.

Shuningdek, platformada o'quvchilar va ota-onalar uchun maxsus ruknlar ham mavjud. Tarbiya fanining 1-9-sinflarga mo'ljallangan darsliklari yaratilib, undagi mavzularga oid 21 ta videoroliklar darsliklarga QR-kod bilan kiritildi. Ushbu darsliklarda yoshlarni fikrlashga o'rgatadigan, ularni milliy qadriyatlarimizga sodiq, vatanparvar etib tarbiyalashga xizmat qiladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishga qay darajada e'tibor qaratilgan? "Hukumat soati"da ta'kidlanishicha, Tarbiya fanini o'qitish metodikasi bo'yicha o'quv dasturi, qo'llanmalar va darsliklarda yosh avlodda vatanparvarlik, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnatsevarlik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga alohida urg'u berilishi lozim. Xususan, bunda milliy an'analar, ulug' allomalarning hayot va yo'llari, asarlari, zamondosh qahramonlarning faoliyati ibrat sifatida keng foydalanish, mavzularni

o‘qitishda bugun jahon miqyosida ommalashgan “Loyiha asosida o‘qitish”, “Qiziqishlar asosida ta’lim berish”, “Art-fest”, “Namuna ko‘rsatish”, “Misollar orqali o‘qitish”, “Vaziyatlarni tahlil qilish” kabi ta’lim berishning xilma-xil, eng ilg‘or texnologiya va uslublari qo‘llanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugun, mamlakatimiz ta’lim tizimida islohotlar jadal ketayotgan bir paytda Tarbiya va uni o‘qitish metodikasi fanini eng zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or metodikalar asosida o‘qitish nihoyatda dolzarb va



kechiktirib bo‘lmas vazifa hisoblanadi. Bunda interfaol usul va metodlarni ko‘p miqyosda qo‘llash, ulardan keng foydalanish yesa o‘qituvchining mahoratiga bog‘liqligi kunday ravshan. Boshqacha aytganda, yeskirgan yondashuvlar va usullar bilan o‘tadigan zerikarli darslar o‘rniga kasb-koriga mas’uliyat bilan yondashadigan, bilimdon, mahoratli, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o‘zlashtirgan, ta’limni innovasiyalar asosida tashkil yeta

oladigan o‘qituvchilarga yehtiyoj kun sayin oshib bormoqda.

Ta’limda moddiy baza, standart, o‘quv rejayu dasturlar va o‘quv-uslubiy adabiyotlar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatli ta’limni ta’minlash, yuqori o‘zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni olib boruvchi o‘qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga, pedagogik mahoratiga bog‘lanib qolaveradi. Bu – inkor yetib bo‘lmas haqiqat.

Barkamol shaxsni kamol toptirishda Tarbiya va uni o‘qitish metodikasi fanining imkoniyatlarini hyech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Barkamol avlod tarbiyasi yesa O‘zbekistonda “Ma’rifatli jamiyat”ni barpo yetishning eng muhim va zarur talablaridan biridir. Shu nuqtai nazardan pedagogika oliy ta’lim muassasalarida Tarbiya va uni o‘qitish metodikasi

fani yangi jamiyat barpo yetishda o'ziga xos "katalizator" vazifasini bajarmog'i kerak.

Nazorat savollari

1. "Ta'lim", "ilm", "fan", "tarbiya", "metod", "metodika" so'zlarining ma'nosini tushuntiring.

2. Uzluksiz ta'lim islohoti davrida Tarbiya fani, uni o'qitish metodikasi oldiga qanday talablar qo'yilmoqda?

3. Ushbu fanni o'qitishdan maqsad nima?

4. Ushbu fanning vazifalari nimalardan iborat?

5. Zamonaviy ta'lim amaliyotida "ta'limda innovasiya", "pedagogik innovasiya", "ta'limni modernizatsiyalash" degan atamalardan keng foydalanmoqda. Shu tushunchalarning mohiyatini izohlang.

6. Tarbiya va uni o'qitish metodikasi deganda nimani tushunasiz?

7. Ushbu fanni o'qitishga doir ilmiy tadqiqotlarda qanday masalalarga e'tibor qaratilmoqda?

8. Tarbiya va uni o'qitish metodikasi fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi qanday?

9. „Tarbiya va uni o'qitish metodikasi fani yangi jamiyatni barpo etishning katalizatori bo'lishi lozim" degan iboraning ma'nosini tushuntiring.

10. „Ma'rifatli jamiyat" degan iboraning mazmunini tushuntiring.

Testlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 -yil 28 iyuldagi PQ-3160-sonli Qarori qanday ataladi?

A) "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida";

B) "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida";

C) "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida";

D) “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy yetish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qachon tasdiqlangan?

- A) 31-dekabr 2019 -yil, VMQ-1059;
- B) 6-iyul 2020 -yil, VMQ-422;
- C) 28-iyul 2017 -yil, VMQ-3160;
- D) 28-iyul 2018 -yil, VMQ-3160.

3. Metod nima?

A) (yunoncha metodos - nazariya, bilim va tadqiqot yo‘llari) u yoki bu maqsadlarga erishish yo‘llari, uslublari, aniq va konkret vazifalarni hal yetish usullari;

B) lotincha metodos - bilim, nazariya, ilmiy tadqiqot yo‘llarini o‘rganadi;

C) lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, metodos - falsafiy yondashuv demakdir;

D) to‘g‘ri javoblar A va C.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida Tarbiya fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy yetish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qachon qabul qilingan?

- A) 06.07.2020 -yil, VMQ-422;
- B) 31.12.2019 -yil, VMQ-1059;
- C) 15.03.2017 -yil, VMQ-140;
- D) 09.03.2020 -yil, VMQ-132.

5. Tarbiya va uni o‘qitish metodikasi darslariga qo‘-yilgan talablar qaysilar?

- A) didaktik, ilmiy-metodik, pedagogik-psixologik, yestetik, gigiyenik;
- B) didaktik psixologik;

- S) psixo-fiziologik, yestetik;
D) ilmiy, metodik, didaktik.

7. Tarbiya va ma'naviyat sohasidagi vazifalar Taraqqiyot strategiyasining nechanchi ustuvor yo'nalishida belgilangan?

- A) beshinchi;
B) oltinchi;
C) birinchi;
D) yettinchi.

8. "Tarbiya" degan so'zning ma'nosi qanday?

- A) arab. "rivojlantirish", "o'stirish";
B) lot. "parvarishlash";
C) yunon. "hunar o'rgatish";
D) fr. "oshirish", "ko'tarish".

9. "Ta'lim" degan tushunchaning ma'nosi

- A) arab. "o'rgatish", "o'qitish", "ma'lumot berish";
B) lot. "rivojlantirish", "parvarishlash";
C) ing. ; "tarqatish", "ko'paytirish";
D) fors. "o'qish", "yozish".

10. OTMlarida Tarbiya va uni o'qitish metodikasi fani o'quv soatlari qanday taqsimlangan?

- A) 14 soat nazariy, 16 soat amaliy;
B) 10 soat nazariy, 20 soat amaliy;
C) 12 soat nazariy, 18 soat amaliy;
D) 20 soat nazariy, 10 soat amaliy.

11. Tarbiya va uni o'qitish metodikasi fani ta'lim-tarbiya vazifalarini hal yetishda asosan qaysi fanlar bilan hamkorlik qiladi?

- A) barcha javoblar to'g'ri;
B) tarix, sosiologiya, logika;

- C) pedagogika, falsafa, aksiologiya;
- D) adabiyot, dinshunoslik, psixologiya.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida". O'zbekiston Respublikasining Qonuni. - T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2019 -yil 30 oktyabr. 03/19/576/3970-son.
3. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 7 noyabr. 06/20/6108/1483-son.
4. "2022-2026 -yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. - 2022 -yil 29 yanvar. 06/22/60/0082-son.
5. "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. - T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 7 noyabr. 07/20/4884/1484-son.
6. "Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. – T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.10.2018 y., 09/18/816/2032-son; 29.12.2019 y., 09/19/1046/4242-son.
7. "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy yetish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. – T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 07.07.2020 y., 09/20/422/1033-son.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil 23 avgustda o‘qituvchining ijtimoiy mavqeyini oshirish masalalariga doir o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. -“Xalq so‘zi” gazetasi, 2019 -yil 24 avgust. - №174 (7404)-son.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2022 -yil 21 dekabr.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.

2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. - Tanlangan asarlar. 1-jild. - T.: Fan, 1968. – 486 b.

3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. - T.: “Ma’naviyat”, 2006. – 280 b.

4. Ziyomuhammadov B., Ismoilov F. Barkamol avlodni voyaga yetkazish sirlari. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2011. – 440 b.

5. Ziyomuhammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: “Tib-kitob”, 2009. – 184 b.

6. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo‘llanma. – T.: “O‘qituvchi”, 2004. –104 b.

7. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. – T.: “Ma’naviyat”, 2019. – 920 b.

8. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 2-kitob. –T.: “Ma’naviyat”, 2019. – 856 b.

9. Pedagogika: yensiklopediya. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.

10. Saifnazarov I. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishni nega kuchaytirishimiz kerak? // “Xalq so‘zi”, 2021 -yil 29 oktyabr. -№231 (8011).

11. Salohiy D. Tasavvuf va badiiy ijod. –T.: “Navro‘z”, 2018.–186 b.
- 12.Xodjayev B., Sattorov Sh., Artikova M. Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyasi. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 168 b.
- 13.Qurbonova M. Yoshlarda kreativ tafakkurni shakllashtirishning pedagogik asoslari // “Xalq ta’limi” jurnali, 2020. – T.3.
11. Quronov M. Milliy tarbiya. - T.: “Ma’naviyat”, 2007. –240 b.
- 12.Haydarov K. Sharq falsafasida ma’naviy tarbiya ustuvorligi. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – 240 b.
- 13.Haydarov K. Milliy qadriyatlarni ta’lim mazmuniga singdirish masalalari. Uslubiy qo‘llanma. – T.: “Qamar media” nashriyoti, 2022. – 80 b.
- 14.Haydarov K., Rasulova D. Birinchi Renessans davri Sharq ma’naviy merosini o‘rganish masalalari. Uslubiy qo‘llanma. – T.: “Qamar media” nashriyoti, 2022. – 89 b.
- 15.Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2002. – 372 b.
- 16.Hikmatlar shodasi / to‘plovchi va tarjimonlar A.Raimov, N.Raimova; muharrir A.Ziyadov. T.: “O‘zbekiston”, 2016. –B.744.

IV. Dissertasiyalar

1. Ibragimov A.A. Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning kognitiv mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fan. dok. (DSc) diss. – Samarqand: 2022.
2. Samadov A. Shaxs yestetik idealining shakllanish va rivojlanish muammolari. Falsafa f. d-ri (DSc) diss. - Samarqand, 2020.
3. Mamatqulov D.M. Malaka oshirish jarayonida umumta’lim maktab rahbarlarining mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan. bo‘yicha fal. dok. ... dis. –T.: 2018.
4. Haydarov K.D. Yangilanayotgan O‘zbekistonda ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi va uning uzluksiz ta’lim tizimidagi ahamiyati. Falsafa f. d-ri (DSc) diss. - Samarqand, 2022.

V. Elektron ta’lim resurslari

1. <https://www.lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari

ma'lumotlari milliy bazasi.

2. <http://www.yeduportal.uz> - O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi axborot-ta'lim portali.

3. <http://www.uzedu.uz>- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi portali.

4. <http://www.multimedia.uz> - Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti.

5. <http://www.rtm.uz> - Respublika ta'lim markazi sayti.

6. <http://www.kundalik.com> - "Kundalik" avtomatlashtirilgan ta'lim tizimi sayti.

7. [http:// www.oyecd.org/yedu/pisa](http://www.oyecd.org/yedu/pisa) - Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (Organization for Yeconomic Cooperation and Development, OYeCD) sayti.

8. <http://timss2015.org/>; <http://pirls2016.org/> - TIMSS - PIRLS tadqiqotlari xalqaro muvofiqlashtiruvchi markazi sayti.

9. [http:// www.markaz.tdi.uz](http://www.markaz.tdi.uz) - Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi sayti.

10. <http://avlونی.uz> - A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti sayti.

11. <http://www.istedod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti.

12. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.

13. www.ziynet.uz - Ziyonet ta'lim axborot tarmog'i.

14. <https://www.coursera.org> - Onlayn ta'lim platformasi.

2-mavzu: TARBIYA METODLARI VA SHAKLLARI, ULARNI AMALDA QO‘LLASH

Reja:

1. “Tarbiya metodi”, “tarbiy shakli”, “tarbiya vositasi” tushunchalari. Tarbiyaning maqsadi.
2. Tarbiya jarayonida individual yondashuvning o‘rni va ahamiyati.
3. Tarbiya usullari. Tarbiya usulini tanlash.

Tayanch iboralar: metod, metodologiya, tarbiya metodlari, texnologiya, pedagogik texnologiya, pedagogik ta’lim, pedagogik tarbiya, pedagogik tajriba, pedagogik adabiyotlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Najot - ta’limda, najot - tarbiyada, najot - bilimda. Chunki, barcha yezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli yerishiladi”¹⁸, deb ta’kidlagan edi. Yoshlarimizga zamonaviy bilim berish, ularning ilm va ma’rifatga mo-yilligini oshirish Yangi O‘zbekistonni barpo yetishning g‘oyat muhim shartlaridan biridir.



O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan Konstitusiyasi fuqarolarning, shu jumladan o‘quvchi va talaba yoshlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishlari, iqtidorini to‘la-to‘kis namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlarni kafolatlagan tarixiy hujjat hisoblanadi. Shuningdek, Prezidentning keyingi -yillardagi Farmon va Qarorlari mamlakatimizda ta’limning milliy modelini yaratish va uni hayotga joriy yetish bilan bog‘liq muhim vazifalarni belgilab berdi. Xususan, o‘quvchi va talaba yoshlarning bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va

18 Қаранг: xabar.uz // Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси , 2022 йил 20 декабрь.

pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni takomillashtirish, ta'limning zamonaviy modellarini barpo yetish bilan bog'liq maqsadlar, ularni amalga oshirishda o'qituvchilarning mas'uliyatini kuchaytirish ana shunday vazifalar qatorida ko'rsatib o'tildi.

Savol tug'iladi: uzluksiz ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar bugun ta'lim islohotlariga mos holda mehnat qilishyaptimi, ular yangilangan innovasion pedagogika asosida dars o'tishga tayyormi? Ular o'z ishiga mas'uliyatni chuqur his qilgan holda yondoshyaptimi? Haligacha an'anaviy tarzda, zerikarli darslar davom yetayaptimi, ulardan voz kechish uchun nima qilish lozim?



Xususan, Tarbiya fani mashg'ulotlarida ilg'or, zamonaviy pedagogik tajribalarni qo'llash, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, takomillashtirilgan standart va moderinizasiya qilingan dasturlarni o'zlashtirish, o'quvchi va talaba yoshlarni mustaqil, erkin fikr yuritishga

o'rgatish, ularda mantiqiy tafakkurni shakllantirish uchun nimalarga e'tibor qaratmoq kerak, degan savollar o'z-o'zidan paydo bo'layotgani yo'q.

Albatta, bunday muammolarni ijobiy hal yetish maqsadida o'qituvchining faoliyatiga tanqidiy ko'z bilan qarab, uni innovasion nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish, ilg'or pedagogik tajribalar, interfaol ta'limning shakl va usullarini keng joriy yetish nihoyatda muhimdir. O'qituvchi bugun o'z faoliyatiga tanqidiy ko'z bilan, ijodiy yondashib, qayta ko'rib chiqish zarurligini zamonning o'zi talab qilmoqda. Shunday ekan, ta'lim oluvchilar bilan samimiy munosabatda bo'lish, ular shaxsini rivojlantirish masalasiga mas'uliyat bilan yondashuv, hamkorlik va hamijodkorlik bilan individuallashtirish asosida, ularda chuqur bilimga motivasiya hosil qilish orqali alohida e'tibor qaratishni davrimiz yevrilishlari taqozo qilmoqda.

Avvalgi mavzuni yoritishda „tarbiya“ so'zining ma'nosi, uning „ma'naviyat“, „odob-axloq“, „ta'lim“ kabi leksikonimizda keng qo'llaniladigan tushunchalar bilan aloqadorligi haqida to'xtalgan edik.

Albatta, tarbiya – avvalo serqirra jarayon bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlari, metod va shakllari mavjud.

Tarbiya metodi (“metodos” – yun. “yo‘l”) - tarbiya jarayonidan ko‘zda tutilgan maqsadga erishish yo‘li. Tom ma’noda tarbiya metodi deganda tarbiyalanuvchilarning botiniy dunyosi – ularning ongi, irodasi, his-tuyg‘ulari, xulq-atvoriga ta’sir etish usullarini tushunish mumkin.

Tarbiya metodlari avvaldan, hatto qadimdan shakllanib kelgan. Qadimgi yunonlarda shakllangan falsafiy g‘oyalar, munozara, suhbat kabi usullar bilan insonga ta’sir ko‘rsatish sofistlarning o‘ziga xos usullari bo‘lgan (bu haqda keyingi mavzularda batafsil bayon etiladi) Tarbiya metodlari zamonlar osha boyib va takomillashib borgan. Hozirgi kunga kelib tarbiya jarayoni orqali insonga ta’sir ko‘rsatishning xilma-xil metodlari joriy etilmoqda.

Tarbiya metodlarining ana shu tarzda boyib va takomillashib borishi *tarbiya usullari* degan ibora orqali ifodalanadi. Tarbiya usullari tarbiya metodining uzviy qismi bo‘lib, uning yanada aniq (konkret) tarzda amalga oshishini bildiradi.

Tarbiya metodi degan iborani ba’zilar tarbiya usuli deb tushunadilar. Aslida “usul” degan so‘z “metod” so‘zidan ko‘ra torroq ma’noda qo‘llaniladi, ya’ni usullardan metodlar shakllanadi, ana shu usullarni tarbiya jarayonida mohirona qo‘llay olish – pedagogik mahoratning mazmunini belgilaydi.

Tarbiya jarayonida *tarbiya vositalari* ham ishtirok etadi, ya’ni tarbiya vositalari *tarbiyaning maqsadiga* erishish yo‘lida xizmat qiladigan unsurlar (yelementlar)dir. Aytaylik, insonning namunali hatti-harakatlari, shaxsiy ibрати, mehnat, muomala, so‘z, ommaviy axborot vositalari – bular tarbiyaning muhim vositalari bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Albatta, pedagogika fanidan yaxshi xabardor bo‘lgan har bir inson tarbiyaning metodlari haqida yetarli darajada tushunchaga ega. Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida namoyon bo‘layotgan boshqa muhim va dolzarb masala – *individuallashtirish* usuliga alohida to‘xtalish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Hozirgi paytda ta'lim-tarbiyaga individuallashtirish tamo-yillarini keng joriy qilish kutilgan natijani ta'minlashda g'oyat muhimdir. Ayniqsa 2024 - yil - „Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash -yili” Davlat dasturida tarbiyaning individuallashtirish tamo-yiliga alohida ahamiyat qaratilgani bejiz emas. Chunki individuallashtirish - bu shunday usulki, bunda har bir tarbiyalanuvchi o'quv jarayonida faol ishtirok yetadi, ushbu usul o'quvchining bilish qobiliyatini kuchaytirib boradi. Individuallashtirish tarbiya jarayonini tashkil yetishda o'qituvchining uslubiy yondashuvi, tezkorligi, mahorati, o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini oqilona hisobga ola bilishini namoyon qiladi. Demak, individuallashtirish - bilish jarayonining markazida albatta o'quvchi (talaba) bo'ladi, deganidir.



Tarbiyada individual yondashuvning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Avvalo har bir o'quvchi bilan individual ishlaganda uning shaxsiy fazilatlari o'qituvchining doimiy e'tiborida turishi hisobga olinmog'i lozim.

2. O'quvchi bilan muloqot olib borilganda uning o'ziga xos xususiyatlari o'qituvchining diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

3. Tarbiyaviy mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida ham o'quvchining shaxsiy sifatlari va qobiliyati, e'tiborga olinishi zarur.

4. Pedagogik hamkorlik va psixologik munosabatlar jarayonida o'quvchining individual rivojlanish darajasi e'tiborga olinishi lozim.

Ta'lim-tarbiyada individuallashtirish - o'quv jarayonining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning asosiy tamo-yillari quyidagilardan iborat:

individuallashtirish orqali o'quvchi (tarbiyalanuvchi)ning shaxsi rivojlantiriladi;

kutilgan natija har bir predmetni o'qitishni individuallashtirish orqali amalga oshiriladi;

ta'lim-tarbiya shakllarini individuallashtirish bilan bevosita fanlarni integrasiyalash uchun shart-sharoiti yaratiladi;

Shu boisdan o'quv jarayonining pirovard natijasi va samaradorligi individuallashtirish orqali ta'minlanadi. Individuallashtirish orqali ta'minlanadi. Individuallashtirish orqali ta'minlanadi. Individuallashtirish orqali ta'minlanadi.

malaka olish o'quvchining qiziqishi asosida amalga oshadi. Shu tufayli o'quvchining bilish ko'nikmalari rivojlantiriladi va boyitib boriladi, o'quvchida o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari ham shakllanib boradi. Shunday qilib, ta'lim-tarbiyaning natijadorligi o'quvchining ta'lim mazmunini o'zlashtirishga qaratilgan mustaqil mutolaa bilan samarali shug'ullanishi, erkin fikr yuritishi va tafakkur faoliyati bilan uzviy bog'liq.

Individuallashtirish ta'lim-tarbiyaga ilg'or, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishda o'ziga xos yo'nalish bo'lib, u orqali mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarda quyidagi fazilatlar shakllanib boradi:



o'quvchi mustaqil o'qish, mutolaa qilish, o'rganish, ishlashga va o'zlashtirishga o'rgatib boriladi;

o'quvchida mutolaa madaniyati, kitobxonlikka havas, axborot egallashga mo'yillik kabi ko'nikmalar ham shakllanadi;

tarbiyalanuvchilarda hayotni mustaqil idrok qilish, unga nisbatan muayyan

pozisiya, munosabat shakllanadi;

ularda ijodga havas, ijodkorlik fazilatlarini ham qaror topadi, muhim va prinsipial masalalarda mulohaza yuritish, shaxsiy xulosalar chiqarish ko'nikmalari ham rivojlanib boradi;

ularda yot fikrlarga muvohiqsizlik, ularga qarshi fikr yuritish olish, o'z nuqtai nazarini himoya qila olish ko'nikmalari ham shakllantiriladi.

o'quvchilarda tayyor bilimlarga tayanib qolmasdan, ularni darsliklardan, axborot resurs markazlaridan, internetdan, turli boshqa manbalardan izlash, topish, qayta ishlash orqali mushohada qilish ko'nikmalari yaratiladi;

o'quvchi hamda talabada darsliklar bilan ishlash, o'qish, o'rganish, matnlar yaratish, qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish va manbalardan foydalanish orqali bilim va tasavvurlarini kengaytirib va boyitib borishga intilish kuchayadi;

o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini kundalik hayotda va o‘zlarining amaliy faoliyatida qo‘llash imkoniyatlari oshiriladi va h.k.

Ta’lim va tarbiya jarayoniga individual yondashuv:

tarbiyalanuvchilarning o‘zaro faolligini kuchaytiradi, kelgusida ilmiy tadqiqot olib borish, olim bo‘lishga intilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi;

ularda hamkorlikda ishlash, ilmiy natijalarga erishishga motivasiya beradi;

mushohada madaniyati va falsafiy tafakkurni rivojlantiradi.

Yeng muhimi – ta’lim-tarbiyada didaktik motivlar vujudga keladi: o‘quvchining ma’naviy yehtiyoji, hoxish-istagi qondiriladi, bilish jarayonidan o‘quvchining shaxsiy manfaatdorligi kuchayadi. Yana muhim natijaga erishiladi, ya’ni o‘quvchida mehnasevarlik va tirishqoqlik fazilatlari kuchayadi.

Tarbiyada individuallashtirish metodidan foydalanish – bugun zamon zayli, davr talabiga aylandi. Uning qator afzalliklari bor, jumladan:

birinchidan, o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rasida pedagogik hamkorlik va hamjihatlikni kuchaytiradi;

ikkinchidan, fanning mazmun-mohiyatini puxta o‘zlashtirishga sabab bo‘ladi;

uchinchidan, mashg‘ulotlar o‘tkazishning samarali shakllari (yakka, juft, guruh, katta guruh)dan foydalanish imkonini beradi;

to‘rtinchidan, o‘quvchilarda yuqori motivasiyaga paydo qiladi;

beshinchidan, o‘quvchida ijodkorlik xususiyatlarini rivojlantiradi;

oltinchidan, o‘quvchilarda axborot olish, qayta ishlash, undan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

yettinchidan, o‘quvchining o‘zi o‘ziga baho berish ko‘nikmalari, tanqidiy qarashini shakllantiradi;

sakkizinchidan, o‘quvchining mushohada va tafakkur madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlarini kuchaytiradi.



Yeng muhimi - individuallashtirish fanning mazmunini puxta o'zlashtirish barobarida *o'quvchini mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.*

Shuni unutmaslik kerakki, o'quvchini mantiqiy fikrlashga o'rgatmoqchi bo'lgan *o'qituvchining o'zi* ana shunday sifatlarga ega bo'lmog'i, ya'ni *mantiqan teran fikrlaydigan*, mushohada madaniyatiga ega bo'lgan, chuqur mulohazali bo'lmog'i kerak. Qadimgi yunon donishmandi Demokrit ta'biri bilan aytganda, "bilimlar mo'lligidan ko'ra fikrlar mo'lligiga erishish afzalroq".

Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki, tarbiya jarayonida asosan uchta – passiv, faol va interfaol usullar ta'lim-tarbiya amaliyotida keng qo'llanilmoqda.

Yeskirgan, bugun ta'lim jarayonidan tobora chetlashib borayotgan usul, ya'ni passiv usul. O'quvchi o'qituvchining so'zlab, ya'ni hikoya qilib berishi, ma'ruzasi, og'zaki tushuntirishi, bayon yetishidan o'quv materiallarni yeshitadi, ko'radi, o'zlashtirishga harakat qiladi. Uyga berilgan vazifalarni qo'llanma, masala, mashqlar to'plami, darslik kabi manbalardan o'qib o'rganadi. Bunday usulni o'quvchi bilan o'qituvchi orasidagi tizimli muloqot deb bo'lmaydi. O'quvchi o'z darajasida - qobiliyali, qiziqishi, istak, hoxishi asosida o'zlashtiradi. Unda ta'lim mazmunini standartlar darajasida o'zlashtirish kafolatlanmaydi.

Birmuncha jonliroq, amaliyotda ko'proq uchraydigan usul, ya'ni faol usul. Bunda an'anaviy usuldan keng foydalaniladi. O'qituvchi ta'lim mazmunini bayon yetishda bor kuchini, mahoratini ishga solib, dalil, ko'rgazmali qurollar, didaktik tarqatma materiallar yordamida ta'sirchan qilib tushuntirishga harakat qiladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan fikr almashadi, ular bilan muloqot o'rnatadi. Ijodiy ishlar berish orqali mashqlar yechadi. Uy ishlarini ham mustaqil ishlash, takrorlash orqali amalga oshiradi. Ta'lim-tarbiya mazmunini bir muncha yuqori o'zlashtirishga erishadi.

Ta'lim samarasini ta'minlovchi, hozirda o'qituvchi o'z faoliyatida ko'proq intilayotgan usul, ya'ni interfaol usul. Unga asosan tarbiyaviy

mazmundagi mashg'ulotlar jarayonini samarali tashkil yetish uchun eng qulay muhit yaratiladi. Bunday ijodiy muhit o'quvchilarning o'zaro muloqoti, fikr almashishlari uchun eng optimal imkoniyat hisoblanadi: hal qilish lozim bo'lgan masalalar hamjihatlikda muhokama qilinadi, yechiladi, vaziyatdan hamkorlikda chiqishga yerishiladi. O'zaro faol muloqot jarayonida o'quvchilar bir-birlaridan ilhomlanib, ma'naviy qoniqish hosil qiladilar. Mashg'ulotning har bir ishtirokchisi pirovardida ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga erishadi.

Nazorat savollari

- 1. Tarbiya fani metodologiyasi, shakl va usullari haqida so'zlang.*
- 2. Tarbiya metodlari tizimi deb nimaga aytiladi?*
- 3. Tarbiya vositalari deganda nimalarni tushunasiz?*
- 4. Tarbiya va uni o'qitish metodikasi fanini o'qitishning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?*
- 5. Pedagogik tajriba nima?*
- 6. Tarbiya va uni o'qitish metodikasi darslari qanday didaktik maqsadlarni o'z ichiga oladi?*
- 7. Individuallashtirilgan ta'lim-tarbiya nima, uning huquqiy-me'yoriy asoslari haqida tushunchangiz?*
- 8. Individual ta'lim-tarbiyaning asosiy tamo-yillari nimalardan iborat?*
- 9. Individual tarbiyada qanday yondashuvlar tavsiya yetiladi?*
- 10. Tarbiya usulini tanlashda nimalarga e'tibor qaratasiz?*

Testlar

1. Tarbiya fanini o'qitish metodikasi nimaga yo'naltirilgan?

- A) Tarbiya fani o'qitish jarayoni samaradorligi va sifatini oshirishga yo'naltirilgan;
- B) ta'lim dasturlari bajarilishini baholashga yo'naltirilgan;
- C) o'qituvchining kasbiy kompetentligi va mahoratini oshirishga yo'naltirilgan;
- D) mazkur fanning mazmuni va metodlarini, o'qitishning eng muhim vositalarini aniqlashga yo'naltirilgan.

2. Tarbiya fanini o‘qitish metodikasining predmetini nima tashkil yetadi?

- A) Ta’lim tizimida tarbiya fani o‘qitilishi va o‘qitish jarayonining o‘rganilishi;
- B) Tarbiya o‘qitish jarayoni samaradorligi va sifatini oshirish;
- C) Tarbiya fanini o‘rganish;
- D) Jamiyat taraqqiyotining qonuniyatlarini o‘rganish.

3. Tarbiya metodida nimalar o‘z aksini topadi?

- A) tarbiyaning obektiv qonuniyatlari, maqsadlari, mazmuni, tamoyillari, shakllari;
- B) tarbiya jarayonida aniq maqsadga yo‘naltirilgan metodlar va ta’limiy jarayonlar;
- C) o‘qituvchining mahorati va o‘quvchilar faolligining o‘zaro ta’siri;
- D) ta’lim turi, metodi, mazmuni, shakli, vositalari va natijalari.

4. Belgilangan vazifani hal yetish uchun uni qo‘llashning mosligi va tejamkorligi - bu ...

- A) usulning asosiy natijaviyligining mezon;
- B) usullarni tanlashning asosiy qoidasi;
- S) usullarga qo‘-yiladigan asosiy talab;
- D) ta’lim berish usuli.

5. O‘quv jarayonidagi o‘rniga ko‘ra yo‘riqnoma berish necha turga bo‘linadi?

- A) uch turga;
- V) to‘rt turga;
- S) ikki turga;
- D) olti turga.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

2. “2022-2026 -yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - 2022 -yil 29 yanvar. 06/22/60/0082-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamo-yillarini joriy yetish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3931-son Qarori. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 y., 07.18.3931.1841-son.

4. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 3 yanvar. 09/20/391/0777-son.

5. Xalq ta’limi tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalari (Yetika kodeksi) // Xalq ta’limi vazirligining 2019 -yil 31 oktabrdagi 349-son buyrug‘i.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - T.: “O‘zbekiston”. - 2017.- 102 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil 23 avgustda o‘qituvchining ijtimoiy mavqeyini oshirish masalalariga doir o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. -“Xalq so‘zi” gazetasi, 2019 -yil 24 avgust. - №174 (7404)-son.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2022 -yil 21 dekabr.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining 2023 -yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi” gazetasi, 2023 -yil 23 dekabr.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. - Tanlangan asarlar. 1-jild. - T.: Fan, 1968. – 486 b.

2. Ziyomuhammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: “Tib-kitob”, 2009. – 184 b.

3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo‘llanma. – T.: “O‘qituvchi”, 2004. –104 b.

4. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. – T.: “Ma’naviyat”, 2019. – 920 b.

5. Pedagogika: yensiklopediya. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.

6. Xodjayev B., Sattorov Sh., Artikova M. Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyasi. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 168 b.

7. Qurbonova M. Yoshlarda kreativ tafakkurni shakllashtirishning pedagogik asoslari // “Xalq ta’limi” jurnali, 2020. – T.3.

8. Quronov M. Milliy tarbiya. - T.: “Ma’naviyat”, 2007. – 240 b.

9. Haydarov K. Milliy qadriyatlarni ta’lim mazmuniga singdirish masalalari. Uslubiy qo‘llanma. – T.: “Qamar media” nashriyoti, 2022. – 80 b.

10. Haydarov K., Rasulova D. Birinchi Renessans davri Sharq ma’naviy merosini o‘rganish masalalari. Uslubiy qo‘llanma. – T.: “Qamar media” nashriyoti, 2022. – 89 b.

IV. Dissertasiyalar

1. Muxsiyeva A.Sh. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari. Pedagogika fan. nom. diss. – T.: 2005.

2. Mamatqulov D.M. Malaka oshirish jarayonida umumta'lim maktab rahbarlarining mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan. bo'yicha fal. dok. ... dis. –T.: 2018.

3. Haydarov K.D. Yangilanayotgan O'zbekistonda ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi va uning uzluksiz ta'lim tizimidagi ahamiyati. Falsafa f. d-ri (DSc) diss. - Samarqand, 2022.

V. Elektron ta'lim resurslari

1. <https://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

2. <http://www.uzedu.uz>- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi portali.

3. www.ziynet.uz - Ziyonet ta'lim axborot tarmog'i.

3-mavzu: TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Reja:

1. “Tarbiya jarayoni” tushunchasi, uning mazmun-mohiyati.
2. Tarbiyaning asosiy tamo-yillari.
3. Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning zamonaviy shakllari.

Tayanch iboralar: tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiya shakllari, tarbiya texnologiyasi, pedagogik tarbiya, tarbiyaga innovasion yondashuv, ijodiy muhit, ma’naviy va ijodiy muhit uygʻunligi.

“Tarbiya” degan soʻzga koʻplab olim va mutaxassislar taʼrif berishgan. Lekin yangilanayotgan mamlakatimizda taʼlim sohasini rivojlantirishga qaratilgan eng muhim hujjat - Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunida “tarbiya” degan tushuncha “aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon”¹⁹, deb taʼriflangan. Ana shu taʼrifdan kelib chiqib, tarbiya jarayoni oʻta murakkab jarayon sifatida quyidagilarni mujassam etgan, deb qarash mumkin:

1. Ezgu maqsadga yoʻnaltirilgan jarayon;
2. Serqirra jarayon;
3. Davomiy jarayon;
4. Tizimli jarayon;
5. Ikki tomonlama oʻzaro aloqado jarayoni;
6. Bir tekis emas, balki ziddiyatli jarayon.

Shulardan kelib chiqib, tarbiya jarayonini bir butun, yaxlit, davomiy, uzluksiz va izchil jarayon deb atash mumkin. Shu boisdan “Jahon falsafasi qomusi”da **tarbiya jarayoni** “jismonan sogʻlom, maʼnan barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatuvchi tushuncha”²⁰, deb taʼriflangan.

¹⁹ “Таълим тўғрисида”. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. - Т.: Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. - 2020 йил 24 сентябрь. 03/20/637/1313-сон.

²⁰ Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-китоб. – Т.: “Маънавият” нашриёти, 2019. – 270-бет.

Tarbiyaning ikkita asosiy turi mavjud bo‘lib, ular *oilaviy* tarbiya hamda *ijtimoiy* tarbiya deb ataladi. Xalqimizning boy tarixiga nazar tashlasak, ko‘plab buyuk ajdodlarimiz – allomalar, mutafakkirlar, ulug‘ sarkardalar oilaviy tarbiya orqali shuhrat qozonib, dunyoga mashhur bo‘lganlar. “Qush oilada ko‘rganini qiladi”, deganidek, ota-onalar, bobo va buvilar hamda boshqa qarindoshlarning oilada tarbiyaviy ta’siri kuchli bo‘lgan.

To‘g‘ri, oilaviy tarbiyaning ta’siri qanchalik kuchli va serqirra bo‘lmasin, u ijtimoiy tarbiya bilan uzviylashgandagina tom ma’noda qudratli bo‘ladi. Ijtimoiy tarbiya deganda jamoat tashkilotlari, ijtimoiy tuzilmalar, fan, texnika, adabiyot, san’at, ommaviy axborot vositalari kabilarning tarbiyaviy ta’sir va ahamiyatini tushunish mumkin. Lekin ularning ichida umumta’lim maktablarining o‘rni juda muhimdir, chunki bola maktabning tarbiyaviy ta’sir jarayoniga kirgandagina tarbiyaviy jarayonda chinakam sifat va samara ko‘zga tashlana boshlaydi. Bola maktab ostonasiga qadam qo‘ygan kundan boshlab “murg‘ak qalb faoliyatini jamiyat, millat manfaati tomon burish uchun dastlabki qadam tashlanadi”²¹.

Shunday qilib, tarbiya jarayoni muayyan ezgu maqsadga qaratilgan, aniq reja va dastur asosida amalga oshiriladigan tizimli jarayondir. Uning pirovard maqsadi – yangi O‘zbekistonning haqiqiy bunyodkori bo‘lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ilmga asoslanmagan sohaning kelajagi bo‘lmaydi”²². Ayni paytda sohada amalga oshirilayotgan tub islohotlarning muhim yo‘nalishlari sifatida ta’lim-tarbiyaning sifati va mazmunini ko‘tarish, yangi pedagogik texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayonida keng qo‘llash, eng muhimi – har bir mehnat jamoasida ishchanlik, sog‘lom raqobat muhitini, bir so‘z bilan aytganda, *ijodiy muhitni shakllantirish* eng muhim masalaga aylandi. Ijodiy



21 Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-китоб. – Т.: “Маънавият” нашриёти, 2019. – 270-бет.

22 Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: “O‘zbekiston”, 2021. –271 бет.

muhit shunday muhitki, unda jamoa a'zolari tomonidan keng ko'lamda izlanishlar olib boriladi, tajribalar o'tkaziladi, ularning natijalari chuqur tahlil qilinadi, mantiqiy xulosalar chiqariladi, amaliyotda sinab ko'riladi va h.k. Shuning bilan birgalikda, tarbiyalanuvchilar qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish, aniq maqsadni ko'zlagan holda ular bilan ishlash tizimini takomillashtirish, ushbu yo'nalishda jamoatchilik e'tiborini o'quv-tarbiya jarayoniga, tarbiyalanuvchi, o'quvchi-talabalar shaxsini rivojlantirishga jalb yetish yo'nalishidagi ishlarga e'tibor kuchaytiriladi.

Ijodiy muhit ma'naviy muhitning uzviy qismidir. Aniqroq aytganda, ular o'zaro dialektik aloqadordir: ijodiy muhit ma'naviy muhitni boyitadi, ma'anaviy muhit yesa ijodiy muhitning shakllanishi va rivoji uchun shart-sharoit yaratadi. Shu nuqtai nazardan, qaysi ta'lim muassasasida ijodiy muhit yaratilsa, o'sha yerda tarbiyaviy jarayonda natija, sifat va samaradorlik bo'ladi, tarbiyaviy maqsadga erishiladi.

Ijodiy muhit deganda bevosita ijod jarayonining o'zini tushunish mumkin. Ijod – hozirgi davrda tarbiyaviy jarayonning muhim omili hisoblanadi. “O‘zbekiston milliy yensiklopediyasi”da ijod degan so‘zga shunday ta’rif berilgan: “Ijod – insonning yangi moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok yetadi, butun bilimi, tajribasi, iste’dodi namoyon bo‘ladi”²³.

Ijod faqat ilmiy yoki badiiy shaklda bo'libgina qolmaydi. Yangiliklarga intilish, yangi g'oyalarning tug'ilishi, uni hayotga, kundalik turmushga joriy yetish ham ijodiy faoliyatning mahsulidir.

Ma'naviy muhit tarbiyaviy jarayonning muhim tarkibiy qismi bo'lib, insonning sermahsul ijod qilishi uchun qulay imkoniyat demakdir. Ma'naviy muhitga ta'rif berib, taniqli faylasuf A.Yerkayev shunday yozadi: “Ma'naviy muhit – jamiyatning hissiy, aqliy va jismoniy kamolot borasida yerishgan o'rtacha saviyasi asosida vujudga kelgan talablari va ularning amalga oshish tartibi. Muhit, odatda, barqarorlikka, bir tekislik va bir xillikka intiladi, ularning talablari va ta'siri hammaga birdek o'rtacha bo'ladi”²⁴. Ma'naviy va ijodiy muhit haqida alohida nazariy tadqiqotlar kam

23Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 4-жилд, Т.: 2002. -81-бет.

24А.Эркаев. Маънавият – миллат нишони. Т.: 1999. -35-бет.

bo'lsa-da, har holda bu tushunchalarning mazmun-mohiyati ko'pchilikka ayon, deb o'ylaymiz. Gap bunday muhitni qanday yaratish va undan samarali foydalanish haqida ketmoqda.

Ma'naviy va ijodiy muhitni shakllantirish hamda rivojlantirishda ta'lim-tarbiyaning, o'qituvchi va murabbiylarning o'рни beqiyos. Sog'lom fikr, ishchanlik va tashabbuskorlik bor joyda muhit sog'lom bo'ladi, o'sha jamoa a'zolarining ma'naviy saviyasi ham yuksak bo'ladi. Aks holda ma'naviy nosog'lom muhit qaror topadi, bu yesa jamoada uyushqoqlik, mehr-oqibatni yemiradi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida chinakam ishchanlik, ijodiy muhit shakllangan bo'lsa, u yerda yutuq ham, samara ham, unumdorlik ham yuqori bo'ladi. Tarbiyaviy jarayondan kutilgan pirovard maqsad ham asli shundan iborat.

Maktabda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning *zamonaviy shakllari* sifatida nimalarni ko'rsatish mumkin? Albatta, ushbu jarayonni samarali tashkil etish – davr talabi bo'lib, uni uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida mehnat qilib kelayotgan o'qituvchilar to'g'ri anglaydilar. Tarbiya jarayoni ustoz va shogirdning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati, maqsadli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirishda aniq maqsadga yo'naltirilgan, bir-birini to'ldirib, boyitib va takomillashtirib boradigan jarayonni tashkil etish g'oyat muhimdir. Shu bois, tarbiya jarayonini tashkil etishda oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligi juda muhim hisoblanadi. Aynan ana shunday hamkorlikda tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar uzluksiz o'tkazib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Harqalay, buning uchun birinchi galda tizimdagi o'qituvchilarimiz ilg'or pedagogik tajribalar, interfaol metodlarning mazmun-mohiyatini, ularning qanday yelementlarni o'z ichiga olishini ham bilishlari lozimligi barchaga ayon. Chunki tarbiya jarayonini ta'lim jarayonidan ajralgan holda tasavvur qilish mumkin emas. ***Ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralgan holda olib boriladigan jarayon emas***, aksincha, ular bir-birini taqoza qiladigan, o'zaro ta'sirda bo'lgan, bir-birini doimiy ravishda to'ldirib va boyitib boradigan ***dialektik jarayon hisoblanadi***. Shu boisdan “tarbiya” ham, “ta'lim” ham, “ta'lim-tarbiya jarayoni” ham falsafiy tushunchalardir.

Demak, tarbiya jarayoni ta'lim jarayoni bilan uzviylikda olib boriladi, va, o'z-o'zidan, bunda ta'lim-tarbiya jarayonining subyektlari – o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorligi g'oyat muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda maktabda tarbiya jarayoni bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar, soha metodistlari, amaliyotchi o'qituvchilar ta'lim-tarbiyaning o'zaro faol shakl va uslublarini amaliyotda qo'llab kelmoqdalar. Xususan,

juftlikda ishlash;

karusel;

kichik guruhlarda ishlash;

akvarium;

tugallanmagan gaplar;

aliy hujum;

broun harakati;

daraxt yelimi;

o'z nomimdan so'zlayman;

rolli o'yinlar;

press-metod;

o'z pozitsiyasini egallash;

munozara;

debatlar;

katta davra va b.



Albatta, ushbu shakl va uslublar o'quvchilarning nafaqat bilim saviyasining, balki tarbiyalanganlik darajasining oshishiga ko'mak beradi. Ularning qaysi biridan foydalanish, jarayonni tashkil yetish uchun har bir tarbiyaviy mashg'ulotning konsepsiyasini yaratish, shu asosda uning ketma-ketligi, reglamenti, ish tartibi, maqsad va vazifalari, kutilayotgan natijalarini oldindan belgilab olish lozim. Shunday ijodiy muhit yaratilsa, uning samarasi ham kutilganidek bo'ladi, ya'ni:

o'qish va tadqiqotlarga ko'maklashiladi;

turli tadqiqotlar olib borish uchun materiallar taxt qilib qo'yiladi;

ijodkorlik, qobiliyatlar rag'batlantirib boriladi;

ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalar rivojlantiriladi;

fikrlar va axborotlar almashinuviga imkon yaratiladi;

nutqiy rivojlanish rag'batlantiriladi;

ma'lumotlarni mustaqil olish ko'nikmalari shakllanadi;

uzluksiz ta'lim olish ko'nikmalari rivojlantiriladi;

turli usullar bilan ma'lumotlar olish uchun resurslarni o'z ichiga oladi.

Shunday bo'lganda turli xil ma'lumotnomalar, lug'atlar, qomusiy to'plamlar, geografik xaritalar, kompyuter, tajriba o'tkazish uchun turli asboblarni, materiallarni bilan ishlash uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi.

Pedagogik faoliyatda tarbiya jarayonining shakli va usullarini to'g'ri tanlash g'oyat muhim ahamiyatga ega. Ta'lim-tarbiya jarayonini ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning mashg'ulotda qo'yilgan maqsadga erishishga qaratilgan o'zaro hamkorligini to'g'ri va tartibli tashkil yetish yo'li, deb tushunish mumkin. Bu hamkorlik serqirra va murakkab jarayon hisoblanadi. Tarbiya ta'lim jarayonida ta'lim oluvchining bilishi, udallashi va qadrlashi lozim bo'lgan natijalarga erishishni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, ta'lim berish usuli mashg'ulotda qo'yilgan maqsadga erishishning eng optimal yo'lidir. Bunda asosiy qoida – ta'lim maqsadiga mos kelish hisoblanadi.

Tanlab olingan ta'lim-tarbiya usulining natijadorligi qanday mezonlarga bog'liq? Bunda natijadorlik bajarilgan yoki bajarilmagan vazifa bo'yicha xulosa chiqarish orqali aniqlanadi.

Tarbiya fanini o'qitishda qanday ta'limiy-tarbiyaviy usullardan foydalanish maqsadga muvofiq? Albatta, bu o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Ularni shartli ravishda to'rtta guruhga ajratib tavsiflashga harakat qilamiz.

Birinchi guruh ta'lim-tarbiya usullari tayyor o'zlashtiruvchilik o'quv-tarbiyaviy faoliyatni ifodalovchi usullarni bildiradi. Ularga quyidagilar kiradi:

Ma'ruza – davomli vaqt ichida o'qituvchi tomonidan katta hajmdagi o'quv materialining monologik bayon qilishi. Usulning asosiy vazifasi - ta'lim berish. Belgilari: qat'iy tuzilma, og'zaki -mantiqiy bayon qilish, berilayotgan axborotning ko'pligi va ketma-ketligi. Ma'ruzalar muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Ma'ruza usulining samaradorlik shartlari quyidagilarga bog'liq:

uning rejasini tuzish;

mavzuning maqsadi, vazifalari va rejani yeshittirish;

har bir reja bayon yetilgach, qisqa umumlashtiruvchi xulosalar berish;
ma'ruzaning har bir qismi o'zaro uzviy va mantiqiy izchil bo'lishini ta'minlash;

ma'ruzaning hamda seminar (yoki amaliy mashg'ulot)lar bilan adekvatligini ta'minlash.

Hikoya – voqyea-hodisaning monologik bayoni bo'lib, o'quvchining o'rganilayotgan materialga qiziqishini kuchaytirishga qaratiladi. Hikoya muayyan voqyea-hodisaning mazmunini hissiy (yemosional) tarzda yetkazib berish bo'lib, bunda o'qituvchining san'atkorona mahorati muhim ahamiyatga ega bo'ladi, ayniqsa materialni ta'sirchan bayon qil olishi g'oyat muhimdir. Tarbiya darslarida hikoyani real hayotdan olish va tahlil qilish muhimdir.

Tushuntirish ham hikoyaga yaqin bo'lib, voqyea-hodisaning turli jihatlarini doskaga yozib tushuntirish yoki tahlil qilish, izoh berish hamda isbotlash orqali o'quv materiali yoritilishini bildiradi.



Namoyish – o'quvchilarni muayyan obyekt, voqyea-hodisalar va jarayonlar bilan ularning tabiiy holdagi ko'rinishi orqali tanishtirish yo'li bilan yemosional ta'sir ko'rsatish. Namoyish o'quvchining diqqat-e'tibori qaratilgan obekt yoki narsa-hodisaning tashqi ko'rinishi, shakl-shamo-yili bilan birgalikda ularning ichki tuzilishi, xossalari bilan ham tanishishga imkon beruvchi usuldir. Ushbu usul orqali qo'yilgan maqsadga erishish, natijadorlikni ta'minlash quyidagilarga bog'liq:

- e'tibor qaratilgan obyektни to'g'ri tanlash;
- ta'lim oluvchilar diqqatini obyektning muhim jihatlariga qaratish;
- namoyish qilinayotgan obyektни faqatgina ko'rish emas, balki uni idrok qilishga erishish;

e'tibor qaratilgan obyektning muhim va muhim bo'lmagan xossalarini aniqlash va ularga tayanib, obyektning sifati haqida xulosaga kelish.

Tasvirlash – narsa yoki hodisaning xossalarini chizmalar, jadvallar, rasmlar, suratlar, albomlar, xaritalar, modellar orqali tushuntirish va o‘rgatish.

Ko‘rish – obektning xossalarini kodoskop, proyektor, kinoapparat, shuningdek axborotni displey bilan aks yettiruvchi kompyuterlar bo‘yicha qabul qilish usuli.

Ikkinchi guruh ta’lim-tarbiya usullariga o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni ikkinchi darajada o‘zlashtirishni ta’minlovchi usullar kiradi.

Masalan, *kitob bilan ishlash* usuli. U mashg‘ulot jarayonida o‘qituvchi rahbarligida yoki uyda mustaqil ishlashni bildiradi. O‘quvchilarga uyda kitob bilan ishlash uchun topshiriq berishdan oldin o‘qituvchi o‘quvchining kitob bilan mustaqil ishlash ko‘nikmasiga ega ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak. Bordini, ish o‘quv mashg‘uloti jarayonida olib borilsa, unda kitob bo‘yicha o‘rganiladigan materialni alohida qismlarga bo‘lib, ularni nazorat qilish lozim.



Empirik usul, buni laboratoriya usuli desa ham bo‘ladi – o‘quvchilarning o‘qituvchi rahbarligi ostida avvaldan tayyorlangan reja bo‘yicha tajribalar o‘tkazishi yoki amaliy topshiriqlarni bajarishi asnosida yangi bilimlarni qabul qilishlari va ularni tushunib olishlariga qaratilgan usul.

Yempirik usulning asosiy vazifasi o‘quvchilarni bilishga o‘rgatish va mavjud bilimlarini boyitishdan iborat bo‘lib, u o‘quvchilarga qator afzalliklar beradi, jumladan:

o‘quvchilarning alohida jihozlar bilan ishlash bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

bilimlarni tekshirish va mustaqil tadqiqot yo‘llarini tanlashga o‘rgatadi; ularning amaliy malakalarni egallash, natijalarni qayta ishlash va avvalgi bilimlar bilan solishtirish imkonini beradi.

Mashq qilish usuli, ya’ni o‘rganilayotgan materialni amaliyotda qo‘llash maqsadida muntazam ravishdagi takrorlanuvchan harakatni

nazarda tutadi. Uning asosiy vazifasi - ta'limiy va rivojlantiruvchi. Mashqning maxsus, sharhlashga doir, yozma, og'zaki, ishlab chiqarish kabi turlari mavjud.

Uchinchi guruh ta'lim-tarbiya usullari suhbat, bahs-munozara, aqliy hujum, vaziyat kabi muhokama qiluvchi usullar bo'lib, ular o'quvchilarda uchinchi darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi usullar sirasiga kiradi.

Suhbat – ta'lim-tarbiya berish va o'rganishning ikki tomon o'rtasidagi savol-javobli yo'li bo'lib, ushbu guruh ta'lim-tarbiya usullaridan eng qadimiysi hisoblanadi. Antik dunyoda buyuk yunon faylasufi Suqrot ikki tomonning suhbatini, ya'ni dialogning ustasi bo'lib, aynan shu usulda shogirdlariga namuna bo'lgan. Hozirga qadar dialogning mumtoz namunasi sifatida Suqrot tajribasi zamonaviy ta'limda qadrlanadi.

Ushbu usulning asosiy vazifasi *qiziqtirish* bo'lib, oqilona qo'yilgan savollar yordamida o'quvchida berilgan mavzu bo'yicha bilimlarni yeslash va bayon qilishni nazarda tutadi, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar muhokama qilishga kirishadi. Ushbu usul yordamida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini ikkinchi tomonga uqtira olish, umumlashtirish orqali xulosa qilish va shu yo'l bilan yangi bilimlar o'zlashtirish



ko'nikmalari hosil qilinadi. Suhbat o'quvchilarning fikrlashga bo'lgan intilishini faollashtiradi, bilimga intilishlarini kuchaytiradi, aqliy rivojlanishiga yordam beradi.

Odatda suhbatning o'quv va "davra suhbatini" shakllari mavjuddir. O'quv suhbatidan farqli o'laroq, davra suhbatini erkin holda ishtirokchilarning joylashish tartibi va ularning o'z fikrlarini navbat bilan bildirishi orqali namoyon bo'ladi.

Bahs-munozara – muayyan mavzuda o'zaro fikr almashish, muhokama shaklidagi ta'lim-tarbiyaning faol usullaridan biri. Bahs-munozara usuli qator vazifalarni bajarishi bilan ajralib turadi. Ushbu usuldan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

yangi bilimlarni shakllantirish;

o'quvchilarning u yoki bu savollarni chuqur o'ylab ko'rishlari, ularning

mohiyatiga kirishlarini ta'minlash;

asoslangan xulosalar o'rtasidagi farqni tushunib yetishga o'rgatish;

o'zaro fikr almashinuv ko'nikmalarni shakllantirish;

o'quvchilarning o'z fikrini himoya qilishiga yordam berish.

Yerkin bahs-munozara o'quvchilarning tafakkur madaniyatini kuchaytiradi, umumiy dunyoqarashi shakllanishiga ko'mak beradi.

Aqliy hujum (breynstroming - aqlar to'zoni) - amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirish bilan bog'liq faol usul. Bunda ishtirokchilar ancha murakkab bo'lgan muammolarni yechishga urinadilar: bir-birlarini tanqid qilmasdan muammoni hal yetishga qaratilgan shaxsiy g'oyalarni ilgari suradilar, ularning ichidan rasional g'oyalarni ajratib oladilar, ularni muhokama qiladilar va to'ldiradilar, umumiy xulosaga keladilar.

Ushbu usul boshqa usullarga qaraganda ancha serqirra bo'lsa-da, uning asosiy vazifasi - o'quvchilarning dunyoni, tabiatni, insonni bilish qobiliyatini shakllantirish, muammoni mustaqil tushunish va hal qilishga yo'naltirish va ularda tafakkur madaniyatini kengaytirish, erkin fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, tashqi ta'sir yoki bosim ostida fikrlashdan xalos bo'lish, o'zining mustaqil fikrini shakllantirish, uni himoya qila olishga o'rgatish kabi fazilatlarini tarbiyalashdan iboratdir.

Aqliy hujumning qoidasi – "birovni baholash va tanqid qilishga yo'l qo'-yilmaydi". Tanqid qilma, hamma aytilgan g'oyalar qimmatli, teng kuchlidir.

O'rtaga chiquvchi bo'lma!

O'zingni tutib tur!

Maqsad sifat emas, miqdor!

G'oyalar qancha ko'p ilgari surilsa, yanada yaxshi: yangi va qimmatli g'oyalar paydo bo'lishi uchun imkoniyat ko'payadi.

G'oyalar qabul qilinmasa, xafa bo'lish, hijolat chekish to'g'ri emas.

Tuyg'uliring bermalol jo'sh ursin!

Baholash tizimi va kichik guruhlarda eng yaxshi g'oyalarni tanlash tartibi:

1. Har bir ishtirokchi 5 ballik bahoni oladi. Ularning hammasini birdaniga bir yoki ikki g'oyaga bo'lib berish mumkin (2:3, 1:4) yoki uchga

(2:1:2) va boshqa.

2. Har bir g'oya bo'yicha olingan barcha ballar jamlanadi.

3. Barcha g'oyalar uzun qog'oz varag'iga yoziladi. Agarda g'oyalar takrorlansa, unda avval yozilganning yonida belgi qo'yiladi.

4. G'oyalar umumiy ballning pasayishiga qarab saralanadi (masalan, 10dan 1), katta bo'lmagan ballni to'plagan g'oyalar yutib chiqadi. Tortishuv holatida ovoz berish mumkin.

5. Ishtirokchilarning eng muhim g'oyalari jamoaviy g'oyalar shaklida ifodalanadi.

Vaziyatlar usuli o'qituvchining muammoli vaziyatlarni yaratishga va o'quvchilarning bilish faoliyatiga asoslangan. U aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va keyingi qarorni qabul qilishdan iborat.

Usulning asosiy vazifalari:

o'rgatuvchi – bilimlarni faollashtirishga asoslangan;

rivojlantiruvchi – tahliliy tafakkurni, alohida hodisalarning dalillari qonuniylikni ko'ra bilishini shakllantirish;

tarbiyalovchi – fikr almashinish ko'nikmalarni shakllantirish.

Muammoli vazifalardan foydalanish usuli nazariyani amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi, o'rganishga qaratilgan materialni ta'lim oluvchilar uchun yanada dolzarbligini oshiradi.

Ushbu usul muammoli vazifaning murakkabligini qator dalillar bilan aniqlashni nazarda tutadi, ular o'quvchilar darajasiga mos kelishi kerak. Agar tanishtiruvchi material hajmi katta yoki murakkab bo'lsa, ular hamma axborotni qabul qila olmaydilar, yechimini topishni bilmaydilar va o'quv faoliyatida bo'lgan har qanday qiziqishlardan mosuvo bo'ladilar.

To'rtinchi guruh ta'lim-tarbiya usullari mustaqil izlanuvchilik faoliyatiga ko'maklashuvchi, to'rtinchi darajada bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan usullardir.

O'qituvchi ***ta'lim-tarbiya berish usulini tanlash*** va uni mashg'ulotda qo'llashdan oldin quyidagi didaktik omillarga e'tibor bersa maqsadga muvofiq bo'ladi:

avvalo maqsadni belgilash kerak, unda:

1) tarbiyaning maqsadi;

2) pedagogik vazifalar;

3) faoliyat natijalari koʻzda tutiladi.

Soʻngra *oʻquvchilarning oʻquv imkoniyatlari*, yaʼni ularning tayyorgarlik darajasi, oʻquv malakalarining shakllanganligi, faolligi, qiziqishlari va yoʻnaltirilganligi, yoshi, ishlash qobiliyati kabilar eʼtiborga olinadi.

Vaqt sarfiga eʼtibor bering, taʼlim-tarbiya berish sharoitini eʼtiborga oling, chunki ayrim usullarni qoʻllash uchun alohida sharoit - taʼlimning texnik vositalari, kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnitli yozuv taxtasi, maxsus jihozlangan xona va boshqalar talab yetiladi.

Albatta, taʼlim-tarbiya jarayonini olib borishning shakl va uslublari koʻp, ammo pedagogik faoliyatda ularning eng optimal, qulay boʻlganlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu esa taʼlim-tarbiya jarayonining sifat va mazmunini oshirib, kutilgan natijani taʼminlaydi.

Nazorat savollari

1. *“Tarbiya jarayoni” degan tushunchani taʼriflang.*
2. *Taʼlim va tarbiya jarayonining dialektik aloqadorligi qanday namoyon boʻladi?*
3. *Taʼlim-tarbiya jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchining pedagogik hamkorligi qanday omillarga bogʻliq?*
4. *“Taʼlim-tarbiyaning shakl va usullari” deganda nimani tushunasiz?*
5. *Oʻqituvchi taʼlim-tarbiyaning shakl va uslublarni qanday tanlashi lozim?*
6. *Tarbiya jarayonidan kutiladigan natijalar haqida soʻzlab bering.*

Testlar

1. Davomli vaqt ichida oʻqituvchi tomonidan katta hajmdagi oʻquv materialining monologik bayon qilinishi - bu ...

- A) maʼruza;
- B) hikoya;
- S) tushuntirish;
- D) yoʻriqnoma berish.

2. Dialog (yunoncha: dialogos - ikki yoki bir necha insonlar orasidagi soʻzlashuv) - taʼlim-tarbiya berishning savol-javobli yoʻli - bu

- A) suhbat;
- B) bahs (munozara);
- S) ko‘rsatish;
- D) tushuntirish.

3. Tarbiyaga doir o‘qituvchining monologik xabar berishi (odatda u o‘rganilayotgan materialga qiziqish uyg‘otish uchun qo‘llaniladi)

- A) hikoya;
- B) tushuntirish;
- S) yo‘riqnoma berish
- D) ma’ruza.

4. Tarbiyalanuvchilarni hodisa va jarayonlar bilan ko‘rgazmali-hissiy tanishtirish usuli - bu

- A) namoyish;
- B) ko‘rsatish;
- S) ko‘rish;
- D) laboratoriya usuli.

5. Tarbiyaviy tadbir - suhbatlarning tashkiliy shakli bo‘yicha turlarini ko‘rsating.

- A) o‘quv va “davra suhbatlari”;
- B) ilmiy-ma’rifiy suhbat;
- S) munozara va suhbatlari;
- D) tarbiyaviy bahs.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

2. “2022-2026 -yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - 2022 -yil 29 yanvar. 06/22/60/0082-son.

3. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining qarori. - T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 3 yanvar. 09/20/391/0777-son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: "O'zbekiston". - 2017.- 102 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: "O'zbekiston", 2021. – 464 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2022 -yil 21 dekabr.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. - Tanlangan asarlar. 1-jild. - T.: Fan, 1968. – 486 b.

2. Ziyomuhammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: "Tib-kitob", 2009. – 184 b.

3. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo'llanma. – T.: "O'qituvchi", 2004. –104 b.

4. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. – T.: "Ma'naviyat", 2019. – 920 b.

5. Pedagogika: yensiklopediya. 1-jild. – T.: "O'zbekiston milliy yensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.

6. Xodjayev B., Sattorov Sh., Artikova M. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 168 b.

7. Qurbonova M. Yoshlarda kreativ tafakkurni shakllashtirishning pedagogik asoslari // "Xalq ta'limi" jurnali, 2020. – T.3.

8. Quronov M. Milliy tarbiya. - T.: "Ma'naviyat", 2007. – 240 b.

9. Haydarov K. Milliy qadriyatlarni ta'lim mazmuniga singdirish masalalari. Uslubiy qo'llanma. – T.: "Qamar media" nashriyoti, 2022. – 80 b.

IV. Dissertasiyalar

1. Muxsiyeva A.Sh. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari. Pedagogika fan. nom. diss. – T.: 2005.
2. Mamatqulov D.M. Malaka oshirish jarayonida umumta'lim maktab rahbarlarining mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan. bo'yicha fal. dok. ... dis. –T.: 2018.
3. Haydarov K.D. Yangilanayotgan O'zbekistonda ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi va uning uzluksiz ta'lim tizimidagi ahamiyati. Falsafa f. d-ri (DSc) diss. - Samarqand, 2022.

V. Elektron ta'lim resurslari

1. <https://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. <http://www.uzedu.uz>- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi portali.
3. www.ziynet.uz - Ziyonet ta'lim axborot tarmog'i.

4-mavzu: MAKTABDAGI TARBIYAVIY ISHLAR TIZIMIDA SINFLAR RAHBARINING FAOLIYATI. SINFLAR RAHBARINING O'QUV FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Reja:

1. Sinflar rahbari va uning mas'uliyati to'g'risida.
2. Sinflar rahbarining tarbiya sohasidagi asosiy vazifalari.
3. Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda sinflar rahbarining intellektual va ijodiy faolligi.

Tayanch iboralar: tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, sinflar rahbari, sinflar rahbari imiji, tarbiyaviy ish, tarbiya texnologiyalari, tarbiyaviy jarayon, hamkorlik, faollik.

Ma'lumki, bugun mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida bo'layotgan o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni, eng avvalo, ta'lim oluvchining, ya'ni o'quvchining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir. Shu nuqtai nazardan ham shaxsga, uning kamolotiga qaratilgan ta'lim-tarbiya o'quvchida orzu-istaklarini ro'yobga chiqaruvchi qudratli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shu ma'noda bugungi kunda o'quvchilarga ta'lim berish bilan birgalikda tarbiya jarayonlarini olib borish kelajak egalari bo'lmish yoshlarning ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishida juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'z-o'zidan ma'lumki, ushbu jarayonda *sinflar rahbarining mas'uliyati* ayniqsa katta. Chunki u muayyan bir sinfda o'quv-tarbiyaviy ishlarning to'g'ri va oqilona tashkil etilishiga asosiy mas'ul hisoblanadi. **Sinflar rahbari** – bir xil yosh hamda bir xil bilim va saviyadagi o'quvchilar jamoasini boshqarib turadigan pedagogdir.

Sinflar rahbari boshqalarga qaraganda o'quvchilar bilan ko'proq birga bo'ladigan, ular bilan bevosita muloqot qiladigan, ularning holidan yaqindan xabardor bo'ladigan pedagog hisoblanadi. Lekin, shunday bo'lsa-da, tarbiya ishi birgina sinflar rahbari ishtirokida olib boriladigan ish emas. Tarbiya ishi ta'lim muassasasida xizmat qiladigan barcha pedagoglar zimmasidagi vazifadir.

Ma'lumki, ta'lim singari tarbiya ishining ham o'ziga xos va xilma xil texnologiyalari mavjud. *Tarbiya texnologiyalari* ta'lim jarayoni ishtirokchilarining maksadga qaratilgan, hamjihatlik va o'zaro hamkorlikdagi faoliyatining algoritmi, ya'ni ketma-ketligi bo'lib, kutilgan natijaga erishishning asosidir. Uning izchillik; kontseptuallik; ilmiylik; maqsadga muvofiklik; natijalarning kafolatlanganligi; qulaylik (optimallik) kabi asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Sinf rahbari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (hozirgi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi)ning 2021 -yil 22 fevraldagi 41-sonli buyruq ilovasi bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Nizom asosida tashkil qiladi va olib boradi.

Albatta, mamlakatimiz umumta'lim maktablarida mehnat qilib kelayotgan barcha sinf rahbarlari ushbu Nizom bilan tanish bo'lganlari bois uning mazmun-mohiyatiga to'xtalish joiz emas deb hisoblaymiz. Shu bilan birgalikda, Nizomda bayon etilgan qoidalar va talablarning har birini mukammal bilish va o'z faoliyatida unga qat'iy rioya qilish – har bir sinf rahbarining birinchi navbatdagi burchi bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlash joiz.

Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida islohotlar jadallik bilan olib borilayotgan bugungi kunda sinf rahbarining oldiga quyidagi to'rtta muhim vazifa qo'yilmoqda: 1) sinf rahbari o'z ishini puxta bilishi; 2) kutiladigan natija, ya'ni maqsadga erishish uchun qat'iy ishonchli bo'lishi; 3) muayyan psixologik (ruhiy) tayyorgarlikka ega bo'lishi; 4) o'z ustida tinimsiz ishlashi²⁵. Albatta, sinf rahbarining faoliyati fan o'qituvchilariga qaraganda ancha serqirra bo'lgani bois, uning faoliyatida turli-tumanlik, betakrorlik, noan'anaviy yondashuvlar qancha ko'p bo'lsa, shunchalik maqsadga muvofiqdir.



25 Хайдаров К.Д. Янгиланаётган Ўзбекистонда маънавий кадрларнинг тикланиши ва унинг узлуksiz таълим тизимидаги аҳамияти. Фалсафа ф. д-ри (DSc) дисс. Автореферати. - Самарқанд, 2022. –Б.20.

Hozirgi kunda sinf rahbariga xos bo'lgan muhim xususiyatlar quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- o'z faoliyatni muntazam ravishda kuzatib va tahlil qilib borish;
- o'ziga tanqidiy baho bera olish;
- o'z ustida muntazam ishlashga o'rganish;
- doimo yangilikka intilish.

Shunday xususiyatlarni o'zida mujassam qila olgan sinf rahbari faoliyatida katta yutuqlarga, oldiga qo'ygan maqsadlariga erisha oladi. Sinf rahbari – avvalo pedagog, tarbiyachi degani. Shu bois uning yangi, zamonaga xos bo'lgan tarbiyaviy texnologiyalarni o'z faoliyatida dadillik bilan qo'llashga, ulardan keng foydalanishga o'rganishi muhim ahamiyatga ega.

Bugun sinf rahbari tom ma'noda ibrat namunasi, donolik va fido-yilikni o'zida mujassam yetgan jonkuyarlik timsoli bo'lishi lozim. Bunday ulug' martabaga u faqatgina o'z pedagogik mahoratini oshirish orqali erishishi mumkin. Agar unda pedagogik mahorat yetishmasa, tarbiyaviy ishda samara haqida gap bo'lishi mumkin emas. Pedagogik mahorat eng avvalo sinf rahbarining qiyofasi (imiji), uning ilmiy va ma'rifiy salohiyati, g'oyaviy yetukligi, shaxsiy sifatleri, o'quvchi yoshlar oldidagi obro'-e'tibori, hayotiy tajribasi va ko'nikmalariga bog'liq, albatta.



Mahoratli sinf rahbari qaysidir ma'noda qobiliyatli ham bo'ladi. Qobiliyatli bo'lish yesa mehnat orqali o'z kasbining ustasi bo'lish, "kasbga sho'ng'ib ketish" degani. Sinf rahbari o'z maqsadiga erishish uchun tinmay izlanishi, o'rganishi, malaka va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishi lozim. Chunki zamon bir joyda to'xtab turmaydi, u doimo olg'a qarab ketadi. Shu bois, davr uning oldiga yangidan yangi vazifalar qo'yadi. Bugun sinf rahbari zamonga "moslashish" emas, undan bir qadar oldinda yurishga intilishi kerak. Dono xalqimizning "Bilgan kishi "bildim" demas,

bildim desa – bilgani emas”, degan hikmati²⁶ ham aslida shuni nazarda tutadi.

Falsafiy va pedagogik mazmundagi adabiyotlar “pedagogik mahorat” degan iboraning yangi emasligini ko‘rsatadi. Avvalgi davrlarda ham mahoratli o‘qituvchilar bo‘lgan. Sinf rahbari - mahoratli ustoz hyech qachon shogirdlari xotirasidan o‘chmaydi, ular mahoratli ustozlarini doimo chuqur yehtirom va minnatdorlik bilan tilga oladilar. Sharq mutafakkiri Nosir Xusravning “Kimki shogirdlikka chin dildan shod, bir kun o‘zi ham bo‘lg‘usi ustod”²⁷, degan hikmatida xuddiy shunday ma’no mujassam.

O‘z ishining ustasi bo‘lgan sinf rahbarini hamma hurmat qiladi, unga havas bilan qaraydi. Uning o‘z mehnatidan qoniqish hissi, yertangi kunga ishonchi juda baland bo‘ladi. Mashaqqatli, lekin g‘oyat sharaflı mehnatlari bilan dong taratib, davlatimizning turli xil mukofotlariga sazovor bo‘layotgan, xalqimizning qalb qo‘ridan joy olayotgan ustoz-murabbiylar soni ko‘payib borayapti. Ularning orasida sinf rahbarlari ham bor.

Bugungi kunda yangilanish jarayonlariga hamohang holda ***sinf rahbarining tarbiya sohasidagi asosiy vazifalari*** quyidagilardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, sinfdagi har bir o‘quvchining tarbiyalanganlik darajasini o‘rganib, unga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsata olish mahoratiga ega bo‘lish;

ikkinchidan, tarbiyaviy jarayon davomida o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan xulq-atvor, fazilat va ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan shakl va uslublarni tanlab olib, maqsadga erishish yo‘llarini ko‘ra olish;

uchinchidan, tarbiya sohasida ilg‘or va zamonaviy pedagogik tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish va o‘zining faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

to‘rtinchidan, mashg‘ulotlarni yangi pedagogik texnologiyalar hamda noan’anaviy yondashuvlar asosida tashkil yetish va ularni o‘quvchi ongi va ruhiyatiga qanchalik darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatganini sinchiklab kuzatib va ushbu jarayonni yanada takomillashtirib borish;

26 Қаранг: Ҳикматнома: ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўз. энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. -40 бет.

27 Ҳикматлар шодаси / тўпловчи ва таржимонлар А.Раимов, Н.Раимова; муҳаррир А.Зиядов. Т.: “Ўзбекистон”, 2016. -540 бет.

beshinchidan, o‘z ustida muntazam ishlashga o‘rganish, tarbiya faniga doir eng yangi tadqiqotlar, ilmiy nashrlar, kitoblar bilan tanishib borish orqali o‘z bilimini boyitib borish, pedagogik tajriba va mahoratini rivojlantirib borish.

Tarbiya jarayonini samarali tashkil yetish, o‘quvchi ongi va qalbida insoniy fazilatlarni shakllantirish ko‘p jihatdan sinf rahbarining intellektual va ijodiy faolligiga bog‘liq. Ular quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

- tarbiyaviy ishlarning maqsadi, aniqligi va ta’sirchanligi. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart-sharoitlarni oldindan aniqlab qo‘-yilgan maqsadga muvofiqlashtirish;

- tarbiya jarayonini tashkil yetishdagi munosabatlar. Bu o‘quvchilarning kundalik hayotiy voqyealari, jamoadagi tartib qoida va xulq-atvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondashuv kabilar;

- o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari. O‘qituvchi va o‘quvchilarning ruhiy holatlari, muloqoti, munosib psixologik iqlimning yaratilishi;

- o‘quvchilarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil yetish;

- tarbiyaviy mashg‘ulotlarda rolli o‘yinlar va ishbilarmonlik o‘yinlaridan unumli foydalanib, ularni aniq maqsadlar asosida tashkil yetish;

- tarbiyaviy jarayonda olgan bilimlarining hayotiy voqyelik bilan uyg‘un bo‘lishiga erishish;

- tarbiyaviy mashg‘ulotlarni rejalashtirishda turli fanlarning integrasiyasini hisobga olish muhim ahamiyat kasb yetadi.

Albatta, sinf rahbarining metodik mahorati, uning o‘z faoliyatida yangi va eng zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o‘rinli va samarali foydalana olishi – o‘quvchilarning iste’dodini rivojlantirish va ma’naviy-intellektual yetukligini ta’minlashda ayniqsa muhimdir. Shu boisdan mamlakatimizda dunyodagi eng rivojlangan davlatlardagi ta’lim-tarbiya tizimi, ilg‘or tajribalarni



o‘zimizning mumtoz an‘analar bilan uzviy holda rivojlantirish asnosida ta‘limning milliy modelini yaratish, innovasion g‘oyalarni o‘rganishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Masalan, ayni kunda Samarqand viloyati maktab ta‘limi tizimida to‘plangan o‘ziga xos tajribalarni Finlyandiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlarning zamonaviy ta‘lim modellaridagi o‘ziga xos jihatlar bilan uyg‘un holda takomillashtirish yo‘nalishida muayyan ishlar olib borilmoqdaki, ularning yaqin kelajakdagi beradigan samarasiga shubha yo‘q. Sifatli ta‘limni joriy yetish maqsadida Samarqand tajribasiga xos bo‘lgan “Sifasiz o‘tilgan har bir soat dars – kelajakka xiyonatdir”, “Oqibat bilan emas, sabab bilan ishlash kerak”, “Dars - muqaddas”, “O‘rgan – o‘rgat”, “Sog‘lom muhit – sog‘lom jamoa” kabi innovasion tajribalar amaliyotga joriy qilinmoqda. Mazkur innovasiyalar asosida bugun “Zamonaviy maktabda zamonaviy o‘qituvchi ishlashi kerak”, “Zamonaviy maktabni zamonaviy rahbar boshqarishi kerak” deb nomlangan tashkiliy va metodik chora-tadbirlar kompleksi tavsiya yetilib, joriy qilinmoqda.

Bugun kundalik leksikonimizdan “zamonaviy pedagog”, “zamonaviy o‘qituvchi”, “zamonaviy tarbiyachi” kabi iboralar tobora mustahkam o‘rin olmoqda. Shular qatorida “zamonaviy sinf rahbari” degan tushuncha ham muhim ahamiyat kasb etib borayotir. Zamonaviy sinf rahbarining o‘quvchi yoshlar ma‘naviy kamolotidagi yetaklovchilik xususiyatlari muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish, ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida avvalo sinf rahbari bo‘lgan pedagoglarning o‘zida ham ta‘lim-tarbiya jarayonini oqilona va muvaffaqiyatli tashkil yetish mahoratini rivojlantirish zarurligini hayotning o‘zi taqozo qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, bugun tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi eng muhim talablar qo‘yilayotgani bejiz emas:

– mashg‘ulotlarda tanlanadigan mavzuning ilmiy asoslanganligi, o‘quvchilar imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, o‘tgan darsdagi o‘tilgan mavzu bilan bog‘lash, o‘quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarning ketma-ketligini aniqlash, darsda kerak bo‘ladigan jihozlarni belgilash va

qo‘shimcha ko‘rgazmali qurollar bilan boyitish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darsda muammoli vaziyatni yaratish;

– barcha sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish, amaldagi va yangi nashr yetilgan o‘quv qo‘llanmalarning mazmun-mundarijalarini o‘rganish va tahlil qilish;

– har bir mavzuni bayon yetishda muqaddas manbalarimizdan, xalq ijodi, rivoyatlar, yertaklar, hikoya, maqol, matal va hikmatlardan, buyuk ajdodlarimiz merosidan, mumtoz va zamondosh shoir va yozuvchilarimizning asarlaridan oqilona va o‘rinli foydalanish orqali mashg‘ulotlarni qiziqarli tarzda tashkil yetish;


– albatta, fanlararo uzviylikka ham e‘tibor berish, amaliy, ijodiy mashg‘ulotlarni ko‘proq kiritish, bunda tajribali o‘qituvchilarning ijodiy ish uslublaridan keng foydalanish lozim.

Tarbiya jarayonida sinf rahbari maktabning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, faoliyatini o‘quvchilarning umumiy tayyorgarligi holatiga individual va differensial yondoshgan holda tashkil yetmog‘i va amalga oshirib bormog‘i talab yetiladi.

Sinf rahbari o‘z kasbining ustasi bo‘lishi bilan birgalikda o‘zining turmush tarzi bilan ham o‘quvchi yoshlarga *ibrat bo‘lishi* kerak. Tarbiyada eng ta’sirchan omil – bu shaxsiy ibrat, namuna. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar biz uchun ibrat namunasi, yuksak insoniy fazilatlar timsolidir”, degan ilhombaxsh so‘zlari sinf rahbari pedagogik ma’naviyatning tom ma’noda andozasi ekanligini tasdiqlaydi .

Yurtboshimizning ushbu sharaflı kasb sohiblariga bo‘lgan g‘amxo‘rliklari bois bugun o‘qituvchining, xususan, sinf rahbarining mavqeyi ortib bormoqda. Ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rliklar tufayli ularning o‘z kasbiga mehr-muhabbati va sadoqati yanada oshdi, uni o‘z ustida bundan-da ko‘proq ishlashga ilhomlantirdi.


Bugungi sinf rahbari ma'naviy o'tmishimizning tarixiy ildizlarini teran anglashi va uni o'quvchi yoshlar ongiga singdira olishi zarur. Masalan, u o'quvchi yoshlarni buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur vafotidan so'ng yurtimizda feodal tarqoqlik avj olgani, keyinchalik o'lkada uchta xonlik vujudga kelib, ular o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar tufayli mehr-oqibat bir qadar ko'tarilgani, bundan foydalangan chor Rossiyasi yurtimizni bosib olganligi va shu tariqa milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga putur yetishiga sabab bo'lgan tarixiy xatolarga yo'l qo'yish mumkin emasligiga ishontirishi lozim. "O'z g'oyang bo'lmasa, sening yurtingda chet g'oya kelib hukmronlik qiladi" degan tarixiy hikmatni yetmish -yildan ortiq davom yetgan kommunistik istibdod davrida isbot topganini xalqimizga, yosh avlodga tushuntirish borish sinf rahbari bo'lgan o'qituvchining burchiga aylanishi lozim.



Kommunistik g'oya bizning yurtimizda paydo bo'lgan emas. Xalqimizda unga mo-yillik ham bo'lmagan. Bu g'oya Yevropadan bu yerga olib kelingan, boshqacha qilib aytganda "yeksport" qilingan. Sun'iy yo'l bilan joriy qilingan bu soxta g'oya milliylikning darz ketishiga, madaniyatimiz, ma'naviyatimiz qashshoqlashishiga, yovuz g'oyalarning kirib kelishiga, qadriyatlarimizning poymol yetilishiga olib kelganligini o'quvchi yoshlarimizga to'g'ri tushuntirish lozim. Shu bilan birgalikda har qanday mustaqil davlatning milliy mafkurasi bo'lishi, boshqacha aytganda, g'oyasiz jamiyat, davlatning kelajagi yo'qligini yosh avlod qalbiga chuqur singdirish o'qituvchining asosiy vazifasi bo'lishi kerak. Buni faqatgina sinf rahbari yoki Tarbiya fanidan dars beruvchilar emas, balki barcha muallimlar, professor-o'qituvchilar amalga oshirishlari kerak. "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" degan g'oyani har bir o'quvchining ongiga yetkazish kerak.

Bugungi o'qituvchi – sinf rahbari avvalgi muallimdan butunlay farq qiladi. Yendilikda o'qituvchilik va tarbiyachilik mas'uliyati har qachongidan ham yuksak va sharaflidir. Bu mas'uliyat yangi O'zbekiston fuqarosini kamol toptirish demakdir. Yigirma birinchi asr - aql zakovat asri

deya ye'tirof yetilganligini inobatga olsak, o'qituvchi mas'uliyati naqadar muhimligini anglab yetamiz. Farzandlarimizni erkin fikrlashga o'rgatish, ularda mustaqil dunyoqarashni shakllantirish sinf rahbari faoliyatining mazmuni va mohiyatini tashkil yetishi lozim.



Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o'z asarida buyuk mutafakkir ajdodimiz Yusuf Xos Hojib merosidan “Dunyoda ikki turli inson haqiqiy inson sanaladi: biri – o'rgatuvchi, biri – o'rganuvchi” degan iqtibosni juda o'rinli keltirgan edi ²⁸. O'rgatuvchi – ustoz, o'rganuvchi – shogird munosabatida ustozning mas'uliyati kattadir. Yaxshi o'qituvchi deganda kasbiy mahorati yuqori bo'lgan muallimni tushunamiz.

Pedagogik mahorat sinf rahbarining ma'naviy yuksakligidan dalolat beradi. “Pedagogika” so'zi “Bola yetaklayman” degani, demak, pedagog - bolani yetaklovchi shaxsdir. Lekin bolani yetaklay olish uchun nima kerak? - Mahorat kerak! Yaponlar yoki koreyslar taraqqiyotda nega ilgari lab ketishdi? Chunki, ular ta'lim-tarbiyaga zo'r berib, yangi pedagogik texnologiyalarni dadil joriy qildilar. Ular bolalarni o'qitishdan ko'ra, o'qishga o'rgatishni ma'qul ko'rdilar. Boshqacha aytganda, bolani baliq yeyishgagina emas, baliq ovlashga ham o'rgatdilar. Aynan pedagogik mahorat sinf rahbari ma'naviyatining uzviy tarkibiy qismiga aylansagina u o'quvchida erkin fikrlash ko'nikmalarini, tafakkur madaniyatini, insoniy fazilatlarni shakllantira olishi mumkin.

Testlar

1. Sinf rahbariga qo'yilayotgan eng muhim talablar

- A) kreativlik, intellektuallik, ijodiy faollik, fido-yilik, novatorlik, ma'naviy yetuklik;
- B) insoniylik, kamtarlik, samimiylik, fido-yilik, mehribonlik;

²⁸Қаранг: Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. Т.: “Ўзбекистон”, 2017. -423 бет.

S) ishbilarmonlik, gʻayrat-shijoatlilik, tashkilotchilik, ogohlik, saxiylik;

D) hozirjavoblik, samimiylik, hushyorlik, sezgirlik, bilimdonlik.

2. Sinf rahbariga xos boʻlgan jihat

A) shaxsiy ibrat;

B) bilimdonlik;

S) xotirjamlik;

D) notiqlik.

3. Sinf rahbari boʻlgan oʻqituvchining bilim va mahoratini oshirishda _____ muhim ahamiyat kasb etadi

A) ajdodlarimiz maʼnaviy merosini bilish;

B) koʻp kitob oʻqish;

C) hayotiy tajriba orttirib borish;

D) -yilda bir marta malakasini oshirish.

4. Sinf rahbari

A) milliy qadriyatlarimiz timsoli boʻlishi kerak;

B) oʻqimishli inson boʻlishi lozim;

S) axborotga boy inson boʻlishi zarur;

D) samimiy va mehribon inson boʻlishi kerak.

5. “Islom madaniyatining oltin asri” deganda qaysi davr nazarda tutiladi?

A) Birinchi Renessans davri;

B) sakkizinchi asr;

S) qadimgi davr;

D) hozirgi davr.

6. Ikkinchi Renessans davrida yashagan buyuk allomalar

A) Qozizoda Rumiy, Gʻiyosiddin Jamshid, Mavlono Ali Qushchi;

B) Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy;

C) Ahmad Fargʻoniy, Al-Xorazmiy;

D) Abdurauf Fitrat, Behbudiy, Saidrizo Alizoda.

7. Birinchi Renessans davrining yorqin namoyandasi

- A) Abul Muin Nasafiy;
- B) Abdurahmon Jomiy;
- C) Sakkokiy;
- D) Boborahim Mashrab.

8. Sinf rahbarining pedagogik mahoratini belgilovchi omillar

- A) o‘z fanini chuqur bilishi, bilimni o‘quvchilarga yetkazib bera olishi, psixologik tayyorgarlik;
- B) o‘z ustida mustaqil ishlar, hayotiy tajriba orttirish, mafkuraviy tayyorgarlik;
- C) hayotiy tajribaga ega bo‘lish, ko‘p kitob o‘qish, xushmuomalali bo‘lish;
- D) o‘z kasbining qadriga yetish, malakasini oshirib borish, milliy qadriyatlarni yaxshi bilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2019 -yil 30 oktyabr. 03/19/576/3970-son.
3. “2022-2026 -yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - 2022 -yil 29 yanvar. 06/22/60/0082-son.
4. Xalq ta’limi tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalari (Yetika kodeksi) // Xalq ta’limi vazirligining 2019 -yil 31 oktabrdagi 349-son buyrug‘i.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil 23 avgustda o‘qituvchining ijtimoiy mavqeyini oshirish masalalariga doir o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. -“Xalq so‘zi” gazetasi, 2019 -yil 24 avgust. - №174 (7404)-son.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2022 -yil 21 dekabr.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.

2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. - Tanlangan asarlar. 1-jild. - T.: Fan, 1968. – 486 b.

3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. - T.: “Ma’naviyat”, 2006. – 280 b.

4. Ziyomuhammadov B., Ismoilov F. Barkamol avlodni voyaga yetkazish sirlari. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2011. – 440 b.

5. Ziyomuhammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: “Tib-kitob”, 2009. – 184 b.

6. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo‘llanma. – T.: “O‘qituvchi”, 2004. –104 b.

7. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. – T.: “Ma’naviyat”, 2019. – 920 b.

8. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 2-kitob. –T.: “Ma’naviyat”, 2019. – 856 b.

9. Pedagogika: yensiklopediya. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.

10. Pedagogika: yensiklopediya. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.

11. Saifnazarov I. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishni nega kuchaytirishimiz kerak? // “Xalq so‘zi”, 2021 -yil 29 oktyabr. -№231 (8011).

12. Salohiy D. Tasavvuf va badiiy ijod. –T.: “Navro‘z”, 2018.–186 b.

- 13.Xodjayev B., Sattorov Sh., Artikova M. Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyasi. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 168 b.
- 14.Qurbonova M. Yoshlarda kreativ tafakkurni shakllashtirishning pedagogik asoslari // “Xalq ta’limi” jurnali, 2020. – T.3.
- 15.Quronov M. Milliy tarbiya. - T.: “Ma’naviyat”, 2007. – 240 b.
- 16.Quronov M. Bizni birlashtirgan g‘oya. - T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2016. – 348 b.
- 17.Haydarov K. Sharq falsafasida ma’naviy tarbiya ustuvorligi. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – 240 b.
- 18.Haydarov K. Milliy qadriyatlarni ta’lim mazmuniga singdirish masalalari. Uslubiy qo‘llanma. – T.: “Qamar media” nashriyoti, 2022. – 80 b.
- 19.Haydarov K., Rasulova D. Birinchi Renessans davri Sharq ma’naviy merosini o‘rganish masalalari. Uslubiy qo‘llanma. – T.: “Qamar media” nashriyoti, 2022. – 89 b.
- 20.Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2002. – 372 b.
- 21.Hikmatlar shodasi / to‘plovchi va tarjimonlar A.Raimov, N.Raimova; muharrir A.Ziyadov. T.: “O‘zbekiston”, 2016. –B.744.

IV. Dissertasiyalar

1. Ibragimov A.A. Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning kognitiv mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fan. dok. (DSc) diss. – Samarqand: 2022.
2. Mamatqulov D.M. Malaka oshirish jarayonida umumta’lim maktab rahbarlarining mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan. bo‘yicha fal. dok. ... dis. –T.: 2018.
3. Haydarov K.D. Yangilanayotgan O‘zbekistonda ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi va uning uzluksiz ta’lim tizimidagi ahamiyati. Falsafa f. d-ri (DSc) diss. - Samarqand, 2022.

V. Elektron ta’lim resurslari

- 1.<https://www.lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

2. <http://www.yeduportal.uz> - O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi axborot-ta’lim portali.

3. <http://avlony.uz> - A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti sayti.

4. <http://www.istedod.uz> - “Iste’dod” jamg‘armasi sayti.

5. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o‘quvchi va o‘qituvchilar sayti.

6. www.ziynet.uz - Ziyonet ta’lim axborot tarmog‘i.

5-mavzu. O‘QUVCHILAR BILIM SIFATINI OSHIRISH VA SINFDA INTIZOMNI MUSTAHKAMLASH

Reja:

1. “Intizom” va “mas’uliyat” tushunchalari.
2. Sinfda tartib-intizomni saqlash, uni mustahkamlab borish usullari.
3. Intizom - o‘quvchilarning tafakkuri, bilish faoliyatini takomillashtirish omili.

Tayanch iboralar: intizom, sinf rahbari mas’uliyati, o‘qituvchi ibрати, fido-yilik, ta’limiy o‘yinlar, tarbiya texnologiyasi, tarbiya strategiyasi, didaktika, didaktik o‘yinlar, tahlil, izlanish.

Xalqimizda “So‘z boshi – assalom, ish boshi – intizom”, degan naql bor. Inson uchun salomlashish odobi qanchalik zarur bo‘lsa, intizom, intizomlilik ham shunchalik zarur fazilatdir. Chunki intizomli kishi faqat odamlar yoki mehnat jamoasidagina emas, balki jamiyatda, davlatda ham obro‘-e’tibor topadi, intizomlilik o‘ziga xos martaba hisoblanadi.

Xo‘sh, bunday ulug‘ va ezgu martabaga qanday erishish mumkin? Umuman, “intizom” degan so‘z nimani bildiradi? – Albatta, ushbu so‘zga bir qancha ta’riflar berilgan, intizom haqida katta minbarlardan turib ma’ruzalar o‘qiladi, davriy nashrlarda maqolalar chop etiladi, radio yoki televideniyeda davra suhbatlari tashkil etiladi va h.k.

Lekin ushbu so‘z eng avvalo pedagogik atamadir, desak bizningcha to‘g‘ri bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan Pedagogika ensiklopediyasida unga berilgan quyidagi ta’rifni keltirish o‘rinlidir. “**Intizom** (arab. – tartib, tartibli tuzilish, izchillik) – jamiyatning yoki ma’lum jamoa a’zolarining amal qilishi, bo‘ysinishi lozim bo‘lgan qat’iy tartib, qoida. Intizom – maqsadga erishish yo‘lida, biror faoliyat jarayonida jamiyatda yoki muayyan bir jamoada o‘rnatilgan tartib-qoidalarga muvofiq ravishda bajariladigan hatti-harakat”²⁹.

29 Педагогика: энциклопедия. II жилд. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияс”, Давлат илмий нашриёти, 2015. – 111-бет.

Intizom – tarbiyaning uzviy tarkibiy qismi. Unga bolalikdan o‘rgatiladi. Oilaviy tarbiyaning ilk kurtaklari ham aslida intizomga borib taqaladi. “Intizomli bola”, “intizomli o‘quvchi”, “intizomli talaba”, “intizomli xodim”, “intizomli inson” degan nisbatlar bekorga aytilmaydi.

Xullas, “intizomli bola” maktab ostonasiga kirib kelgandan uning keyingi taqdiri ana shu muqaddas ta’lim dargohi bilan bog‘lanadi, ya’ni uning kelajagi shu muhitda - maktabda shakllanadi. Aniqroq aytganda, endi uning tarbiyasi unga ta’lim beradigan ustozlar – o‘qituvchilarga, xususan, sinf rahbariga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lib qoladi. Bolani intizomga o‘rgatish uni shaxs sifatida shakllantirishning eng zarur va dastlabki sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’limning samaradorligi ko‘p jihatdan sinfda namunali intizomni joriy etish, uni mustahkamlashga bog‘liq. Bu faqat sinf rahbariga bog‘liq emas. Intizom uchun barcha – sinf o‘quvchilari, butun pedagogik jamoa mas’ul. Intizom bor sinfda o‘zlashtirish ham, davomat ham yaxshi bo‘ladi. O‘quvchilarning darsga munosabati tobora ijobiy tomongan o‘zgarib boradi. Sinf rahbari bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi pedagogik hamkorlik mustahkamlab boriladi. Bularning hammasi mashg‘ulotlarning sifati va mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi: endi sinfdagi o‘quvchilarning ilmga mo-yilligi intizom tufayli yanada ortadi.

Intizom *mas’uliyat* degan tushuncha bilan chambarchas bog‘liq. “Mas’uliyat” degan atamani ta’riflashda ham bir xillik mavjud emas. “Jahon falsafasi qomusi”da mas’uliyat “murakkab va ko‘p darajali hodisa bo‘lib, u shaxs xulq-atvori ustidan ijtimoiy nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish shakli sifatida” ta’riflanadi va u ayni vaqtda “har bir kishining kasbiy, shaxsiy va ishchanlik fazilatlari, uning faoliyat uslubi xususiyati, mehnatining rag‘batlantiruvchi va samaradorlik omilidir”³⁰, deb baholanadi.

Intizom eng avvalo o‘quvchilarda javobgarlik va mas’uliyat hissini tarbiyalashga bog‘liq. Mas’ullikni sezmaydigan o‘quvchining baxtli kelajagi haqida bashorat qilish qiyin. Chunki pala-partish hayotga o‘rgangan boladan yaxshi mutaxassis chiqmasligini hamma biladi. Shu o‘rinda o‘quvchilarda mas’uliyat hissini tarbiyalashda sinf rahbarining

30 Жаҳон фалсафаси қомуси. Биринчи китоб. – Т.: “Маънавият”, 2019. – 721-бет.

alohida oʻrni borligini taʼkidlash joiz. Oʻquvchilarning intizomli boʻlishlarida sinf rahbarining xizmati katta, albatta. Chunki u mashgʻulotlar va undan tashqari vaqtlarda har xil tarbiyaviy usullardan foydalanib, oʻquvchilarda masʼuliyat hissini tarbiyalab boradi, aniq reja, dastur, ichki tartib-qoidalarga tayanib, sinfda intizom oʻrnatadi, bolalarni masʼuliyatni anglashga, tozalik va tartibga oʻrgatadi.

Sinfda tartib-intizomni saqlash, uni mustahkamlab borishning eng qulay va yaxshi usuli – bu oʻquvchilar ishonchini qozonish. Ishonchni qanday qilib qozonish mumkin? – Oʻquvchilarni bilimga mo-yilligi, qiziqishini shakllantirish va rivojlantirish orqali. Aynan shu omillar intizomning muhim talablari hisoblanadi.

Agar mashgʻulotlar munozaraga boy, qizgʻin, ijodiy ruhda, koʻrgazmalilik asosida, barcha oʻquvchilarning faol ishtiroki orqali oʻtkazib borilsa, oʻquvchilarning darsga boʻlgan qiziqishi ortadi. Qiziqarli oʻtilgan har bir dars oʻquvchilar faolligini oshiradi, ularning intizomini mustahkamlaydi.

Shuning uchun ham sinf rahbari oʻquvchilarga ularning asosiy va eng muhim vazifasi oʻqishdan iborat ekanligini muntazam ravishda tushuntirib borishi kerak. Shundagina ularning oʻqishga nisbatan masʼuliyat hissi ortadi, umuman, masʼuliyat degan tuygʻuni tobora chuqurroq anglab boradi.

Shunday qilib, intizom oʻquvchilarning bilish faoliyatini takomillashtirib boradi. Bunda taʼlimiy oʻyinlarning oʻrni va ahamiyati ayniqsa kattadir.

Maʼlumki, didaktika – pedagogikaning muayyan tarmogʻi boʻlib, “taʼlim-tarbiya nazariyasi, yaʼni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shugʻullanadi”³¹, unda oʻyinlar muhim oʻrin tutadi, ayniqsa hozirgi sharoitda taʼlim amaliyotida amaliy-innovasion xarakterga ega oʻyinlardan mashgʻulotlar jarayonida keng foydalanilmoqda. Taʼlim-tarbiya amaliyotida qoʻllaniladigan oʻyinlar oʻz-oʻzidan didaktik xususiyat kasb yetadi, shuning uchun ular “didaktik oʻyinlar” deb yuritiladi va taʼlim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

³¹ Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари: қўлланма. – Т.: “Ўқитувчи”, 2004. – 92 бет.



Didaktik o‘yinlar kishini tarbiyalash, unga ta’lim berish jarayonlariga qaratilgan. Ular bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam beradi hamda shu orqali ularni ma’naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va yestetik jihatdan

tarbiyalashga xizmat qiladi.

O‘yin vaziyatlarining mavjud bo‘lishi didaktik o‘yinlarning boshqa o‘yinlardan farqli jihatidir. Albatta, bunday didaktik o‘yinlar bolalarning faolligini oshirish barobarida muayyan qoidalarga asoslanishi hamda baholashning qat’iy tizimi mavjudligi bilan ajralib turadi. U boshqa ishchan o‘yinlardan “yechimlar zanjirining mavjud emasligi bilan farqlanadi”³².

Muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, shu o‘yin asosida loyihalashtirish, rahbarning ishchan pochta-sini tashkil qilish kabilar didaktik o‘yinlar sirasiga kiradi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘yin nafaqat bolalar, balki kattalar hayotida g‘am muhim o‘rin egallay boshladi. Hozirgi davrda intellektual, kompyuter, iqtisodiy, harbiy, kasbiy, sport va maishiy hordiq chiqarishga ko‘maklashadigan o‘yin modellari ham kattalar orasida keng ommalashgan. O‘yinning mohiyati va tuzilishi ma’lum ko‘nikma, malaka, qobiliyat va sifatlarning har bir ishtirokchida butun o‘yin davomida shakllanishini ta’minlaydi.

Mashg‘ulotlarda didaktik o‘yinlar texnologiyalaridan foydalanishda sinf rahbari - o‘qituvchi o‘zining pedagogik vazifalarini maxsus ssenariyda aniq ifodalay olishi lozim. O‘yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, o‘zining hayotda o‘rnini belgilash, o‘zini o‘zi



32 Педагогик энциклопедия. 1-китоб. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2015. – 276 бет.

boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishdan iborat asosiy yehtiyojlarni qondirish imkoniyatini yaratadi.

Sinf rahbariga shunisi “qo‘l keladiki”, didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning qiziquvchanligini oshirishning qulay va eng samarali usullaridan biridir. Shu boisdan didaktik o‘yinlar g‘oyat murakkab va serqirra hodisa bo‘lib, sinf rahbarining natijadorlikka olib boruvchi metodidir. Shundan kelib chiqib, didaktik o‘yinlar bir qator pedagogik vazifalarni ham bajaradi. “Ta’limiy – vazifasiga ko‘ra mazkur didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish, nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish, ularning bilim doirasini kengaytirish, mustaqil bilim olish layoqatini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Rivojlantiruvchi – ushbu vazifa o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, faollikka undash, o‘z fikrlarini bayon qilish layoqatini kengaytirish, ularning bilishga nisbatan qiziqishlarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Tarbiyalovchi – bu o‘quvchilarni jamoaviylik ruhida tarbiyalash, sheriklariga nisbatan xayrixohlik va hurmat bilan munosabatda bo‘lish, bag‘rikenglik ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega. Yo‘naltiruvchi – mazkur vazifa o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llash, tashabbuskorlik ko‘rsatish, mustaqillikni shakllantirish, jamoaviy hamkorlikka safarbar qilishga undaydi”³³.

Didaktik o‘yinlar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri bo‘lib, unda:

- maqsad o‘quvchilar oldiga o‘yinli topshiriq shaklida qo‘-yiladi;
- o‘quv jarayoni o‘yinining avval belgilangan qoidalariga bo‘ysundiriladi;
- o‘quv materialidan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o‘quv faoliyatining mazmuni didaktik vazifani o‘yin vazifasiga aylantiruvchi musobaqa yeleменти tashkil qilishi bilan belgilanadi;
- muvaffaqiyatli bajarilgan didaktik topshiriq o‘yin natijasi hisoblanadi.

33 Педагогик энциклопедия. 1-китоб. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2015. – 277 бет.




Didaktik o'yinlar yangi o'quv materialini o'zlashtirish, mustahkamlash, o'quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, ko'nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi. Ular orqali o'quvchilar har xil vaziyatlardan o'quv materialini tushunish, uning negizida ma'lum ko'nikma, malaka va sifatni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umuman, yangi metodikalar asosida o'qitishda qo'-yiladigan muhim talablardan biri - qisqa vaqtda yuqori natijalarga erishish. Bunda o'quvchilarga muayyan bilimlarni yetkazib berish, ular faoliyatini nazorat qilish va egallagan bilim, ko'nikma, malakalarni baholashga alohida e'tibor beriladi. Tabiiyki, ushbu jarayon o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, uni sifat jihatdan yangi pog'onalarga ko'tarish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlardan keng va har tomonlama foydalanishni taqozo yetadi.

Agar har bir sinf rahbari o'z ustida muntazam ishlashga, ijodiy izlanishga o'rgansa, ilg'or tajriba va metodlarni qo'llagan holda faoliyatini olib borsagina kutilgan natijalarga erishishi mumkin. Xususan, mashg'ulotlarda o'quvchilarni fanga qiziqtirish maqsadida o'qitishning noan'anaviy usullarini keng qo'llash g'oyat muhimdir. Shu nuqtai nazardan, ta'limiy o'yinli metodlarni keng qo'llash mashg'ulotlarni qiziqarli o'tishini ta'minlash barobarida o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga yordam beradi, ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi.

Bunday o'yinlar o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhitni, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchiliklar, to'siqlarni qanday engishni o'rgatadi, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.



“Pedagogik o‘yinning asosiy xususiyati – o‘quv-bilish faoliyatiga yo‘naltirilgan o‘qitish maqsadi va unga mos keluvchi pedagogik natijaning aniq qo‘-yilishidir. Pedagogik o‘yinning vazifalari:

didaktik: bilim, ko‘nikma, malakalarni amaliyotda qo‘llash; yangi ko‘nikma, malakalarni shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish;

tarbiyalovchi: mustaqillik, iroda, yetik va yestetik qarashlar, hamkorlik, jamoada tarbiyalash;

rivojlantiruvchi: diqqat, xotira, nutq, fikrlash, ijodiy qobiliyatlar, taqqoslash, solishtirish, o‘quv motivasiyasini rivojlantirish;

ijtimoiylashtirish: qadriyat va an‘analarni o‘zlashtirish, mavjud shart-sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashtirish”³⁴.

Umuman, pedagogik o‘yinlarning turlari ko‘p. Ayniqsa nazariy, amaliy, jismoniy, rolly, ishchanlik va boshqa yo‘nalishdagi turlari o‘quv jarayonida eng ko‘p qo‘llaniladi. Bunday o‘yinlar o‘quvchilarda kuzatish, hisoblash, o‘lchash, tahlil qilish, yasash, sinash, qiyoslash, xulosa chiqarish, mustaqil qaror chiqarish, jamoa tarkibida ishlash, nutqni charxlash, til o‘rgatish, yangidan yangi bilimlar olish kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi, faoliyatiga mazmun va samara bag‘ishlaydi.

Bulardan tashqari, o‘yinlarning boshqa turlari (funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport, harbiy va b. o‘yinlar) ham bor. Odatda, sinf rahbari, ya’ni o‘qituvchiga ko‘proq yuqoridagi kabi o‘yinlarni qo‘llashni tavsiya etamiz.

O‘yin turlari quyidagi mezonlarga mos ravishda tanlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

ishtirokchilarning tarkibiga qarab tanlash (o‘g‘il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun);

34 Ходжаев Б., Сатторов Ш., Артикова М. Тарбия фанини ўқитиш технологияси. – Т.: Республика таълим маркази, 2021. – 23 бет.

ularning soniga qarab tanlash (yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzda);

o'yinning mazmuniga qarab tanlash (fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlarga asoslangan, musobaqa va b.);

vaqt me'yoriga qarab tanlash (dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga yerishguncha, g'oliblar aniqlanguncha davom yetadigan o'yinlar).

O'yinning qaysi turi tanlanmasin, ulardan maqsadi - o'quvchilarni aynan shu mavzuga qiziqishlarini oshirishdan iborat bo'lishi lozim. Didaktik o'yinlarda o'quvchilar erkin, mustaqil bo'ladilar, darsga faolligi oshadi, ularga qo'yilgan muammoga ijodiy yondashadilar, o'z imkoniyatlarini to'la namoyon yetadilar, boshqalar fikrini hurmat qilishga, o'z fikrini asoslay olishga o'rganadilar, ularning barchasi mashg'ulotning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.



Pedagogik o'yinlar o'quvchilarning muayyan mavzuni o'zlashtirishlarida juda qo'l keladi. Albatta, mavzuni o'quvchilarga ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tushuntirgandan ko'ra uni ko'proq ta'limiy o'yinlar orqali amaliy jihatdan o'rgasak, o'quvchi mavzuni tez qabul qiladi va hayotida unutilmas xotira kabi saqlanib qoladi.

Pedagogik o'yinlarning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1. *Didaktik o'yinlar* yuqorida ta'kidlanganidek, o'rganilayotgan narsa, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o'quv faoliyati turi hisoblanadi. Bunday o'yinlar o'quvchilarning ijtimoiy-foydali mehnatga mo'yillik ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning ahamiyati natijalar bilan emas, balki jarayonning mazmuni va kechishi bilan belgilanadi; bu kabi o'yinlar ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok yetishga tayyorlaydi, ulardagi turli psixologik zo'riqishlarni kamaytiradi.

2. *Syujetli o‘yinlar* - voqyea-hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtirok yetayotgan shaxslar faoliyatining o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan o‘yinlar sirasiga kiradi. Bunday o‘yinlar, odatda, pedagogik muammolarning yechimini izlash, ta’lim-tarbiya jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni bartaraf yetish, shaxsni qayta tarbiyalash maqsadlariga qaratiladi.

3. *Rolli o‘yinlar* - biror shaxsning burch va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatini, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga qaratilgan o‘yinlar. Rolli o‘yinlar ishtirokchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda muayyan hayotiy voqyea-hodisalar jarayonida bevosita ishtirok yetish uchun dastlabki ko‘nikma-malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ishtirokchilar o‘quvchi, ota-ona, pedagog xodim, rahbar, mahalla oqsoqoli kabi turli rollarni bajarish orqali jamoatchilikka pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratadi, hamkorlik faoliyatini samarali tashkil yetishga ko‘maklashadi.

4. *Ishbilarmonlik o‘yinlari* - muayyan faoliyat, harakat yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni samarali, to‘g‘ri, oqilona tashkil qilishga doir ko‘nikma, malaka hamda sifatlarni o‘zlashtirish maqsadida tashkil yetiladigan o‘yinlar. Bu turdagi o‘yinlar ta’lim oluvchilarda aniq faoliyat yo‘nalishida zarur BKM va sifatlarni shakllantirish yoki rivojlantirish maqsadida tashkil yetiladi. Ishbilarmonlik o‘yinlari odatda ishlab chiqarish jarayoni, kasbiy faoliyatni modellashtirishni bildiradi. Ishbilarmonlik o‘yinlari o‘quvchilarning kasbga muhabbatini oshiradi, shu bilan birga ularning insoniy fazilatlarini ham tarbiyalaydi, ma’naviy kamol topishiga yordam beradi.

5. *Imitation o‘yinlar* – korxona va tashkilotlar, muassasalar, mehnat jamoalari xodimlari, davlat xizmatchilari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitasiyalash (ya’ni, taqlid qilish, nusxa olish) orqali o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga yo‘naltirishga qaratilgan o‘yinlar. Imitasion o‘yinlar jarayonida ta’lim oluvchilar muayyan operatsiyalarni, misol uchun, masalalar yechish, ma’lum bir usulni o‘zlashtirish kabi imkoniyatlarga ega bo‘lishini bildiradi.

6. *Dramatik o‘yinlar* – psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan o‘yinlar. Ular tashkil yetilishi, metodik mazmuniga

ko'ra rolli yoki ishbilarmonlik o'yinlariga yaqin. Odatda, ularni psixologik va ijtimoiy dramalar deb ham ataydilar. Dramatik o'yinlar mehnat jamoasidagi muhitni yaxshilash, xodim o'zaro munosabatining barqarorligiga erishish, muloqotga mo'yillik, jamoa a'zolarini jipslashtirish, odamlarning ruhiy holatini to'g'ri baholash, qiyinchilikka duch kelgan kishilarga yordam ko'rsatish hamda mehnat unumdorligini oshirish maqsadida zarur shart-sharoit yaratishga qaratiladi.

Ta'limiy o'yinlardan foydalanishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi:

o'yin ssenariysini tayyorlash;

yo'riqnomalar tuzish;

sinfxonani o'yinning mazmuniga mos jihozlash.

Shuningdek, ta'limiy o'yinlarning tuzilishi (strukturasi) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

o'yinning maqsadi;

o'yinning vazifasi;

o'rganiladigan muammoning tafsiloti;

o'yin vaziyatining tafsiloti;

ishtirokchilarni tasniflash.

Ta'limiy o'yin texnologiyasini qo'llash yesa quyidagilarga asoslanadi:

guruhni shakllantirish;

mashg'ulotning asosiy maqsadini ifodalash;

muammoli vaziyatni vujudga keltirish;

rollarni taqsimlash;

o'yin reglamentiga rioya qilish;

materiallar, yo'riqnoma-qoidalar va ko'rsatmalar to'plamini tarqatish;

maslahat berish.

Nihoyat, quyidagilar pedagogik maqsadlarda o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi:

o'yin ssenariysining puxta tayyorlanganligi;

o'yin maqsadi va vazifalarining to'g'ri, aniq belgilanishi;

o'yin qoidalarining aniq, lo'nda (8-10 tagacha) ifodalanishi;

o'yin yo'riqnomasining mavjudligi;

ishtirokchilarning o'yin jarayoniga qiziqishlari;

rollarning samarali, to'g'ri taqsimlanishi;
jamoda ko'tarinki kayfiyatning yuzaga kelishi;
ishtirokchilarning bir-birlarini tushuna olishlari va qo'llab-quvvatlashlari;

har ishtirokchining o'yin natijasi uchun mas'uliyatni his yetishi;
ishtirokchilar imkoniyatlarining yagona maqsadga yo'naltirilishi.

Muhokama jarayoni quyidagi tartibda tashkil yetiladi:

taqrizchilarning chiqishlari;

fikrlar almashinuvi;

ishtirokchilarning o'z qarorlari va xulosalarini himoya qilishlari;

o'yinga yakun yasash.

Har bir ta'limiy o'yin o'zining ijodiy xususiyatlari bilan ajralib turishi kerak, u har bir ishtirokchiga ruhiy ko'tarinkilik bag'ishlashi lozim. Shu boisdan ta'limiy o'yinlar o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi. O'zaro raqobat yesa o'yinlarning mazmuni va ta'sirchanligini oshiradi, ishtirokchilarning har birida g'alabaga ishonch, ma'naviy qoniqish hosil qilishi shubhasiz.

Pedagogik o'yinlarning tarbiyaviy maqsadi ham aslida o'quvchilarda mustahkam irodani tarbiyalash, erkin tafakkur, qarashlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, yestetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlik, jamoaviylik,



kommunikativlik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ta'limiy o'yinlarning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, ular o'quvchilarga aqlan hamda jismonan tetiklik va faollik bag'ishlash bilan birga ularda ruhiy barqarorlikni ham tarbiyalayli: rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, faraz, qobiliyat, ijod, yempatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatini motivasiyalash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bunday o'yinlar milliy va ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga mo'yillik, muhitning ta'siriga maslashish, yehtirolarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish, muloqotga o'rgatish,

psixoterapiyani ham nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida “Tarbiya - aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon”³⁵, degan ta’rif berilgan. Ana shu jarayonda “Tarbiya” fanining pedagogik imkoniyatlari beqiyos ekanligi o‘z-o‘zidan ravshan. Ammo gap ushbu fanni o‘qitish natijadorligiga bog‘liq, albatta.



Sinf rahbari har jihatdan mahoratli bo‘lishi zarurligi haqida gap-so‘z bo‘lishi mumkin emas. Uning mahorat qirralari yesa mashg‘ulotlarda pedagogik o‘yinlardan oqilona foydalanish ko‘nikmalariga ham bog‘liq. Nega deganda, pedagogik o‘yinlar o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kamolotida, ularning mukammal inson bo‘lib kamol topishida g‘oyat katta tarbiyaviy ta’sir qudratiga ega. O‘yin timsolida bolalar jamoa bo‘lib yashashga, uyushqoqlikka, birgalikda ijod qilishga, hamkorlikda ishlashga va mustaqil ishlashga o‘rganadilar, ularning ma’naviy-axloqiy sifatleri shakllanadi, jamiyatdaga burch va vazifalarini, mas’uliyatini ham teran anglay boradilar, intizomga o‘rganadilar. Ularda o‘zaro hurmat, do‘stlik, uyushqoqlik tuyg‘ulari shakllanadi. O‘quvchilarning atrof-muhitga, tabiatga bo‘lgan yestetik munosabati rivojlanadi, yekologik madaniyati shakllanadi, turli-tuman kasb-hunarlarga bo‘lgan qiziqishlari, umuman, hayotga mehr-muhabbati ortadi.

Xullas, pedagogik o‘yinlar asosan ta’lim jarayonini sifat jihatdan kuchaytirishga va boyitishga, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarliklariga qarab mashg‘ulotlarni samarali tashkil qilishga, ularga bilim va ma’lumot berishni engillashtirishga, ta’lim-tarbiyada ko‘rgazmalikni ta’minlashga, o‘quvchilarning umumiy dunyoqarashi

35 “Таълим тўғрисида”. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. - Т.: Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. - 2020 йил 24 сентябрь. 03/20/637/1313-сон.

rivojlanishiga ko‘mak beradi.

Umuman, pedagogik o‘yinlarning o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, uning ma’naviy kamolotidagi ahamiyati

quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

pedagogik o‘yinlar orqali o‘quvchining bilim olishga, mehnatga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi;

o‘quvchida muloqot madaniyati, kommunikativlik fazilatlari shakllanib boradi;

o‘quvchida aqliy salohiyat rivojlanib boradi, bilimi va o‘zligini namoyon yetish xususiyatlari kuchayadi;

o‘quvchida ye’tiqod va hayotiy pozisiya shakllanadi – unda hayotda duch kelishi mumkin bo‘lgan mashaqqat va qiyinchiliklardan qo‘rqmaslik, mardonavorlik va mustahkam iroda ko‘nikmalari tarkib topib boradi;

o‘quvchida o‘z-o‘ziga tanqidiy baho berish, kamchilik va nuqsonlarni bartaraf qilishga intilish, ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash ko‘nikmalari shakllanadi;

o‘quvchi o‘zida insoniylik, mehr-oqibat, o‘zgalarni hurmat qilish kabi fazilatlarni shakllantirishiga zamin tayyorlaydi;

o‘quvchida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, bag‘rikenglik xususiyatlari qaror topadi;

yosh avlodda yangi O‘zbekistonning baxtli fuqarosiga xos vatanparvarlik fazilarlari rivojlanadi va h.k.

Albatta, pedagogik o‘yinlardan oqilona foydalanish sinf rahbari bo‘lmish o‘qituvchining mahoratini belgilaydigan muhim omildir. O‘quvchilar pedagogik o‘yinlarga qanchalik ko‘p jalb etilsa, tarbiyaning samaradorligi va pedagogik ta’sirchanligi shuncha ortadi.



Nazorat savollari

1. “Intizom” tushunchasi nimani bildiradi?
2. “Mas’uliyat” deganda nimani tushunasiz?

3. *Sinfda tartib-intizomni saqlash, uni mustahkamlab borish usullari haqida soʻzlab bering.*

4. *Pedagogik oʻyinlar nima?*

5. *Pedagogik oʻyinlarning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?*

6. *Pedagogik oʻyinlarning intizomni mustahkamlashdagi ahamiyati qanday?*

7. *Vaziyatlarni tahlil qilish nima?*

8. *Taʼlimiy oʻyinlardan foydalanishda qanday omillarga eʼtibor qaratiladi?*

9. *Siz tarbiya jarayonida qaysi pedagogik oʻyinlardan foydalanasiz?*

Testlar

1. “Intizom” degan tushunchaning maʼnosi -

A) barchasi toʻgʻri.

B) jamiyatning yoki maʼlum jamoa aʼzolarining amal qilishi, boʻysinishi lozim boʻlgan qatʼiy tartib, qoida.;

C) maqsadga erishish yoʻlida, biror faoliyat jarayonida jamiyatda yoki muayyan bir jamoada oʻrnatilgan tartib-qoidalarga muvofiq ravishda bajariladigan hatti-harakat;

D) arabchadan tarjima qilinganda “tartib”, “tartibli tuzilish”, “izchillik” degan maʼnolarni anglatadi;

2. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadi nima?

A) maktab bitiruvchisining ijtimoiy hayotga moslashishiga yordam berishdan iborat;

B) oʻquvchilarni kreativ qobiliyatini oʻstirish;

C) maktab bitiruvchisining dunyo qarashini kengaytirish;

D) oʻquvchilarni ijodiy fikrlashga oʻrgatish.

3. “Kompetensiya” tushunchasi nimani anglatadi?

A) mavjud bilim, koʻnikma va malakalarni kundalik faoliyatda qoʻllay olish qobiliyati;

B) mavjud bilim, dunyoqarash va pozisiyalarni kundalik faoliyatda qoʻllay olish qobiliyati;

C) mavjud bilim, tushuncha va mahoratni kundalik faoliyatda qoʻllay olish qobiliyati;

D) mavjud bilim, koʻnikma va malakalarni alohida yoʻnalishda qoʻllay olish qobiliyati hisoblanadi.

4. “Mas’uliyat” deb nimaga aytiladi?

A) shaxs xulq-atvori ustidan ijtimoiy nazorat va oʻz-oʻzini nazorat qilish shakli;

B) taʼlim maqsadlariga erishish uchun foydalaniladigan usul va metodlar majmui;

C) taʼlim jarayonida foydalaniladigan metodlarning barchasi;

D) taʼlimda qoʻyilgan vazifalarni alohida-alohida hal qilishga yoʻnaltirilgan, oʻzaro bogʻlanmagan metodlar.

5. Taʼlimiy oʻyinlarda eng muhimi...

A) innovasion texnologiya;

B) axborot texnologiyalari;

C) oʻzaro munosabat;

D) anʼanaviy taʼlim usullari.

6. Zamonaviy metodikalarni qoʻllashda eng muhim omil...

A) oʻquvchining yosh va psixologik xususiyatlarini toʻgʻri hisobga olish;

B) ularning harakatchanligiga qarab yondashish;

S) barcha oʻquvchilarga bir xil yondashish;

D) oʻqituvchi qanday xoxlasa, shunday yondashish.

7. Didaktik oʻyinlarning oʻziga xosligi...

A) oʻyin vaziyatlarining mavjud boʻlishida;

B) oʻquvchilarning hordiq chiqarishlariga koʻmak berishda;

S) oʻquvchilarga huzur bagʻishlashda;

D) oʻqituvchida qoniqish hosil qilishda.

8. Shaxsning burch va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatini ochib berishga qaratilgan ta'limiy o'yin...

- A) rolli o'yin;
- B) ishbilarmonlik o'yini;
- S) imitasion o'yin;
- D) syujetli o'yin.

9. Ta'limiy o'yinlardan kutiladigan asosiy natija

- A) o'quvchilarda erkin mushohada va fikrlash ko'nikmalarini tarbiyalash;
- B) o'quvchi yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash;
- S) o'z Vataniga muhabbat tuyg'ularini rivojlantirish;
- D) o'quvchi yoshlarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilish.

10. Yangi metodikalar asosida o'qitishda qo'yiladigan muhim talablardan biri -

- A) qisqa vaqtda yuqori natijalarga erishish;
- B) o'quvchilarni his-tuyg'ularini tarbiyalash;
- S) o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash;
- D) o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

2. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 7 noyabr. 06/20/6108/1483-son.

3. "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. - T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 7 noyabr. 07/20/4884/1484-son.

4. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 3 yanvar. 09/20/391/0777-son.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil 23 avgustda o‘qituvchining ijtimoiy mavqeyini oshirish masalalariga doir o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. -“Xalq so‘zi” gazetasi, 2019 -yil 24 avgust. - №174 (7404)-son.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi ma’ruzasi. 2023 -yil 22-dekabr // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023 -yil 23-dekabr.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Ziyomuhammadov B., Ismoilov F. Barkamol avlodni voyaga yetkazish sirlari. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2011. – 440 b.

2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo‘llanma. – T.: “O‘qituvchi”, 2004. –104 b.

3. Pedagogika: yensiklopediya. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.

4. Pedagogika: yensiklopediya. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.

5. Smeshnyye rasskazi: per. s srednevek. assir. Bar-Yebraya G.Yu. (Abul Faradj). – M.: Politizdat, 1992. – 207 s.

6. Xodjayev B., Sattorov Sh., Artikova M. Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyasi. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 168 b.

7. Qurbonova M. Yoshlarda kreativ tafakkurni shakllashtirishning pedagogik asoslari // “Xalq ta’limi” jurnali, 2020. – T.3.

8. Quronov M. Milliy tarbiya. - T.:“Ma’naviyat”, 2007. – 240 b.

9. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...T.: “Ma’naviyat”, 2014.

10. Qodirov A. va b. Baxtli bola ma'naviyati. – T.: “Muharrir”, 2018.

IV. Dissertasiyalar

1. Ibragimov A.A. Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning kognitiv mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fan. dok. (DSc) diss. – Samarqand: 2022.

2. Muxsiyeva A.Sh. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari. Pedagogika fan. nom. diss. – T.: 2005.

3. Haydarov K.D. Yangilanayotgan O'zbekistonda ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi va uning uzluksiz ta'lim tizimidagi ahamiyati. Falsafa f. d-ri (DSc) diss. - Samarqand, 2022.

V. Elektron ta'lim resurslari

1. <https://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

2. <http://www.yeduportal.uz>- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi axborot-ta'lim portali.

3. <http://www.multimedia.uz> - Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti.

4. <https://www.coursera.org> - Onlayn ta'lim platformasi.

6-mavzu: SINIF RAHBARINING TARBIYAVIY FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Reja:

1. Sinf rahbari o'z faoliyatining mazmun-mohiyati, maqsad-vazifalarini yaxshi bilishi zarurligi.
2. Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari.

Tayanch iboralar: tarbiyaviy faoliyat, mustaqil bilish olish, o'z ustida ishlash, "Ustoz-shogird" tizimi, ijodiy faoliyat, ijodiy muhit, mutolaa madaniyati.

Sinf rahbarining faoliyati asosan uning o'quvchilarga ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sir kuchida namoyon bo'ladi. Sinf rahbari mahoratli muallim bo'lishi mumkin, ammo uning asosiy faoliyati tarbiyaviy jarayon bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham sinfda ta'lim-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirishda sinf rahbarining o'ziga xos o'rni bor. Chunki u o'ta muhim, mas'uliyatli va nozik vazifa – tarbiya masalasiga javobgardir.

Sinf rahbari bo'lgan muallimning zarur hujjatlari sifatida avvalo sinf daftari, maktabning ichki ro'yxatida turadigan tarbiyasi og'ir, tartibbuzar, surunkali dars qoldiradigan o'quvchilar bilan ishlash yig'ma jildi, ish rejasida belgilangan faoliyat yo'nalishlari bo'yicha har chorak va o'quv - yili yakuni bo'yicha hisobotlarini keltirish mumkin.

Ochig'ini aytganda, hozirgi paytda sinf rahbari bo'lishga orzumand bo'lmagan o'qituvchilar ham bor. Sinf rahbariga ayrim imtiyozlar berilganligi, ish haqi miqdorining oshirilganiga qaramay ushbu vazifadan qochadigan o'qituvchilar yo'q emas. Ularda bunday xoxishning yo'qligiga qator sabablar ham mavjud. Masalan, tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash oson emas, buning uchun tajriba va pedagogik mahorat talab qilinadi. Tarbiya ishi bilan shug'ullanish har kimning qo'lidan kelavermaydi.

Sinf rahbari sinf jamoasini tashkil etishi kerak. **Sinf jamosi** deganda barqaror intizom qaror topgan, o'zaro ahil, o'qituvchilar bilan o'zaro

pedagogik hamkorlik oʻrnatilgan, uyushqoq oʻquvchilar jamoasini tushunish mumkin. Sinf rahbari ana shunday jipslikni taʼminlaydi, ota-onalar va jamoatchilik bilan oʻzaro va barqaror hamkorlikni yoʻlga qoʻya oladi. **“Jipslik”** degan soʻzning tagida katta maʼno bor: oʻquvchilar, ularning ota-onalari bilan yaxshi munosabat, hamkorlikni oʻrnatish, oʻquvchilarning oʻzaro doʻstona munosabatlarini qaror toptirish, ularning bir-biridan oʻrnak olib, bir-biriga intilib harakat qilishlari – bularning hammasi sinf rahbarining ishchanlik va fido-yilik fazilatlariga bogʻliq. Yaxshi oʻqiydigan bolalarni oʻz vaqtida ibrat qilib koʻrsatish, oʻzlashtirishi past oʻquvchilarga motivasiya bera olish, ularni yaxshilardan oʻrnak olishga oʻrgatish uchun sinf rahbari tom maʼnoda mahoratli pedagog boʻlishi talab etiladi.

Hozirgi vaqtda milliy gvardiya xodimlarining maktab bilan hamkorligi davlatimiz siyosatining taʼlim-tarbiya sohasidagi ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylangani bejiz emas. Oʻquvchi yoshlar oʻrtasida tarbiyaviy ishlar samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan ushbu tadbir oʻz samarasini bera boshladi – maktabda davomat yaxshilandi, ota-onalarning masʼuliyati, maktabga munosabati ijobiy tomonga oʻzgardi, maktab bilan keng jamoatchilik oʻrtasidagi munosabatlar mustahkamlandi. Bir soʻz bilan aytganda, maktabda jamoatchilik nazorati yangi bosqichga olib chiqildi, maktab bilan mahalla va boshqa jamoat tashkilotlarining munosabatlari kuchaytirildi.

Sinf rahbari maktab hayotida sodir boʻlayotgan bunday oʻzgarishlarning mohiyatini yaxshi anglay olishi, ushbu jarayonda faol ishtirokchi boʻlishi – bugun davr taqozasidir. Qolaversa, sinf rahbari bunday ijtimoiy oʻzgarishlar uning faoliyatida yangi qirralarning ochilishiga sabab ekanligini tushunib yetishi, yuqoridagi tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirishga imkon yaratilganini toʻgʻri anglashi va oʻz faoliyatida mazmunan oʻzgarishlar qilishi obyektiv zarurat ekanligini aniq-tiniq bilib olishi lozim.

Oʻz faoliyatining mazmun-mohiyati, maqsad-vazifalarini yaxshi biladigan sinf rahbarining ishida doimo ijobiy oʻzgarishlar, yutuqlar bisyor boʻladi. Oʻz sinfidagi ahvolni, har bir oʻquvchining ichki olami, tabiati, nimalarga qodir ekanligini “kaftday” biladigan sinf rahbariga havas qilsang

arziydi. Bunday sinf rahbari faqat o‘quvchilar, ularning ota-onalari o‘rtasida emas, keng jamoatchilik, odamlar o‘rtasida ham obro‘-e‘tibori, hurmati yuqori bo‘ladi.

Hammaga ma’lum haqiqat shuki, qaysi jamiyatda ziyolining, muallimning obro‘-e‘tibori joyiga qo‘-yilmasa, unga nisbatan hurmat muhiti yaratilmagan bo‘lsa, u jamiyatning kelajagi bo‘lmaydi. Bunga moziy guvoh. Agar ilmu ma’rifat ulug‘lansa, jamiyatda ustuvor mavqega ega bo‘lsa, unda rivojlanish, taraqqiyot bo‘ladi, farovon hayot ta’minlanadi. Shu boisdan, ziyolilik, muallimlik – bir tomondan obro‘ bo‘lsa, boshqa tomondan mas’uliyat, javobgarlik hamdir. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev “Bu kasbning obro‘-sini faqat o‘qituvchining o‘zi fidokorona mehnati, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, boshqalarga o‘rnak bo‘lishi bilan oshira oladi”³⁶, deb alohida ta’kidlangani buning isbotidir.

O‘z ustida mustaqil ishlash sinf rahbari pedagogik mahoratini oshirishning muhim omili bo‘lib, pirovard natijasi uning improvizasion xususiyatlarini rivojlantirishgina emas, balki eng avval bilimi, pedagogik-psixologik, metodik va mafkuraviy tayyorgarlik darajasini ko‘tarish, unda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar qaror topishidan iborat bo‘lishi lozim.

Kuzatuv va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ***bugun maktabning o‘zi sinf rahbarining malaka va mahorati, tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish o‘chog‘i bo‘lishi lozim.*** Har bir maktabda darslarga kirish va kuzatish, tahlil qilish, yangi innovasion usullarni keng joriy qilish, o‘zaro tajriba almashish, jamoatchilik bilan uzviy hamkorlik, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish ishlari yuqori saviyada tashkil yetilgan bo‘lishi kerak, bir so‘z bilan aytganda, bugun maktabda hayot “qaynashi” zarur.

Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari ko‘p. Shulardan eng muhimlari to‘g‘risida fikr yuritamiz.

Avvalo, sinf rahbari bo‘lgan o‘qituvchining *ilmiy tadqiqot ishlariga o‘rganishi* uning o‘z ustida ishlashida muhim omildir. Albatta, agar u davriy nashrlarga maqolalar yozib tursa, loyihalar, grantlarda ishtirok yesa, ilmiy anjumanlarda ma’ruza qilsa uning mahorati oshib borishi shubhasiz. Ilgari

³⁶“Халқ сўзи”, 2019 йил 24 август.

o'qituvchi majburiy mehnatga jalb yetilib, o'z ustida ishlashga vaqt topolmas edi. Yendilikda bunga barham berildi, mustaqil ishlashga vaqt ham, imkoniyat ham bor. Buni to'g'ri anglab yetgan o'qituvchilar o'z ustida ishlashga o'rganmoqdalar. Ushbu holatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim.

Sinf rahbari o'z bilim va tajribasini tinmay oshirib borishi, butun hayoti davomida chinakam pedagog bo'lib qolishi kerak. Ozgina bilim olish uchun ham ko'p o'qish kerak. "Men kam bilaman, lekin bilganlarimni juda yaxshi bilaman"³⁷, degan ekan bir donishmand. O'qituvchi bo'lish yuksak sharafiga muyassar bo'lish demakdir. Hamma ham o'qituvchi bo'la olmaydi. Muallim - ikki dunyosi obod inson. O'qituvchilikdan ham xayrli ish, xayrli kasb dunyoda yo'q. Sinf rahbari bo'lish esa nafaqat maktab jamoasining, balki, eng avvalo ota-onalarning ishonchi demakdir.

Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirishda *Ustoz-shogird* tizimini maktab ta'limida mustahkam qaror toptirish juda muhimdir. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da "Ustoz-shogird" an'analarini tiklash harakati maktab ta'limi tizimida ma'naviy tarbiyani amalga oshirish, pedagogik mahoratni oshirishning g'oyat muhim vazifasi sifatida belgilanganligi ayni muddao bo'ldi³⁸.

"Ustoz-shogird" munosabatlarini to'g'ri tashkil yetish uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'inini ravnaq toptirishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, umumta'lim maktabi ta'limini tashkil yetish, Davlatimiz rahbarining iborasi bilan aytganda "hayot davomida o'qish" tamo-yilini qaror toptirishda "Ustoz-shogird" usuli muhim va kutilgan pirovard natijani beradi. Azaldan xalqimizning tabiatiga xos bo'lgan ushbu qadriyatni sohaga chuqur singdirish, uni tizimga aylantirish ayniqsa bugun, ta'limning mazmuni va samaradorligini oshirishda g'oyat zarur bo'lgan omildir.

"Ustoz-shogird" tizimida sinf rahbarining pedagogik, mafkuraviy va psixologik tayyorgarligi masalalari g'oyat muhimdir. Boshqacha aytganda, shogirdning siyosiy ongi, mafkuraviy tayyorgarligi, tafakkur madaniyati

³⁷Смешные рассказы: пер. С средневеков. ассир. Бар-Эбрая Г.Ю. (Абуль Фарадж). – 2-е изд. -М.: Политиздат, 1992. -С.70.

³⁸ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги "Узлуksиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори/"Халқ сўзи", 2020 йил 2 январь.

qancha kuchli bo'lsa, uning kelgusida "ustozdan ham o'zib ketishi" uchun mustahkam zamin hozirlanadi. Bunday zaminni yaratish uchun yesa ustozning o'zi kuchli bilim va saviyaga ega bo'lishi lozim. Buyuk Aristotel "oldinga ketganlarni quvib yetadigan va ortda qolganlarni kutmaydigan shogird har narsaga ulguradi"³⁹, deb bejiz aytmagan.



"Ustoz-shogird" tizimining o'ziga xos jihati shundaki, har bir shogird o'zining mahoratini oshirish jarayonida unga biriktirilgan ustoz rahbarligida mustaqil o'qib bilim, ko'nikma va malakasini yanada chuqurlashtirish bo'yicha shaxsiy rejasini shakllantirib oladi. Bu rejada shogird – bo'lajak pedagog ilg'or tajribalarni o'rganish, amaliyotga tatbiq yetish; fan sohasidagi yangiliklarni o'rganib, tahlil qilib borish; ta'limning bugungi kundagi eng ilg'or, zamonaviy, innovasion usullari va texnologiyalarini o'zlashtirib olish hamda o'quv jarayonida mahorat bilan qo'llash; ijtimoiy-ma'naviy sohalaridagi o'zgarish va yangilanishlarni yaxshi bilish va o'z faoliyatiga tatbiq qilish; ta'lim jarayonlariga doir me'yoriy va huquqiy hujjatlarni muntazam o'rganib borish; sinfdan, maktabdan tashqari tadbirlar, tarbiyaviy ishlar, ota-onalar va jamoatchilik bilan ishlash bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish va amaliyotga joriy qilish singari yo'nalishlarda o'z vazifalarini aniq belgilab olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Umumiy qilib aytganda, bugungi shogird shiddat bilan o'zgarayotgan zamon talablarini tez ilg'ab oladigan, insayt xususiyatga ega bo'lgan ziyrak inson bo'lishi lozim.

Ustoz yesa, o'z navbatida, uzluksiz ta'limdagi bugungi islohotlarga monand qator ijtimoiy va insoniy sifatlarga ega bo'lishi lozim. birinchidan, u chuqur bilimga ega bo'lgan ma'rifatli, dars berish metodikasi va mahoratini mukammal egallagan tajribali uslubchi; ikkinchidan, pedagogik mahorati, psixologik va mafkuraviy tayyorgarligi yuqori darajadagi mutaxassis bo'lishi lozim. Bundan tashqari, ustoz o'zining odobi, ma'naviy yetukligi, xushfe'lligi, yuksak vatanparvarligi, O'zbekiston Prezidenti va

39 Ҳикматлар шодаси / тўпловчи ва таржимонлар А.Раимов, Н.Раимова; муҳаррир А.Зиядов. Т.: "Ўзбекистон", 2016. -540 бет.

hukumatining ichki va tashqi siyosatini yaxshi bilishi, madaniyati, tashabbuskor va tashkilotchiligi kabi fazilatlari bilan jamiyatda, mehnat jamoasida obro‘-e’tibor qozongan shaxs bo‘lishi zarur. Ushbu fazilatlarni ustoz o‘z shogirdi bilan baham ko‘rishi “Ustoz-shogird” an‘anasining haqiqiy mazmun-mohiyatini tashkil yetadi.



Qadimgi hind donishmandi, buddaviylik dinining asoschisi Budda Shakya Muni “kamchilik va nuqsonlaringni ko‘rsatib, seni koyigan ustozning etagidan mahkam tut. Zero, u zot xazinaga eltayotgan yo‘lboshchiga o‘xshaydi va sen sira kam bo‘lmaysan”⁴⁰, deb bejiz aytmagan. Aslida “Ustoz-shogird” tizimini qaror toptirish shaxsni barkamol qilish orqali jamiyatni baxtli, saodatli qilishdan iborat yezgu g‘oyadir. Ayniqsa, bu g‘oya islom falsafasidan oziqlanganda yanada to‘laqonli ma‘no kasb yetadi. Buyuk ajdodlarimiz Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Alisher Navoiy asarlarida, Imom Buxoriy hadislari, Xoja Ahmad Yassaviyning hikmatlari-yu, Bahouddin Naqshbandning “Dil ba yoru, dast ba kor” tamo-yilida bu yezgu g‘oyaga doir qimmatli xulosalar mujassam. Dono xalqimiz, mutafakkir ajdodlarimiz ijodida ko‘plab ustozlik timsollari yaratildi. Bugungi kunda ushbu tarixiy an‘ananing bardavomligini ta‘minlash, uni yangi bosqichga ko‘tarish zarurati paydo bo‘ldi.

Zaminimizda bundan bir necha yuz -yillar avval bunyod yetilgan, yurtimiz ko‘rkiga ko‘rk bag‘ishlab kelayotgan qadimiy va hashamatli obidalar, osori atiqalar Vatanimizning boy tarixi, shon-shavkati, betakror ma‘naviy merosidan dalolat beradi va yurtdoshlarimizga beaded g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Bu betakror merosdan foydalanish, uni yosh avlod ongi va qalbiga chuqur joylash orqali komil insonni voyaga yetkazish mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘zining “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” nomli asarida yurtimizdan yetishib chiqqan aziz-avliyolar, buyuk mutafakkirlar haqida gapirar ekan, “Mana

⁴⁰ Хақиқат манзаралари. 96 мумтоз файласуф. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2002. – 372 б.

ko‘rdingizmi, ulug‘ bobolarimizning sharofati, o‘lmas nomlari, ularning ruhi poklari bugun ham bizni qanday qo‘llab-quvvatlayapti, bizga qanday madad beryapti. Biz mana shunday ulug‘ allomalarimiz bilan, ularni kamolga yetkazgan ona zaminimiz bilan har qancha faxrlansak, arziydi”⁴¹, deb ta’kidladi.

Xalqimizga xos bo‘lgan urf-odatlar, turmush tarzi, tafakkuri, madaniyatining ifodasi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi namunalari, “Alpomish”, “Shoshmaqom” singari ijod durdonalari, buyuk ajdodlarimiz va milliy qahramonlarimiz hayoti va jasorati aks yettirilgan adabiyot va san’at asarlari milliy mafkuramiz oziqlanadigan manbalar hisoblanadi. Rivoyatlarda, afsonalarda, yertak va matallarda iymon-ye’tiqodli, insof-diyonatli xalqimiz fazilatlari to‘laqonli aksini topgan. Bugun ta’lim tizimida “Ustoz-shogird” an’anasini qaror toptirishda betakror ma’naviy merosimiz, tarixiy an’analарimiz va milliy qadriyatlarimizni har tomonlama o‘rganish va o‘rgatish tamo-yilidan kelib chiqilsa samara yanada yuqori bo‘ladi.

Dunyo tamaddunining o‘chog‘i, geraklitcha aytganda, falsafiy tafakkur beshigi bo‘lgan, Sharq renessansining gullagan davrlarini kechirgan yurtimizda ma’naviy qadriyatlar doimo ulug‘lab kelindi. Ahmad Farg‘oniyning koinot sirlari, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning algoritmik ketma-ketlik uslubi haqidagi g‘oyalari, tabiat falsafasi (naturfilosofiya)ning otasi, dunyoviy kashfiyotlari bilan yetti iqlimga tanilgan Abu Rayhon Beruniy, “Sharq Aristoteli” deb nom chiqargan, falsafa tarixi, bilish nazariyasi, mantiq, musiqa, axloq sohalariga doir asarlar, adolatli jamiyat haqidagi g‘oyalar muallifi Abu Nasr Forobiy,



falsafiy g‘oyalarni ilgari surgan

⁴¹ Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. Т.: “Ўзбекистон”, 2017. -146 бет.

Abu Ali Ibn Sino kabi daholar merosi, Alisher Navoiyning gumanizm falsafasi, Bobur Mirzo, Mashrab, Bedil, Donish hamda asrimiz boshidagi ma'rifatparvar ziyolilarning ijodi va faoliyati – "Ustoz-shogird" tizimida g'oyat muhim nazariy va mafkuraviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Sharqu G'arbning ulug' donishmandlari hikmatlarida aytilganki, yuksak g'oyaviy maqsadlarga asoslanmasdan turib komil insonni tarbiyalash mumkin emas. O'zgalar manfaatini ustun qo'yadigan, o'z mehnati, xulq-atvori, ma'naviy salohiyati bilan boshqalarga ibrat bo'ladigan odamgina tom ma'noda ustoz bo'lib kamol topishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan Ustoz-shogird munosabatlarida komil insonning qanday belgilari shakllantirilishi lozim, degan savolga javob berishga harakat qilamiz. Shogirdning qanday ko'nikma va malakalarini qaror toptirish kerak?

Yeng avvalo, har bir shogird mustahkam g'oyaviy ye'tiqodga ega bo'lishi zarur. Ustozlik sifatlarini vujudiga singdira olish, olgan bilim va ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq yeta bilish, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok yetishga o'rganish zarur. Bundan tashqari, yana quyidagilar muhim:

erkin fikrlash, ya'ni tafakkur madaniyatini shakllantirish, mushohadaga o'rganish. Jamiyat hayotida sodir bo'layotgan voqea-hodisalar mazmun-mohiyatini teran anglash, ularni tahlil qila olish;

chuqur bilim va dunyoqarashga ega bo'lish. Mustaqil fikrlash asnosida ijtimoiy jarayonlarga munosabat bildirga olish, ijodiy yondashuv;

yezgulik va yovuzlik, sog'lom va buzg'unchi mafkuralarni ajrata olish. Zararli g'oyalarning ijtimoiy oqibatlarini to'g'ri anglash, ularga nisbatan muvofiqsiz bo'lish;

buyuk ajdodlarimizning tarixiy-ma'naviy merosini yaxshi bilish, ijtimoiy hayot va Vatan ravnaqi yo'lida ulardan to'g'ri foydalana bilish;

"Men Vatan va uning ravnaqi uchun nima qildim" degan tushuncha bilan yashashga o'rganish;

mardlik, g'ayratli, shijoatli bo'lish, jasurlik, fido-yilik, vatanparvarlik, bunyodkorlik kabi fazilatlarni kamol toptirish va ularni qat'iyat bilan amalda qo'llay olish;

turli xalqlarning milliy madaniyati, tili, qadriyatlarini hurmat qilish, bag'rikenglik;

huquqbuzarlik, jinoyatchilik, jangarilik, axloqiy tubanlik, giyohvandlik, ichkilikbozlik singari illatlarga qarshi keskin kurasha olish;

Vatan mustaqilligi va istiqboliga rahna solishga intilayotgan har qanday yovuz kuchlarga nisbatan murosasiz bo'lish.

Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida "Ustoz-shogird" munosabatlarini qaror toptirish pedagog kadrlar, xususan, sinf rahbarlarining falsafiy tafakkuri va g'oyaviy saviyasini doimiy ravishda oshirib borishni taqozo qiladi. Bu yesa ta'lim-tarbiyaning sifatini oshirishda g'oyat muhimdir.

Shu yerda bir haqiqatni ta'kidlashimiz joiz: komillik yo'li - bu ilm yo'lidir. Boshqacha aytganda, inson komillikka faqat o'qish, o'rganish va bilish vositasida erisha oladi. Shu nuqtai nazardan, shogirdlar - o'quvchi yoshlar bilan g'oyaviy ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

- ularda Vatan tuyg'usini shakllantirish;
- ona tiliga muhabbat;
- milliy qadriyatlarga hurmat;
- ayolga yehtirom - onani ulug'lash;
- oilaning tarbiya borasidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatish;
- mahalla - demokratiya darsxonasi va o'zini-o'zi boshqarish maktabi ekanini yoshlarga o'rgatish;
- umuminsoniy qadriyatlar, dunyoviy bilimlarni egallashga intilishni rag'batlantirish, milliy va diniy bag'rikenglik ko'nikmalarini shakllantirish;
- dinning dunyoviylikka zid emasligi;
- huquqiy madaniyat - sog'lom dunyoqarashning omili ekani to'g'risidagi malumotlarni ko'paytirish;
- oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligi orqali shaxsni tarbiyalash.

Bugungi kunda sinf rahbari o'zining tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishda yana bir muhim narsaga e'tiborini qaratishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil yetish bo'yicha ilgari surgan *beshta muhim tashabbusi* tarbiyaviy ishlarimizga mazmun bag'ishlash barobarida ularning hayotida porloq imkoniyatlar ochishiga shubha yo'q. Besh tashabbusning

hayotga joriy qilinishi ma'naviy qadriyatlarni ta'lim-tarbiya tizimiga singdirish, tarbiyaviy jarayonni yuqori bosqichga ko'tarish borasida real imkoniyat demakdir. Umumta'lim maktablarida Davlatimiz rahbari ilgari surgan beshta muhim tashabbusni o'quvchi yoshlar hayotiga chuqur singdirishda pedagoglar, xususan, sinf rahbarlari jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda keng ko'lamda faoliyat olib borishlari bugungi kunning muhim talabidir.



Mutafakkir shoir Abdurahmon Jomiyning “Kitobdin yaxshi do'st yo'qdir jahonda” hikmati asrlar davomida o'zining isbotini topgan. Buyuk mutafakkir ajdodlarimizning har biri kitobni ardoqlagan, mutolaani yuksak madaniyat belgisi deb tushungan. Shu bois bizning muqaddas zaminimizdan ulug'lar, shoir va ulamolar, shayxul mashoyixlar ko'plab yetishib chiqqan.

Bugungi kunga kelib dunyoda o'xshashi yo'q, betakror yurtimiz – jonajon O'zbekistonimiz dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini topib bormoqda. Buning zamirida xalqimizning hamjihatligi, mehnasevarligi, o'qimishlilik, ilm-ma'rifatga, ma'naviy yuksaklikka intilishi yotibdi. Zero xalqimiz, ayniqsa yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish – O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi bejiz emas.

Davlatimiz rahbarining aholi kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarni muntazam o'tkazib borishga qaratilgan tashabbusi buning isbotidir. Aslida ilmga intilish, o'qimishlilik xalqimizga xos bo'lgan azaliy xususiyatdir. Ma'naviy qadriyatlar shakllanishida kitobning o'ni beqiyos. Ulug' ajdodimiz Yusuf Xos Hojib aytganidek, “Qadru qimmat kitoblar bilan paydo qilingan”⁴². Ajdodlarimiz zakovatidan quvvatlangan ziyo to'lqini bugungi avlodlarimiz vujudida mavjlanayotgani qalblarimizni quvontiradi. Dini islomning muqaddas kitobi – Qur'oni karimda ham ma'rifat, donolik, bilimli bo'lish fazilat sifatida ulug'lanadi. Hadisu shariflarda “Beshikdan to qabrgacha ilm izla”

⁴² Хикматлар / Тузувчи Э.Очилов. Т.: “Ўзбекистон”, 2013. -15 бет.

deb ta'kidlangan. Xalqimiz avvalu azaldan o'qish, ilmi bo'lishni barcha kulfatlarga qalqon deb hisoblagan, bilim va qudrat – ikkovi yegizak, deb bilgan.

Bugun mamlakatimizda ana shu yezgu tamoyillar ulug'lanayotganligi bejiz emas. Zotan, XXI asr – aqlu zakovat asri, intellektlar davri. Kim o'qimishli bo'lsa, zamon shuniki. Mutafakkir ajdodimiz Forobiy aytganidek, fozil jamiyatni o'qimishli odamlargina barpo qiladilar⁴³. Qolaversa, hozirgi davr – axborot davri. Qaysi mamlakat axborot resurslariga boy bo'lsa, o'sha davlat qudratlidir. Axborot urushi bugun insoniyatni tashvishga solayotgan, atom urushidan-da dahshatli bo'lgan xurujdir. Unga qarshi turmoq uchun inson ko'p bilimga – axborotga ega bo'lishi, tafakkurini doimo charxlab borishi kerak. Buning uchun kutubxona, axborot resurs markazi xizmatidan keng foydalanish zarur.

Bugungi kunda kishining axborotga boyligi uning ma'naviyatini, boshqacha aytganda, saviyasini belgilaydigan muhim omildir. Chunki axborotga boy odam – bilimdon odam, har bir kishi axborot olish madaniyatiga ega bo'lishini davr taqozo etmoqda. Kutubxona xizmatidan foydalanish yesa bu yo'lda muhim qadamdir. Nemis faylasufi G.Leybnis "Kutubxonalar insoniyat barcha ma'naviy boyliglarining durdonalaridir"⁴⁴, deb ta'kidlagan bo'lsa, fransuz mutafakkiri Deni Didro "Kim kitob o'qishdan to'xtasa, bilingki, u fikrlashdan ham to'xtagan bo'ladi"⁴⁵ deganda batamom haqlidir.

Maktab ta'limi tizimida mehnat qilayotgan, ta'lim-tarbiya olayotgan har bir inson – xoh o'quvchi bo'lsin, xoh o'qituvchi – barchaning kutubxona a'zosi bo'lishiga erishish lozim. Kutubxona a'zolarining o'sib borish sur'ati bot-bot tahlil qilib borilishi, yuqori ko'rsatkichlarga yerishgan sinflar, ularning rahbarlari ma'naviy rag'batlantirib turilishi zarur. Aholini, xususan, yoshlarni kutubxonaga – axborot resurs markaziga jalb qilishga

⁴³ Қаранг: Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.- 182-192 бетлар.

⁴⁴ Тафаккур гулшани. В.Воронцов композицияси. Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. -182 бет.

⁴⁵ Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. -260 бет.

majburiylik emas, ma'naviy ye'tiyoj tamo-yilidan kelib chiqib yondashish kerak.

Maktab kutubxonalarini badiiy adabiyotlar bilan boyitishga doir tashkiliy-texnik choralarni doimiy ravishda ko'rib borish kerak. Bunda homiy tashkilotlar, turli muassasalar, jamg'armalar, ayrim fuqarolarning beminnat yordamidan unumli foydalanish amaliyotini keng joriy yetish lozim. Kutubxona jamg'armasining boyib borishi ta'lim muassasasining yangi o'quv -yiliga tayyorgarligi yuzasidan asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib qolishi kerak.

“Kitobsevarlar klubi” tarmog'ini kengaytirish zarur. Bundan bir qancha -yillar oldin viloyat ta'lim muassasalarida “Kitob taqdimoti” degan ma'rifiy tadbir ommalashgan va u respublikada “Samarqand tajribasi” degan nomda yoyilib ketgan edi. Keyingi yillarda deyarli unutilgan ushbu xayrli tadbirni tiklash, takomillashtirib borish va ko'plab uyushtirib turish lozim.

Sinf rahbarlari fan o'qituvchilari bilan birgalikda alohida reja asosida ishni tashkil yetib, fanlar kesimida maqsadli to'garaklar tashkil qilish, ularni eng qiziqarli adabiyotlar bilan ta'minlash choralarini ko'rish ham foydadan xoli emas.

Bayon qilinganlar asosida shunday xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, Bugungi kunda sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyatini takomillashtirish maqsadida har bir maktabda *Ustoz-shogird*” munosabatlari tizimi yaratish, uni qaror toptirishda betakror ma'naviy merosimiz, tarixiy an'analarimiz va milliy qadriyatlarimizni chuqur va har tomonlama o'rganish va o'rgatish tamo-yilidan kelib chiqilsa tarbiyaviy ishda samara yuqori bo'ladi.

Ikkinchidan, maktab o'quvchilarining *mutolaa madaniyatini rivojlantirish* ularning axborotga boyligi, tafakkur madaniyatini, boshqacha aytganda, tarbiyaviy saviyasini belgilaydigan muhim omildir. Chunki axborotga boy odam – bilimdon odam, har bir kishi axborot olish madaniyatiga ega bo'lishini davr taqoza etmoqda. Bunga mutolaa madaniyatini rivojlantirish orqali erishish mumkin.

Uchinchidan, “Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi” degan tamo-yil asosida bugun umumta'lim maktablarida *uzluksiz metodik*

xizmatni tizimga aylantirish kutilgan samarani beradi. O‘z ustida doimiy ravishda ishlab keladigan sinf rahbarlarini rag‘batlantirish, ilg‘or rahbarlarning pedagogik tajribasini maktabda ommalashtirish, ularga nisbatan hurmat muhitini yaratish ham maktabda tarbiyaviy ishlarni yuqori bosqichga ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb yetadi.

Nazorat savollari

1. *“Sinf rahbari”, “sinf jamoasi”, “jipslik”, “uyushqoqlik” degan tushunchalarning ma’nosini tushuntiring.*
2. *Sinf rahbari o‘z faoliyatining mazmun-mohiyati, maqsad-vazifalari nimalardan iborat?*
3. *Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari nimalardan iborat?*
4. *Sinf rahbari o‘z ustida muntazam ishlashga doir qanday ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak?*
5. *Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanish sinf rahbarining pedagogik mahoratini oshirishida qanday o‘rin tutadi?*
6. *Ijodiy muhit nima? U sinf rahbari faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?*

Testlar

1. Sinf rahbarining mustaqil malaka oshirish va bilim olishi -

- A) pedagogik mahoratini oshirishning muhim sharti;
- B) mavjud bilim va tajribani faoliyatida qo‘llay olish;
- C) pedagogik faoliyatda unchalik muhim bo‘lmagan omil;
- D) uning faoliyatiga ta’sir ko‘rsatmaydi.

2. Sinf rahbari mustaqil malaka oshirishi va bilim olishining muhim shakllari ko‘rsatilgan javobni toping

- A) mustaqil mutolaa, ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanish, ijod, “Ustoz-shogird” tizimi;
- B) mavjud bilim va tajribani pedagogik faoliyatda qo‘llay olish;
- C) axborot-kommunikasiya texnologiyasi va internetdan foydalanish ko‘nikmalarini boyitish;

D) ilmiy-ma'rifiy anjuman va tadbirlarda qatnashish.

3. “Beshikdan qabrgacha ilm izla” degan hikmat qaysi manbadan olingan?

- A) hadisdan;
- B) tasavvuf ilmidan;
- C) “Qutadg‘u bilig”dan;
- D) “Devoni hikmat”dan.

4. “Kimki shogirdlikka chin dildan shod, bir kun o‘zi ham bo‘lg‘usi ustod” degan hikmat muallifi

- A) Nosir Xusrav;
- B) Konfusiy;
- C) Suqrot;
- D) Kaykovus.

5. Xitoy donishmandi Konfusiy “_____” degan

- A) “o‘rganishdan to‘xtasang keksalik boshlanadi”;
- B) “so‘z – dunyodagi eng o‘tkir quroldir”;
- C) “g‘oyasi kuchli xalq buyukdir”;
- D) “vaqt va fazoning cheki bo‘lmaydi”.

6. Sinf rahbarining muhim fazilatlari -

- A) barchasi to‘g‘ri;
- B) insonlar bilan muloqotga kirishib keta olishi;
- C) botiniy va zohiriy belgilarining uyg‘unligi;
- D) uning bilimdonligi va notiqligi.

7. “Kitobdin yaxshi do‘st yo‘qdir jahonda” degan hikmatning muallifi

- A) Abdurahmon Jomiy;
- B) Xoja Ahmad Yassaviy;
- C) Yusuf Xos Hojib;
- D) Ahmad Yugnakiy.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2019 -yil 30 oktyabr. 03/19/576/3970-son.

2. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 7 noyabr. 06/20/6108/1483-son.

3. “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 7 noyabr. 07/20/4884/1484-son.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - T.: “O‘zbekiston”. - 2017.- 102 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil 23 avgustda o‘qituvchining ijtimoiy mavqeyini oshirish masalalariga doir o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. -“Xalq so‘zi” gazetasi, 2019 -yil 24 avgust. - №174 (7404)-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi ma’ruzasi. 2023 -yil 22-dekabr // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023 -yil 23-dekabr.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Ziyomuhammadov B., Ismoilov F. Barkamol avlodni voyaga yetkazish sirlari. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2011. – 440 b.

2. Ziyomuhammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: “Tib-

kitob”, 2009. – 184 b.

3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo‘llanma. – T.: “O‘qituvchi”, 2004. –104 b.

4. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. – T.: “Ma’naviyat”, 2019. – 920 b.

5. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 2-kitob. –T.: “Ma’naviyat”, 2019. – 856 b.

6. Pedagogika: yensiklopediya. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.

7. Pedagogika: yensiklopediya. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.

8. Xodjayev B., Sattorov Sh., Artikova M. Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyasi. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 168 b.

9. Qurbonova M. Yoshlarda kreativ tafakkurni shakllashtirishning pedagogik asoslari // “Xalq ta’limi” jurnali, 2020. – T.3.

17. Quronov M. Milliy tarbiya. - T.: “Ma’naviyat”, 2007. – 240 b.

18. Haydarov K. Sharq falsafasida ma’naviy tarbiya ustuvorligi. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – 240 b.

19. Haydarov K. Milliy qadriyatlarni ta’lim mazmuniga singdirish masalalari. Uslubiy qo‘llanma. – T.: “Qamar media” nashriyoti, 2022. – 80 b.

20. Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2002. – 372 b.

IV.Dissertasiyalar

1. Ibragimov A.A. Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning kognitiv mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fan. dok. (DSc) diss. – Samarqand: 2022.

2. Muxsiyeva A.Sh. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari. Pedagogika fan. nom. diss. – T.: 2005.

3. Haydarov K.D. Yangilanayotgan O‘zbekistonda ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi va uning uzluksiz ta’lim tizimidagi ahamiyati. Falsafa f. d-ri (DSc) diss. - Samarqand, 2022.

V. Elektron ta'lim resurslari

1.<https://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

2.<http://www.yeduportal.uz>- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi axborot-ta'lim portali.

3.<http://www.uzedu.uz>- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi portali.

7-mavzu: SINIF RAHBARI ISHINI REJALASHTIRISH. SINIF RAHBARINING NAMUNAVIY YILLIK ISH REJASINI TUZISH METODIKASI

Reja:

- 1. Sinf rahbarining namunaviy -yillik ish rejasini tuzish metodikasi haqida ma'lumot berish.*
- 2. Sinf rahbarining vazifalari.*
- 3. Sinf rahbari – ibrat namunasi.*

Ma'lumki, har qanday faoliyat avvaldan ishlab chiqilgan reja asosida olib boriladi, xususan, sinf rahbarining faoliyati ham reja asosiga quriladi. Reja qanchalik puxta ishlab chiqilgan bo'lsa, natija ham shunga yarasha bo'ladi. Hamma gap uni oqilona amalga oshirishdadir. Asosli, qulay va chuqur o'ylangan rejani ishlab chiqish muayyan darajada mahorat talab qiladi. Xalqimizda "Rejasiz ish – qolipsiz g'isht", "Rejasiz daraxtzor – changalzor", "Rejali ish – hamisha besh"⁴⁶ degan naqlar bor. Ushbu naqlar har qanday ishni avvaldan puxta o'ylangan reja bilan qilish kerak, aks holda u kutilgan natijani bermaydi, degan ma'noda qo'llaniladi. Shu boisdan rejani ishlab chiqish masalasiga g'oyat mas'uliyat bilan yondashish har kimning, xususan, sinf rahbari – pedagogning professional saviyasidan dalolat beradi.

Odatda, rejalarining ikkita turi ajratib ko'rsatiladi: *davriy* (kunlik, haftalik, oylik, choraklik, yarim -yillik) va *istiqbolli* (bir -yillik, ko'p -yillarga mo'ljallangan) rejalar qabul qilinishi mumkin. Barcha sohalar kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham shunday. Sinf rahbarida ularning hammasi bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Chunki u avvalo kundalik amalga oshiradigan ishlarini rejalashtirishi lozim, so'ngra hafta mobaynida, balki bir oy davomida qiladigan ishlarini rejalashtirib olsa, yanada maqsadga muvofiq. Ammo sinf rahbarining -yillik ish rejasi rasmiy hujjat hisoblanadi va uning bajarilishi yuzasidan shaxsan hisobdor bo'ladi. Nizomga muvofiq,

46 Ҳикматнома. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент, Энциклопедия бош таҳририяти, 1990. – 354-бет.

sinf rahbari direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosariga - yillik faoliyati to'g'risida hisobot beradi.

Har qanday reja stixiyali tarzda tuzilmaydi, uning o'ziga xos manbalari bo'lishi kerak. Sinf rahbarining yillik ish rejasiga *ikkita manbaga tayanishi lozim*: 1) metodologik, ya'ni me'yoriy-huquqiy hujjatlar, sinf rahbari faoliyatiga doir Nizom; 2) maktabning umumiy vazifalari hamda mahalliy sharoitdan kelib chiqiladigan vazifalar.

Sinf rahbarining -yillik ish rejasiga quyidagi talablar qo'yiladi:

birinchidan, reja mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlarga hamohang bo'lishi lozim;

ikkinchidan, uning mazmuniga milliy mafkuramizning asosiy g'oyalari singdirilgan bo'lishi zarur;

uchinchidan, reja maqsadga yo'naltirilgan bo'lishiga ahamiyat qaratilishi lozim;

to'rtinchidan, rejada uzluksizlik va izchillik tamo-yillari o'z ifodasini topishi kerak;

beshinchidan, reja milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'ziga xos targ'iboti sifatida ishlab chiqilishi zarur.

Sinf rahbari o'zining -yillik ish rejasiga quyidagi ilovalarni kiritishi maqsadga muvofiq:

sinf jamoasi yig'ilishlarining mavzulari;

o'tkaziladigan tarbiyaviy soatlar mavzulari;

ota-onalar majlislarining mavzulari, ularda muhokama qilinishi lozim bo'lgan masalalar;

o'quv yili mobaynida milliy bayramlar va tarixiy sanalarga bag'ishlab o'tkaziladigan tadbirlar mavzulari;

o'quvchilar bilan o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar mavzulari.

Sinf rahbari yillik reja ishlab chiqishga ijodiy yondashishi talab etiladi. Avval sinf hayotiga doir barcha masalalar jamlanib, keyin tegishli bo'limlarga ajratiladi. Boshqacha aytganda, induksiya metodidan foydalaniladi – mayda, alohida, oddiy masalalardan murakkablikka qarab boriladi.

Odatda, dastlabki bo'limda o'tgan o'quv yili mobaynida amalga oshirilgan ishlar qichqacha sarhisob qilinadi: yutuqlar, muvaffaqiyatlar

bilan birgalikda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, foydalanilmagan imkoniyatlar – bularning barchasi tahlil qilinadi, va, umuman, o‘tgan o‘quv -yilining sinf jamoasi hayotidagi ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati to‘g‘risida xulosa qilinadi.

Ikkinchi bo‘limda joriy o‘quv -yilida bajarilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar belgilanadi. Ularni aniqlab olish va shakllantirishda sinf jamoasining umumiy holati, mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqiladi. Rejadagi belgilangan vazifalar maktab jamoasi oldida turgan umumiy vazifalarga hamohang bo‘lishi, ammo parallel sinflarning rejalari bilan aynan bir xil bo‘lmasligi kerak. Dunyoda hych qachon bir-biriga mutlaqo aynan narsa-hodisalar bo‘lmagani singari, ish rejalari ham aslida bir xil, o‘xshash bo‘lishi mumkin emas, chunki har bir sinf jamoasida o‘ziga xoslik mavjud bo‘ladi, ana shu o‘ziga xoslikni esa sinf rahbari shakllantirishi lozim.

Uchinchi bo‘lim sinf faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini, ta’lim-tarbiya muammolarini hal qilish yo‘llarini belgilab beradigan asosiy mazmun sifatida shakllantiriladi. Aynan uchinchi bo‘lim sinf rejasining o‘ziga xosligini belgilaydi, chunki unda o‘quvchilar shaxsini rivojlantirishga qaratilgan aniq (konkret) vazifalar qo‘yiladi.

To‘rtinchi bo‘limda asosiy e’tibor mazkur sinf o‘quvchilari bilan ishlaydigan (dars beradigan) o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiyaviy ta’sirini muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi. Bunday chora-tadbirlar o‘qituvchilar bilan yakka tartibda suhbatlar, o‘zaro tajriba almashish, pedagogik maslahatlashuvlar va boshqa shakllarda tashkil etilishi mumkin.

Yakuniy bo‘lim “Ota-onalar bilan ishlash” deb nomlanadi va unda o‘quvchilarning ota-onalari ishtirokida o‘tkaziladigan yig‘ilishlarda ko‘riladigan masalalar, ma’ruza va suhbatlar mavzulari bayon qilinadi (albatta, vaziyatdan kelib chiqib, kun tartibidagi masalalarga ayrim o‘zgartirishlar kiritilishi mumkinligi belgilab qo‘yiladi).

Sinf rahbarlarining -yillik ish rejalari shaklan bir-biriga o‘xshasa-da, mazmunan farq qilishi lozim. Hatto shaklan bir xillikdan ham voz kechilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi, albatta. Shuning uchun ham reja ishlab chiqish, unga eng muhim va dolzarb masalalarni kiritish uchun ham sinf rahbaridan muayyan bilim va tajriba talab qilinadi.

Yillik, umuman, har qanday davrga mo'ljallangan reja shoshma-shosharlik bilan, pala-partish shakllantirilmasligi kerak, chunki shoshqaloqlik hyech qachon ko'ngildagi natijaga olib kelmaydi. Rejani shakllantirishda obdon o'ylab, uning xomaki variantini yaratib, so'ngra uni hamkasblar, hammaslaklar bilan muhokama qilib, fikrlashib olinsa, so'ngra oxirgi variant shakllantirilsa, yanada yaxshi bo'ladi. Rejada belgilangan vazifalar o'zining aniq-tiniqligi, ham mazmun jihatidan, ham savodxonlik nuqtai nazaridan maromiga yetkazilgan bo'lishi bilan ajralib turishi kerak, boshqacha aytganda, rejani ishlab chiqish orqali sinf rahbarining pedagogik saviyasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Sinf rahbarining tarbiyaviy-pedagogik faoliyati uning ish rejasida adekvat tarzda o'z ifodasini topishi zarur. Boshqacha aytganda, sinf rahbari va uning faoliyati tarbiyaviy ishlarning ko'zgusi sifatida namoyon bo'lishi, tashkilotchilik va tashabbuskorlik fazilatlarining yorqin ifodasi bo'lsin. Umuman, ma'naviy va mafkuraviy yetuklik, kasbiga sadoqat, uni hayotining mazmuni deb bilish, vatanparvarlik, milliy g'ururlilik, ilmga moyillik, bilimdonlik, tashkilotchilik, xushmuomalalik, kommunikativlik bugun sinf rahbarining shaxsiy sifatleri bo'lishi lozim. "O'quvchilarni o'ziga jalb qila olish, ishtiyoqini o'yg'ota olish, milliy zamonaviylik g'oyasini singdirib, milliy-tarbiyaviy vazifalarga ruhlantira olish; o'zini "mukammal, zamonaviy o'zbek ziyolisi" siymosiga ongli ravishda tayyorlash va takomillashtira borish; o'zbek tilida sof, tiniq, ifodali, ta'sirli, ohangdor so'zlash; notiqlik va aktyorlik mahorati; yuz-qiyofa, ko'z, qo'l, gavda harakatlari orqali o'z nutqining ta'sirchanligini oshira olish; his-tuyg'ularni jilovlay olish; o'quvchilarga bevosita va parallel ta'sir ko'rsata olish va h.k."⁴⁷lar sinf rahbarining pedagogik mahoratini belgilovchi eng muhim xususiyatlar bo'lib, shaxsiy rejaning bajarilishida muhim kriteriy (mezon)lar bo'lib xizmat qilishi lozim.

Sinf rahbari o'zining ish rejasini shakllantirishda "bir qolip doirasida" cheklanib qolmasligi kerak. Xususan, ish rejadan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim masalalar – xalqimizning ma'naviy o'tmishi, betakror ma'naviy merosi sarchashmalarini o'rganish va ularni targ'ib qilishga doir

47 Қуронов М. Миллий тарбия. –Т.: "Маънавият", 2007. -198 бет.

masalalar joy olishi lozim. Boshqacha aytganda, sinf rahbari ma'naviy targ'ibotning eng oldingi marrasida yurishi lozim. Sinfda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilar ekan, u "Men vatan ravnaqi uchun nima qildim?" degan tuyg'uni o'zi va o'quvchilar ongi-shuuriga joylashi kerak. Spitamen va Shiroq, To'maris va Muqanna, Jaloliddin Manguberdi va Temur Malik timsolida vatanparvarlik ibratini yoshlarimiz vujudiga singdirishi, avlodlar tomirida sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzolarining qoni jo'sh urayotganini tushuntirishi zarur.

Davlatimiz rahbarining ta'biri bilan aytganda, "Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq yeta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak"⁴⁸.



Dunyoda o'zining shonli tarixi, boy ma'naviy merosi bilan faxrlana olmaydigan davlatlar ancha. Ammo Yaratganning irodasi bilan xalqimiz bunday qashshoq va ayanchli qismatdan mosuvo. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, to'qqizinchi – o'n ikkinchi asrlarda "yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o'nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. "Islom madaniyatining oltin asri" deb ye'tirof yetiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy kabi ulug' ulamolar butun musulmon olamining faxru iftixori va cheksiz g'ururi hisoblanadi.

48 Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // "Халқ сўзи" газетаси, 2020 йил 1 октябрь. - №207 (7709)-сон.

O‘n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom yettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me’morlarning shuhrati dunyoga yo-yildi”⁴⁹.

Barkamol shaxs tarbiyasida bunday slohiyatli, ulkan bebaho merosdan o‘rinli va samarali foydalanish, ajdodlar yaratgan ma’naviy qadriyatlar silsilasini yangi davr ostonasi bo‘lgan maktab ta’limiga, uning mazmun-mohiyatiga singdirish ayni paytda eng dolzarb vazifa, pedagogning muqaddas burchidir. Sinf rahbari o‘z faoliyatini rejalashtirganda bu kabi muhim masalalar e’tibordan chetda qolib ketmasligi kerak.

O‘tgan -yili mavzu doirasida respublika miqyosida online so‘rovnoma o‘tkazildi. Unda ishtirok yetgan turli yosh va ma’lumotga ega bo‘lgan 758 nafar respondentga “O‘quvchi-yoshlarimizning buyuk ajdodlarimiz ma’naviy merosini o‘rganishga qiziqishlarini qanday baholaysiz?” degan savolga yesa respondentlarning 48 foizi “ularning ko‘pchilik qismi qiziqmaydi”, 20,5 foizi “afsuski, yomon” degan javoblarni bergani holat yaxshi emasligidan dalolat beradi.

“Ma’naviy merosimiz namunalaridan keng foydalanish ta’lim-tarbiya jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatadi?” deb murojaat qilinganda respondentlarning aksariyat ko‘pchiligi – 94,3 foizi “ta’lim-tarbiya sifati va mazmunini oshiradi” degan javobni berdi.

“O‘qituvchi buyuk ajdodlarimizning ma’naviy merosini yaxshi bilishi va o‘quvchilarga singdirib borishi kerak”, degan fikrga munosabatingiz?” deb so‘ralganda ularning 90,3 foizi (!) “to‘g‘ri, ma’qullayman” degan javobni bergani, ayniqsa, “milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni maktab ta’limi mazmuniga singdirishda qaysi omil muhim?” degan savolga

49 Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // ”Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 1 октябрь. - №207 (7709)-сон.

respondentlarning 91,4 foizi “pedagogik mahorat” deb javob bergani asosida xulosa qilish qiyin emas: bugungi o‘qituvchi – sinf rahbari ma’naviy qadriyatlarimizni chuqur bilishi va ularni ta’lim mazmuniga singdirib yubora oladigan mahoratga ega bo‘lishi kerak!

O‘quvchi yoshlarimizning Vatanga ye’tiqod, milliy iftixor tuyg‘ularini umumbashariy qadriyatlar, dunyo xalqlari tarixida o‘chmas iz qoldirgan voqyealar, jasorat namunalari misolida ham tushuntirish orqali oshirib borish bugun maktab ta’limi islohotining muhim talabi ekanligi barchaga ayon. Ma’lumki, ikkinchi jahon urushi nihoyasida Qo‘shma Shtatlar tomonidan Xirosima va Nagasaki shaharlariga bomba tashlangandan so‘ng dunyo afgor ommasida yaponlar bombaning asoratidan uch yuz -yil mobaynida qutula olmaydi, degan tasavvur paydo bo‘lgan edi. Ammo bunday farazlar haqiqat bo‘lib chiqmadi, yaponlar o‘zlarini qo‘lga olib, irodali xalq ekanligini namoyish qildilar, jonkuyarlik va fido-yilik namunalarini ko‘rsatib mehnat qilishdi. Natijada Yaponiya dunyodagi eng rivojlangan davlatlar qatoriga chiqdi.

Yoki, o‘z davlatiga haqiqiy mehr-muhabbat, yuksak ishonch namunasini Janubiy Koreya fuqarolari ko‘rsatganliklarini yodga olish joizdir. Koreya moliyaviy inqirozga uchraganida fuqarolar hukumatning biror da’vatisiz ham o‘z sarmoyalarini, ayollar hatto qimmatbaho taqinchoqlarini davlat g‘aznasiga olib kelib, ikki qo‘llab topshirganlar. Hukumat yesa, o‘z navbatida, burchini ziyodi bilan bajardi: mamlakat yana oyoqqa turib olishi bilan asl vatanparvar fuqarolaridan qarzini foizlari bilan to‘lab, rozi qildi. Bu misollar chinakam vatanparvarlik namunasidir.

Bizning yurtimizda mamlakat ravnaqi uchun odamlar o‘z boyligini davlatga topshirishini hyech kim talab qilgani yo‘q. Fidoyi bo‘lishdan boshqa ulardan hyech narsa talab qilinmaydi ham. Fuqarolarimiz qo‘lni qo‘lga berib, bir yoqadan bosh chiqarib, elu-yurt manfaati uchun mehnat qilishsa, shundagina davlatga naf keltirishlari, yurtni obod qilishlari mumkin.

Xullas, sinf rahbarining yillik ish rejasi shunchaki, nomiga ishlab chiqilmaydi. Eng muhimi – unda belgilangan har bir tadbir, har qanday vazifa amalda bajarilishi lozim. Albatta, maktab rahbariyati tomonidan tashkil etilgan monitoring tizimi samarali ishlasa, reja ijrosi o‘z vaqtida

nazorat qilib borilsa, kutilgan natijalarga erishiladi. Reja ijrosi ustidan nazorat o'z holiga tashlab qo'yilgan muassasa faoliyatida ijobiy o'zgarishlar bo'lishi qiyin, albatta.

Umuman olganda, sinf rahbarining yillik ish rejasi birinchi galda o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qilishi, shuning barobarida maktabda ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga hissa qo'shishi, pirovardida jamiyatimizning barkamol avlodni kamol toptirishdek ezgu maqsadiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Xulosa sifatida aytganda, bugun maktab barkamol avlodni shakllantirishning chinakam markazi bo'lishi, fidoyi o'qituvchilar, vatanparvarlar muallimlar mehnat qiladigan muqaddas maskanga aylanishi lozim. Fido-yilik xususiyatlari ayniqsa tarbiyaviy ishga bevosita mas'ul bo'lgan sinf rahbari faoliyatida yaqqol namoyon bo'lishi kerak. Bugun u yuksak vatanparvarlik fazilatlari namoyondasi sifatida mehnat qilishi, rejalashtirgan tadbirlarining bekamu ko'st, mukammal ijrochisi bo'lishi lozim. O'z kasbini ulug'lagan pedagog – sinf rahbari munosib shogirdlarni voyaga yetkazadi va shuning uchun ham chinakam vatanparvar, tom ma'noda haqiqiy insondir. Sinf rahbari shuning uchun ustozki, u minglab yoshlarga saboq berish bilan birga o'zidan keyin, o'zining o'rniga shogirdlar tayyorlaydi. Shunda uning kelajak oldida, avlodlar oldida yuzi yorug' bo'ladi.

Nazorat savollari

- 1. Ish rejaning qanday turlari bor?*
- 2. Sinf rahbari -yillik ish rejasini tuzishda qanday manbalarga tayanish lozim?*
- 3. Ish rejaning tarkibiy qismlari nimalardan iborat*
- 4. “Ibrat namunasi” degan nisbat sinf rahbariga qanchalik munosib?*
- 5. Sinf rahbarining pedagogik mahorati nimalarda namoyon bo'ladi?*
- 6. Sinf rahbarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?*
- 7. Tarbiya fani o'qituvchisining intellektual va ijodiy faolligi deganda nimani tushunasiz?*
- 8. Sinf rahbari milliy qadriyatlarni yaxshi bilishi uning faoliyatida qanchalik muhim?*

9. *“Sinf rahbarining fido-yiligi” deganda nimalarni tushunasiz?*
10. *Sinf rahbariga xos ma’naviy-axloqiy fazilatlar haqida so‘zlab bering.*
11. *Sinf rahbarining axborotga boyligi qanchalik muhim?*
12. *Sinf rahbarining ijtimoiy faolligi deganda nimani tushunasiz?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 7 noyabr. 06/20/6108/1483-son.
3. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 3 yanvar. 09/20/391/0777-son.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-avgustda o‘qituvchining ijtimoiy mavqeyini oshirish masalalariga doir o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. -“Xalq so‘zi” gazetasi, 2019-yil 24 avgust. - №174 (7404)-son.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. -T.: “Fan” nashriyoti, 1987-2003 -yillar.
2. Amir Temur. Temur tuzuklari / forschadan A.Sog‘uniy va H.Karomatov tarjimasi. - T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – 144 b.

3. Yoʻldoshev J.Gʻ., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qoʻllanma. – T.: “Oʻqituvchi”, 2004. –104 b.
4. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. – T.: “Maʼnaviyat”, 2019. – 920 b.
5. Pedagogika: yensiklopediya. 1-jild. – T.: “Oʻzbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.
6. Pedagogika: yensiklopediya. 2-jild. – T.: “Oʻzbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.
7. Smeshnyye rasskazi: per. s srednevek. assir. Bar-Yebraja G.Yu. (Abul Faradj). – M.: Politizdat, 1992. – 207 s.
8. Xodjayev B., Sattorov Sh., Artikova M. Tarbiya fanini oʻqitish texnologiyasi. – T.: Respublika taʼlim markazi, 2021. – 168 b.
9. Qurbonova M. Yoshlarda kreativ tafakkurni shakllashtirishning pedagogik asoslari // “Xalq taʼlimi” jurnali, 2020. – T.3.
10. Quronov M. Milliy tarbiya. - T.: “Maʼnaviyat”, 2007. – 240 b
11. Quronov M. Bolam baxtli boʻlsin, desangiz...T.: “Maʼnaviyat”, 2014.
12. Qodirov A. va b. Baxtli bola maʼnaviyati. – T.: “Muharrir”, 2018.
13. Haydarov K. Sharq falsafasida maʼnaviy tarbiya ustuvorligi. – T.: Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – 240 b.
14. Haydarov K., Rasulova D. Birinchi Renessans davri Sharq maʼnaviy merosini oʻrganish masalalari. Uslubiy qoʻllanma. – T.: “Qamar media” nashriyoti, 2022. – 89 b.
15. Hikmatlar shodasi / toʻplovchi va tarjimonlar A.Raimov, N.Raimova; muharrir A.Ziyadov. T.: “Oʻzbekiston”, 2016. –B.744.

IV. Elektron taʼlim resurslari

- 1.<https://www.lex.uz> - Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi.
- 2.<http://www.yeduportal.uz>- Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi axborot-taʼlim portali.
- 3.<http://www.uzedu.uz>- Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi portali.

ILOVALAR

TARBIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASIGA DOIR QO‘SHIMCHA MATERIALLAR

DARSLARDA INTERFAOL METODLAR, IBRATLI HIKOYALAR VA HIKMATLARDAN FOYDALANISH

Tayanch iboralar: zamonaviy texnologiya, zamonaviy metodika, pedagogik ta’lim, interfaol metod, kreativ metodlar, rolli o‘yinlar, loyihali metod, evristik metod, ibratli hikoyalar, hikmatlar.

Zamonaviy metodikalarni qo‘llashda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini e’tiborga olish zaruriyati

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta’lim islohotlari jarayonida amalga oshiriladigan eng muhim tadbir – boshlang‘ich sinflardan o‘qitishning eng yangi, zamonaviy metodikalarini qo‘llash⁵⁰ zarurligi alohida ye’tirof yetildi. O‘quvchi yoshlar tarbiyasida ta’limning boshlang‘ich nuqtasi g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda mashg‘ulotlarni yangi metodikalar - zamonaviy shakl va uslublarda tashkil etishdan asosiy maqsad o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, to‘g‘ri so‘zlash, jonivorlar, narsa-buyumlarni to‘g‘ri nomlash, sanoq va miqdorni, katta va kichikni taqqoslash va farqlash, ular orasidagi o‘zaro o‘xshashlik va farqni ko‘ra bilish, ularning lug‘aviy ma’nolarini sharhlash kabi nutqiy-tafakkuriy ko‘nikmalarni, ravon og‘zaki



50 Qarant: xabar.uz // Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси, 2022 йил 20 декабрь.

nutqni hosil qilishdan iborat. Bunday yondashuv bolaning aqliy rivojlanishiga ko'mak beradi, unda hozirjavoblik va mushohada ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bunday yondashuv "Tarbiya" fani o'qituvchisidan o'z faoliyatini qiziqarli topishmoqlar, o'ylash va izlanishga yo'naltiruvchi didaktik va psixologik topshiriqlar bilan boyitish, zarur hollarda, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'rganish va mashg'ulotlarda qo'llay olishni taqozo qiladi. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy taraqqiyotini jadallashtirish, mustaqil faoliyatga yo'naltirishda tafakkur, idrok va xotirani rivojlantirish, nutqiy ko'nikmalarni mustahkamlash mashg'ulotlari alohida ahamiyat kasb yetadi. Sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlar ham ushbu metod asosida tashkil yetilganda o'quvchilar erkin fikrlaydi, bahs, munozara yuritadi. Albatta, darsni bunday usulda tashkil yetish oson kechmaydi. Bunda o'qituvchining tashkilotchiligi, chuqur bilimi, ziyrakligi, muloqotga kirishuvchanligi hamda boshqa xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, o'quvchilarga bilim berishning asosiy shakli darsdir. Bugungi dars o'quvchida ijodiy qobiliyatni o'stirish, aqliy salohiyatni kengaytirish, ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish va har bir yangilikni to'g'ri qabul qila olishni o'rgatishi kerak. Shunday ekan, darsda o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari ilmiy asosda tashkil yetilishi, o'quv maqsadlarini amalga oshirish uchun metod va vositalarni to'g'ri tanlay olish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Hozirgi darsda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va ijodiy izlanishga yo'naltirishdan iboratdir.

Har bir dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning erkin, ijodiy ishlashlari uchun sharoit yaratish kerak. Buning uchun darslarning har bir qismi aniq loyihalashtirilishi, o'quv materialini bilim egallovchilarning o'zlashtirish darajalariga moslashtirish talab yetiladi. An'anaviy ta'lim usullari bilan birga interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Interfaol usullardan foydalanganda asosiy urg'u o'quvchilarni hamkorlikda ishlashlariga imkon berilishi hisoblanadi. Shu boisdan, har bir interfaol usul o'quvchida erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatni shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy metodikalarni qo'llashda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish darsning samarasini ta'minlashda g'oyat muhimdir. Bunday tarzda mashg'ulotlarni olib borish asosan quyidagi maqsadlarga qaratilmog'i lozim:

o'quvchining o'zi mustaqil mutoala qilishi, bilim olishga intilishiga;

o'zini-o'zi anglab yetishiga, ma'naviy shakllanishiga;

o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga;

o'z ishiga mas'uliyat bilan qarashga;

faoliyatini mustaqil tashkil yeta olishi, har bir daqiqadan unumli foydalanishga;

bilishga, bilimga mo'yillik, hoxish-istak uyg'ota olishga;

hayotda, har bir vaziyatda faollik ko'rsata olishga o'rganishlari lozim.

Zamonaviy metodikalarga asoslangan interfaol metodlar mashg'ulot sifatini oshirib, o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faol tahlil qilishga, fikr-mulohazalarini erkin bayon yetishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalarga yechim topishga, hamjihatlikda faoliyat yuritishga, mantiqiy xulosalar chiqarish va ularni lo'nda va teran bayon yetishga o'rgatadi.

Buni quyidagicha tasvirlash mumkin:



Zamonaviy metodikalar o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqiladi va ularga asoslangan mashg'ulotlarda birorta o'quvchi chetda qolib ketmaydi, aksincha – hamma ishtirok yetadi, ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar, u to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar, tanqid qilinmaydi. O'quvchi hamkorlik, hamijodkorlikda ishlashda o'zining shaxsiy hissasini qo'shish imkoniyatiga

ega bo‘ladi. O‘zaro bilimlar, g‘oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo‘ladi. Bunday holatlar o‘zaro samimiylilikni ta‘minlaydi, yangi bilimlarni olish, o‘zlashtirishga ishtiyoq kuchayib boradi.

1 va 2-sinflarda “Tarbiya” fani mashg‘ulotlarida interfaol usullardan foydalanish

Albatta, interfaol usullar orqali o‘tiladigan darsning an‘anaviy darslardan farqi katta ekanligi har bir o‘qituvchiga ma‘lum. Ya‘ni, bunday darslarda o‘quvchiga erkinlik muhiti hamda o‘z fikrini erkin bayon yetish imkoniyati yaratiladi. Bu yesa ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda muhim. Bunday imkoniyat ularda o‘ziga bo‘lgan ishonch tuyg‘usini oshiradi, atrofni bilishga intilishini rag‘batlantiradi.



Bunday imkoniyatni qanday yaratish mumkin? Buni, avvalo, o‘quvchiga hyech qanday tazyiq o‘tkazmasdan, uning shaxsiyatiga tegmasdan, savol-javoblar orqali, samimiy va do‘stona munosabat asosida yaratish mumkin.

Ilk boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda interfaol metodlarni tatbiq yetish yo‘llarini 1-sinf hamda 2-sinf Tarbiya fani o‘quv dasturlaridan o‘rin olgan ayrim mavzular misolida ko‘rib chiqamiz.

Masalan, 1-sinf tarbiya fani dasturidan o‘rin olgan “Vatan ishonchi” mavzusini o‘qitishda rasmlardan foydalangan holda “Tez javob” o‘yinidan foydalanish tavsiya yetiladi.

Tez javob o‘yinida o‘qituvchi qator oralab yurib o‘quvchilardan birini turg‘azadi va qo‘lidagi rasmni ko‘rsatadi. O‘quvchi bu rasmdagi predmetning nomini tez topishi va nima uchun bu predmet Vatan bilan bog‘liqligini aytishi lozim. Javob uchgacha sanalguncha aytilishi kerak. Javob bera olmagan o‘quvchi o‘yindan chiqadi. O‘yin toki bir o‘quvchi qolguncha davom yettiriladi. Bunday o‘yin davomida o‘quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof-muhitda sodir

bo'layotgan voqea-hodisalarni sinchkovlik bilan kuzatish kabi ko'nikmalar shakllanadi.

Bu o'yindan "Vatan ishonchi" mavzusi o'tib bo'lingach, uni mustahkamlash qismida yoki dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin.



Yoki. 1-sinf Tarbiya fani dasturidan o'rin olgan "Salomlashish odobi" mavzusini o'qitishda o'qish kitobi, ona tili, matematika fanlari bilan fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish orqali ma'naviy mazmunga ega, kichik maktab

yoshidagi o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lgan o'zbek xalqining ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan topishmoqlari, tez aytishlari, maqollari kabi asrlar davomida sayqallanib kelayotgan xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish asqotadi. Jumladan, topishmoqlar xalq pedagogikasida azaldan muhim tarbiyaviy qurol sanalgan. Topishmoqlar inson umrining oxirigacha, ya'ni dastlab oila, maktab, o'quv dargohlaridan tortib jamoatchilik ichidan o'rganiladigan bilimlarini yanada oshiradi, ruhiy va yestetik jihatdan boyitadi.

Vatanimiz olim va mutaxassislari asarlarida, falsafiy va pedagogik adabiyotlarda o'zbek xalq topishmoqlarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni, jumladan, topishmoqlarda mujassamlashgan xalq donishmandligi saboqlaridan foydalanish masalalariga doir qator ilmiy maqolalar yozilgan bo'lsa-da, bu muammo haligacha fundamental tarzda o'rganilmagan. Topishmoqlar bolaning o'ylash, qiyoslash-taqqoslash, hozirjavoblik, ziyraklik qobiliyatini shakllantirib so'z boyligini oshiradi. Deyarli har bir topishmoq axloqiy mazmunga ega bo'ladi. Tarbiya fani darslarida bitta topishmoqning o'zi dars mavzusi bo'la oladi. Odob-axloq normalarining azaliy ifodasi aks yetgan bunday topishmoqlar yoshlar xotirasida chuqurroq o'rnashadi va yaxshi ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Misollarga e'tibor bering:

*O‘tda yonmas,
Suvga botmas,
Yerda chirimas (to‘g‘rilik).*

Osmondan buyuk (maqsad).

Bir to‘kilsa qayta to‘lmas (obro‘, nomus).

O‘zi farz, bebismillo (salom berish).

*O‘t emas, kuydirar,
Pichoq emas, so‘ydirar (yolg‘on so‘z).*

*Zarga sotilmas,
Zo‘rga topilmas (vaqt).*

Qadimul avvaldan xalqimizda ma’naviy-axloqiy tarbiyaga alohida ahamiyat berilganligi bois odob-axloq, tarbiya haqidagi hikmatli, dono fikrlar, qarashlar topishmoqlar mazmuniga singib ketgan. Shuning uchun ham topishmoqlarni ta’lim-tarbiya modellarining hamma turida keng qo‘llash maqsadga muvofiq.

Kichik guruhlariga bo‘linib ishlashda aqliy hujum, bahs-munozara, charxpalak kabi usullardan foydalanilganda topishmoqlar e’tibor qaratiladigan asosiy obekt qilib olinsa maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilar diqqatini jamlash uchun ham sinfga jumboq tashlab, samarali natijaga erishish mumkin.

Birinchi sinf Tarbiya fani dasturidan o‘rin olgan “Mening orzuim” mavzusini o‘qitishda “Kichik guruhlarda ishlash” usulidan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligini ta’minlaydi, har bir o‘quvchining munozarada qatnashish huquqini va bir-biridan o‘rganish imkonini beradi. Ana shunday amaliyot kelgusida o‘quvchilarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishlari, qaysi sohada bo‘lmasin, jamiyat uchun kerakli kadr bo‘lib yetishishlariga muayyan darajada ko‘mak beradi. Shuningdek,

o'quvchilarning darsga qizg'in tayyorgarlik ko'rishiga, ular o'rtasida o'zaro hamkorlik, yordam uyushtirilishiga ham zamin hozirlaydi.

O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir kichik guruhda 5-6 nafar o'quvchi bo'ladi. Kichik guruhlariga kasb yoki hunar nomi beriladi:

Ushbu mavzuni o'qitishdan bir dars avval o'qituvchi tomonidan kichik

KICHIK GURUHLARDA ISHLASH

Ziyolilar guruhi

Shifokorlar guruhi

Quruvchilar guruhi

Fidoyilar guruhi

Iqtisodchilar guruhi

guruhlariga ularga berilgan nomidan kelib chiqib, ushbu tanlangan kasb yoki hunar to'g'risida ma'lumot to'plashni topshiradi. Navbatdagi darsda o'quvchilar guruh a'zolarining to'plagan ma'lumotlarini jamlab turib, o'zlariga berilgan kasb, hunar haqida hikoya qilib beradilar. O'qituvchi ularning hikoyasini tinglab, yakunida yangi ma'lumotlar bilan boyitadi. Shu tariqa o'quvchilarning "Mening orzuim" mavzusi bo'yicha taqdimotlari qilinadi va ular o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Yendi 2-sinf tarbiya fanini o'qitishda innovasion texnologiyalarni tatbiq yetish yo'llarini ushbu sinflarda o'qitiladigan va Tarbiya fani dasturidan o'rin olgan ayrim mavzular misolida ko'rib chiqamiz.

2-sinf tarbiya fani dasturidan o'rin olgan "Ziyorat odobi" mavzusini o'qitishda "Tarmoqlar" (klaster) usulidan foydalanish mumkin. Bu usulning ma'nosi – fikrlarning tarmoqlanishi bo'lib, klaster usuli 2-sinf



o'quvchilarini ushbu mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi. O'quvchilar klasterning maketini tayyorlab, markaziga "O'tmishda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz" deb yozib qo'yadi. O'quvchilar

navbat bilan o‘zlari bilgan allomalarning nomini aytib tarmoqlashni davom ettiradilar. O‘quvchilarning fikrlari jamlanib bo‘lgach, o‘qituvchi ushbu allomalar merosi haqida kengroq hikoya qiladi.

Yoki, masalan, 2-sinf tarbiya fani dasturidan o‘rin olgan “Sog‘ tanda sog‘lom aql” mavzusini o‘qitishda xalq maqollaridan unumli foydalanib, maqollar asosida “Jumlani davom yettiring” usulini qo‘llash tavsiya yetiladi.

Ushbu usulni qo‘llash jarayonida o‘qituvchi sihat-salomatlik, sog‘liqni saqlash haqidagi xalq maqollarining birinchi qismini aytadi, o‘quvchilar uni davom ettiradilar. Masalan: o‘qituvchi: –Sog‘ tanda... , desa o‘quvchilar –sog‘lom aql, deb davom yettirishadi, –Salomatlik..., desa –tuman boylik, tarzida davom yettirishlari lozim. Jumlani to‘g‘ri davom yettirgan o‘quvchiga rag‘bat kartochkasi berib boriladi. Yeng ko‘p rag‘bat kartochkasi to‘plagan o‘quvchi g‘olib chiqadi. Dars yakunida o‘qituvchi dars davomida ishlatilgan maqollarning mazmunini tushuntirib beradi.

Bu metod o‘quvchilarda ziyraklik, donolik va topqirlikni tarbiyalash bilan bir qatorda ularda so‘zlarning mazmun-mohiyatini anglab yetish ko‘nikmasining shakllanishiga va so‘z boyliklarini oshirishga yordam beradi.

3 va 4-sinflarda Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida interfaol usul va metodlardan foydalanish

Boshlang‘ich sinflarda Tarbiya darslari o‘quvchilarning olamni bilishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. O‘qituvchi mashg‘ulotlarda sxemalar, jadvallar, tarqatma materiallar, turli mashqlardan foydalansa dars samaradorligi oshadi. Ular o‘quvchilarda ziyraklik, topqirlik, qiziquvchanlik fazilatlarini rivojlantiradi.

3-sinfda Tarbiya fanini o‘qitishda innovasion texnologiyalarni tatbiq yetish yo‘llarini ushbu sinflarda o‘qitiladigan Tarbiya fani dasturlaridan o‘rin olgan “Serquyosh hur o‘lka”, “Yeng buyuk sharaf”, “Ozodalikni xonamizdan boshlaymiz” kabi mavzular misolida ko‘rib chiqamiz.

3-sinfda Tarbiya fani dasturidan o‘rin olgan “Serquyosh hur o‘lka” mavzusini o‘qitishda “Beshinchisi ortiqcha” usulini qo‘llash tavsiya yetiladi.

Ushbu mavzuni o‘qitish jarayonida “Beshinchisi ortiqcha” usulidan quyidagi tarzda foydalanish mumkin. Bunda o‘qituvchi doskaga mavzuga oid



to‘rtta so‘z va mavzuga oid bo‘lmagan beshinchi so‘zni yozadi. Masalan:

Istiqlol, hurriyat, farzand, ozodlik, obodlik – o‘quvchilar mavzuga oid bo‘lmagan, ya’ni ortiqcha bo‘lgan beshinchi so‘zni topadilar. O‘qituvchi shu tariqa so‘zlar ketma-ketligini yozishda, o‘quvchilar yesa ortiqcha so‘zni topishda davom yetadilar.

Bu usul 3-sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llashlariga imkon yaratadi.

3-sinf Tarbiya fani dasturidan o‘rin olgan “Yeng buyuk sharaf” mavzusini o‘qitishda qo‘llash mumkin bo‘lgan interfaol usullardan yana biri - “Guldasta”. Ushbu usulning shunday atalishiga sabab guldasta alohida gullardan tashkil topgani kabi unda har bir kichik guruh umumiy muammoning bir jihatini hal yetish bilan shug‘ullanadi. “Guldasta” usulida o‘qituvchi dars taxtaga umumiy muammo va uni yechishda foydalaniladigan kalit so‘zlarni yozib qo‘yadi. Mavzuni guldasta usuli asosida o‘rganishda o‘quvchilar oldiga ona yurt, yurtni sevish, ota bobolar yurti, yurtni asrash, yurtni sotganlar qismati kabi kalit so‘zlar qo‘yiladi. Ikkinchi bosqichda uch kichik guruhga bo‘lingan o‘quvchilar oldiga eng buyuk sharaf deganda nimani tushunamiz, Ona yurtni sevishimiz sababi, Yurti asrash yo‘llari kabi muammolar qo‘yiladi. Uchinchi bosqichda har bir kichik guruh asar matniga tayanib, o‘z oldida turgan muammo yuzasidan imkon qadar ko‘p kalit so‘zlar, ko‘chirmalar, fikrlar topadi. To‘rtinchi bosqichda topilgan kalit so‘zlar, ko‘chirmalar, muammo yechimiga doir fikrlar o‘rtasidagi bog‘liqlik belgilanadi. Har bir kichik guruh o‘z

muammosi bo'yicha izlanishlarni tugallagach, topilgan yechimlarni o'qituvchi va boshqa guruhdagilarga taqdim yetadilar.

Bir so'z bilan aytganda, o'quvchi-yoshlar dars jarayonida o'z fikrlarini, g'oyalarini aytishdan cho'chishmasa, serg'ayrat, shijoatli bo'lishsa, o'zgalarni fikrini hurmat qila olishsa, darslar o'z samarasini berishi aniq.

3-sinf Tarbiya fani dasturidan o'rin olgan navbatdagi "Ozodalikni xonamizdan boshlaymiz" mavzusini o'qitishda "Insert" usuli yaxshi samara beradi.

4-sinfda Tarbiya fanini o'qitishda innovasion texnologiyalarni tatbiq yetish yo'llarini ushbu sinflarda o'qitiladigan Tarbiya fani dasturidan o'rin olgan "Vatan madhi", "Barcha insonlar qonun oldida tengdirlar" mavzulari misolida qo'rib chiqamiz.

Masalan, 4-sinf Tarbiya fani dasturidan o'rin olgan "Vatan madhi" mavzusini o'qitishda turli mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, "Yeslab qol" mashqi. O'qituvchi



O'zbekiston viloyatlari va ularning markazlari nomini aytadi. O'quvchilar daftarga o'zlari yeslab qolgan viloyatlar va viloyat markazlari nomlarini yozadilar. So'ng o'qituvchiga o'qib beradilar, o'qituvchi ularni to'ldiradi. Mashq shu tariqa davom yettiriladi. Bu bir tomondan o'quvchilarning xotirasini mustahkamlashga yordam bersa, ikkinchi tomondan ularni zehnli bo'lishlariga ko'mak beradi.


Bundan tashqari, ushbu sinf Tarbiya fani dasturidan o'rin olgan "Barcha insonlar qonun oldida tengdirlar" mavzusini o'qitishda "Baliq skeleti" texnologiyasini qo'llash mumkin.

Ushbu texnologiya baliq modeli chizmasi orqali namoyish yetilib, bunda o'quvchilar o'rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. O'qituvchi tomonidan Baliq skeleti chizmasi

vatmanga chizilib, uning tepa qismiga yechilishi kerak bo'lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga yesa muammoni hal yetilish yo'llari yozib boriladi.

Masalan “Barcha insonlar qonun oldida tengdirlar” mavzusini o'qitishda “Qanday huquq va burchlarimiz bor?” muammosi qo'yilsa, bolalar o'z fikrlari bilan –Baliq skeletini boyitib boradilar.

“Qanday huquq va burchlarimiz bor?”



Ushbu usul orqali o'quvchilar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o'rgatib boriladi.

5-9-sinflarda Tarbiya fanini o'qitishda interfaol usul va metodlarni tatbiq yetish

Yuqoridagi singari, 5 va 6-sinflarda Tarbiya fani dasturidan o'rin olgan ayrim mavzularni o'rganishda interfaol usul va metodlarni qo'llashga doir misollarni keltiramiz.



Aytaylik, 5-sinf dasturidagi “Vatanga muhabbat” mavzusini o'rganishda zamonaviy shaklda mashg'ulot o'tkazuvchi novator o'qituvchiga “Menyu” metodidan foydalanishni tavsiya yetish mumkin. O'qituvchi o'quvchilar (yoki har bir guruh)ga mavzu doirasida alohida topshiriq beradi.

Vatan – sajdagoh kabi muqaddas.

Vatanni asrash, uni qo'riqlash – burchimiz.

Vatanparvar bo'laylik.

Vatan haqida hikmatlar.

Har bir guruh topshiriq oladi va 3 daqiqa davomida muhokama qiladi, so'ngra har guruhdan bittadan vakil o'qituvchi stoliga kelib, tayyor menyuni olib qaytadi. Bu uzun qirg'ilgan qog'ozlar - tillar bo'lib, ularda xilma-xil huquq normalari, yuqoridagi savollarga javoblar bayon qilingan bo'ladi. Guruh vakili tillardan tanlab oladi va o'z guruhiga olib keladi, keyin boshqa o'quvchi shu ishni bajaradi va zaruriy materiallar yig'ilguncha bu holat davom yetadi. Besh daqiqa davomida topshiriq muhokama qilinadi va chizmalashtiriladi. Bu jadval qo'lda tayyorlanishi ham mumkin yoki javoblar og'zaki ham bo'lishi mumkin. Boshqa guruh vakillari savollar berishadi, o'qituvchi yesa guruh ishlarini, sardor faoliyatini baholab boradi.

Menu metodi orqali o'quvchilarning Vatan haqidagi tasavvurlarini o'rganish barobarida ularning ushbu mavzudagi bilim va ko'nikmalarini yanada boyitish imkoniyati paydo bo'ladi.

Yoki, masalan, 5-sinf Tarbiya fani dasturidan o'rin olgan qator mavzularni, aytaylik, "Ona tabiatni asrash - bizning burchimiz" mavzusini o'qitishda "Tushunchalar tahlili" metodidan foydalanish tavsiya yetiladi.

Misol uchun:

Tushunchalar	Ularning ma'nosi	Qo'shimchangiz
Flora		
Fauna		
Qurg'oqchilik		
Toza hudud		
Muzlik		
Hosildor yerlar		

“Tushunchalar tahlili” metodini qo‘llashdan avval o‘qituvchi ushbu shakldagi (yoki shunga o‘xshash) tarqatma materiallarni guruhlariga taqdim qiladi va unga nimalar yozish zarurligini tushuntiradi. O‘quvchilar yesa ushbu tushunchalarning mazmun-ma’nosi haqida yozma yoki shartli belgilar tarzida bayon qiladilar. Belgilangan vaqt yakunida o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib yeshittiradi yoki slayd orqali namoyish yetadi. Ishtirokchilar to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy nuqtai nazarlarini qiyoslab, farqlarini aniqlaydilar, o‘zlarining bilim darajasini tekshirib, baholaydilar.



Albatta, sinflar yuqorilashib borgan sari o‘quvchilarning yosh xususiyatlari ham o‘zgarib borishi hammaga ma’lum, shu boisdan mashg‘ulotlarda interfaol usul va metodlarni qo‘llashda avvalo o‘quvchilarning yoshi, ularning aqliy salohiyatini ham e’tiborga olish zarur. Masalan, 6-sinfdagi o‘quvchilar ancha ulg‘aygan, o‘z fikri, dunyoqarashiga ega bo‘la boshlagan o‘quvchi yoshlardir. Ular bilan mashg‘ulotlarga alohida yondashuv zarur bo‘ladi.

6-sinf Tarbiya fani dasturidagi “Bilim ol, kasb-hunar tanla” mavzusini yoritishda “Davra suhbatlari” metodi mos keladi.

O‘z nomi bilan davra suhbatlari metodi o‘quvchilarning aylana stol atrofida savollar bo‘yicha javob tariqasida fikr-mulohaza bildirishga asoslangan ta’lim metodidir. Bunda stol-stullar doira shaklida joylashtiriladi. “Bilim ol, kasb-hunar tanla” mavzusini yoritishda og‘zaki metoddan foydalanish maqsadga muvofiq. Avval o‘qituvchi mavzuni boshlab beradi, o‘quvchilardan savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir o‘quvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon yetadi. So‘zlayotgan o‘quvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu yesa

o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga ham yordam beradi.

Davra suhbatlari o‘quvchilarga birmuncha tanish yoki yaqin mavzularda o‘tkaziladi. Davra suhbat mavzusi o‘quvchilarga bir necha kun oldin ma’lum qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Davra suhbatining afzalligi shundaki, har bir o‘quvchi individual tayyorgarlik ko‘radi.



Ishtirokchilar davra suhbatini o‘tkazishga tayyorgarlik bilan keladilar. Davra suhbatining yana bir afzalligi shundaki, har bir o‘quvchi o‘z bilimini, og‘zaki nutqini, shaxsiy fikrini yemin-erkin namoyish yetishiga muhit yaratiladi. Bunda

o‘quvchi bilan birgalikda o‘qituvchining ham shaxsiy mas’uliyati oshadi, ham o‘qish, ham o‘rgatish yonma-yon davom yetadi. Materialni o‘qish, o‘rganish o‘zaro fikr almashishga, o‘zlashtirishga imkon beradi. Bilim olish, uni o‘zlashtirish kafolatlanadi.

6-sinf Tarbiya fani dasturiga kiritilgan “Do‘stlik va mehr-oqibat” mavzusini yoritishda “T-jadval”dan foydalanish tavsiya yetiladi. O‘qituvchi ishtirokchilarga T-jadvalni to‘ldirish tartibini tushuntiradi, uni to‘ldirish uchun muayyan vaqt belgilaydi. O‘quvchilar ajratilgan vaqt mobaynida yakka tartibda yoki juftlikda jadvalni to‘ldirib, mos ravishda belgilar qo‘yadilar.

T- JADVAL

Sadoqatli do‘st	Xususiyatlari	Sadoqasiz do‘st
	1. Siz bilan faxrlanib yuradi. 2. Orqangizdan g‘iybat qiladi. 3. Sizni har doim to‘g‘ri tushunadi. 4. Mushkulingizni engillatadi. 5. Siz haqingizda qayg‘uradi. 6. Sirlaringizni boshqalarga aytadi. 5. Sizni ko‘proq tinglaydi.	

	6. Faqat o‘zi gapiradi. 7. Sizga doim yordam beradi. 8. Ruxsasiz narsalaringizni oladi. 9. Qilgan yaxshiligini pesh qiladi. 10. Og‘ir damlarda yoningizda bo‘ladi. 11. Siringizni saqlaydi. 12. Xatolaringizni kechirmaydi. 13. Sizga yaxshi muomalada bo‘ladi. 14. Ko‘proq o‘zini maqtaydi. 15. Kamchiliklaringizni kechiradi. 16. Kamchiliklaringizni boshqalarga aytib yuradi.	
--	---	--

Hozirgi kunda interfaol metodlarning ta’lim jarayoniga keng joriy yetilayotganligi, birinchidan, davr taqozosi bo‘lsa, ikkinchidan, ta’lim islohotlaridan kutilayotgan natijani ta’minlovchi muhim omildir. Mas’uliyatni butun borlig‘icha his yetib, o‘z ustida muntazam ishlashga o‘rgangan fidoyi o‘qituvchilar o‘z faoliyatida interfaol metodlarni keng ko‘lamda tatbiq etmoqdalar.

Dars turidan qat’iy nazar, uning maqsadiga erishish – o‘qituvchining eng muhim fazilati, buning uchun o‘qituvchi o‘zining mahorati, aqliy salohiyatini safarbar yetishi, ilg‘or pedagogik tajribadan unumli foydalanishi, novatorlik xususiyatlarini namoyon yeta olishi darkor.

7-sinfda Tarbiya fanidan “Inson yezgulik ijodkori” mavzusini o‘tishda



Sinkveyn, “Ko‘zga ko‘rinmas xatarlar” mavzusini o‘tishda T-sxema, “Inson axloqi bilan go‘zal” mavzusini o‘tishda “Nima uchun?” degan usullardan;

9-sinfda “Millatlararo hamjihatlik” mavzusini o‘rganishda FSMU,

“Tabiat va inson” mavzusini O‘qitishda “Muammo”, “Tushkunlik va

besaramjonlikni boshqarish” mavzusini yoritishda “Tanqidiy fikrlash” usullaridan;

9-sinfda “Ulug‘imsan, Vatanim” mavzusini o‘tishda “Rezyume” usulidan foydalanish tavsiya yetiladi. Har bir mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda ta’lim texnologiyasi tanlab olinadi.

Shuningdek, 5-9 sinflarda Tarbiya fanini o‘qitish samaradorligini hamda ta’sirchanligini oshirish maqsadida quyidagi asosiy talablarga rioya yetish zarur:

Tarbiya faniga xos bo‘lgan insonparvarlik mohiyatni ifodalash asnosida milliy mustaqilligimiz eng aziz, eng muqaddas qadriyat ekanligini, uni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimiz ekanligini o‘quvchilarning ongi va qalbiga chuqur singdirish;

o‘quvchilarda vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirish, illatlarga murosasizlik, qat’iyat, shijoat, iroda va boshqa fazilatlarni shakllantirish, ta’lim-tarbiya jarayonida umuminsoniylik ustuvorligi tamoyillariga og‘ishmay amal qilishga alohida e’tibor berish;

dars ishlanmalarini tayyorlash va mashg‘ulotlarni olib borishda pedagogik-psixologik me’yorlarga jiddiy ahamiyat berish, bunda o‘quvchilarning yoshi, tafakkuri, dunyoqarashi va qiziqishlarini e’tiborga olish;

Tarbiya fanini o‘qitish jarayonini muntazam kuzatish, tahlil qilish asnosida uni ilg‘or shakl va usullar bilan takomillashtirib borish va h.k.

DARSLARDA INTERFAOL METODLAR, IBRATLI HIKOYALAR VA HIKMATLARDAN FOYDALANISH

Ma'lumki, Tarbiya, avvalo, didaktik fandır. Uning pirovard maqsadi o'quvchi yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ular ongi va qalbida umuminsoniy va milliy qadriyatlar hamda shular asosida komil insonga xos fazilarlarni shakllantirishdan iborat. Ushbu fanni o'qitishdan kutilgan natija – yuqori samaraga erishish esa shak-shubhasiz, o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Shu nuqtai-nazardan Tarbiya fanidan dars beruvchi o'qituvchi shaxsiy hayotida barchaga ibrat namunasi bo'lishi barobarida o'zining bilimdonligi, o'tmish ma'naviy merosidan, buyuk ajdodlarimiz ta'limotidan, asrlardan buyon ardoqlab kelinayotgan qadriyatlarimizdan yaxshi xabardor bo'lishi, notiqligi, yoshlar tarbiyasiga ta'sir ko'rsata oladigan ibratli hikoyalar, hikmatlarni bilishi, mashg'ulotlarda ulardan o'rinli foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi bilan ajralib turishi lozim.

Quyida Tarbiya fani mashg'ulotlarida foydalanish mumkin bo'lgan ayrim ibratli hikoyalar va hikmatlardan namunalar keltirishni lozim topdik. Albatta, har bir sinf kesimida darslar jarayonida ko'plab ibratli hikoyalar, hikmat namunalaridan foydalanish mumkin. Bu o'qituvchining izlanishlariga, ibratli rivoyatlar, hikmatlar, maqollar, matallar va dono xalqimiz ijodining namunalaridan saralab olib, ulardan oqilona foydalana olishiga bog'liq. O'ylaymizki, bunday yondashuv mashg'ulotlar sifati va mazmunini albatta oshiradi, pedagogik mahorat qirralarini yanada sayqallashtiradi.

2-sinf Tarbiya fanida “Birlashgan o‘zar” degan mavzuga doir hikoya

Birlashgan kuch engar

Taqdir taqozosi bilan ikki inson tor ko'prikdan o'tishlariga to'g'ri keldi. Ulardan birining ko'zi ojiz, ikkinchisi cho'loq ekan.

- Men bu ko'prikdan o'ta olmayman, chunki ko'zim ko'rmaydi, - debdi ko'zi ojiz kishi.

- Men ham o'ta olmayman, oyog'im xasta, - debdi unisi.

- Bo‘lmasa kel, sen mening yelkamga chiq, men seni ko‘tarib o‘taman, sen esa menga yo‘l ko‘rsatasan, - debdi ko‘zi ojiz.

Shu tariqa ular ko‘prikdan o‘tib, manzilga yetib olishibdi. “Birlashgan kuch engar” deganlarining ma’nosi - shu.

*2-sinf Tarbiya fanida “Qarisi bor uyning parisi bor” yoki 3-sinfda
“Qari bilganni pari bilmas” degan mavzularga doir hikoya*

Qari bilganni pari bilmas

Bir kuni ko‘chada sayr qilib yurgan kishi yo‘l chetida o‘tirgan keksa odamni ko‘rib qoldi. U mo‘ysafidning qarshisiga kelib, murojaat qildi:

– Otaxon, ulug‘ yoshli inson ekansiz, anchagina uzoq hayot yo‘lini bosib o‘tgansiz. Shubhasiz, juda dono bo‘lsangiz kerak. Ayting-chi, mana, men yosh va kuchliman-u, ammo hyech qayerdan ish topa olmayapman, farzandlarimni ham yaxshi tarbiyalay olmayapman, ro‘zg‘orimda ham yetishmovchilik ko‘p. Xo‘sh, men bu vaziyatda qanday yo‘l tutishim kerak? Nima qilsam, bularning hammasini o‘zgartira olaman?

Qariya javob berdi: – Eshiging ustiga kichkinagina taxtacha osib, unga “Hamisha shunday bo‘lavermaydi” deb yozib qo‘y.

– Shu xolosmi? – hayron bo‘ldi erkak.

– Shu xolos, – javob qildi keksa kishi.

U uyiga borib, qariya aytgandek qildi. Bir qancha vaqt o‘tgach, farzandlar tarbiyasi ham yaxshi tomonga o‘zgara boshladi. Erkakning o‘zi esa serdaromad ishga joylashdi, ro‘zg‘ori but bo‘ldi, hatto mashina sotib oldi.

Kunlarning birida u tanish ko‘chadan o‘tib borayotib, ikki -yilcha oldin keksa mo‘ysafidni uchratgan joyida to‘xtadi. Qariya hali ham shu yerda o‘tirgandi. Erkak uning oldiga yaqinlasharkan, mashinadan tushmagan holda, uning oynasini ochib, so‘z qotdi:

– Ha, boboy, haliyam o‘tiribsizmi? Men bo‘lsa, ko‘rib turganingizdek, ancha narsaga erishdim. Ishga joylashdim va endi ishxonamda martabali boshliqman. Siz esa haliyam o‘shandek o‘tiribsiz, no‘noq chol! Xo‘sh, endi menga nima deb maslahat berasiz?

Bu gaplardan qariyaning chehrasi o'zgarmadi, aksincha, u suhbatdoshiga xotirjam tikilgancha, dedi:

– Haligi taxtacha bor edi-ku, shuni olib tashlamagin...(ruschadan M.Sharifova tarjimasi).

4-sinf Tarbiya fanida “Tilga hurmat – elga hurmat” yoki 8-sinfda “Til bilgan – dunyo ko‘radi” degan mavzularga doir hikoya.Mavlono Jaloliddin Rumiy hikmati

Mavlono Jaloliddin Rumiy o‘zining “Uzum haqida masal”ida til bilmaslik oxir-oqibat noxush holatlarga olib kelishini ta’kidlaydi. Ma’lumki, forsiyda uzumni “angur”, arabchada “eynab”, yunonchada “stafil” deb atashadi. Masalda aytilishicha, turk, arab, fors va yunon millatidan bo‘lgan to‘rt nafar yo‘lovchiga bir saxiy odam tanga hadya etadi. Forsiy tilda so‘zlashuvchi yo‘lovchi ushbu pulga bozordan angur sotib olishni taklif qiladi. Arab esa eynab yoyishni xoxlayman, deb turib oladi. Turk uzum olamiz, desa yunon stafil yoylik, degan taklifni bildiradi. Bir-birini tushunmagan to‘rt yo‘lovchi oxiri janjallashib qoladi, aslida ular bir narsani xoxlagan edilar. Ushbu masalda kuchli mantiq borligini anglash qiyin emas.

5-sinf Tarbiya fanida “Har bir inson hurmatga loyiq” degan mavzuga doir hikoya

Aytmoqchi bo‘lganingni oldin uch elakdan o‘tkazib ol

Bir kishi Suqrotning oldiga kelib gap boshlabdi:

- Bilasanmi, do‘sting sen haqingda menga nima dedi?

- To‘xta, shoshmay tur, – deya Suqrot uni to‘xtatdi. - Aytmoqchi bo‘lganingni oldin uch elakdan o‘tkazib ol.

- Qanaqa elak?

- Biron bir gapni birovga aytishdan oldin uni uch marta elakdan o‘tkazishga harakat qilgin. Birinchi bo‘lib Haqiqat elagidan o‘tkazib ol. Aytmoqchi bo‘lgan narsang rost ekanligiga aminmisan?

- Yo‘q, men faqat eshitdimki...

- Ya’ni, bu haqiqat yoki yo‘qligini aniq ayta olmaysan. Ikkinchi elak - bu Mehr elagi. Do‘stim haqida yaxshi gap aytmoqchimisani?

- Yo‘q. Bunday emas...

- Sen rost yoki yolgʻonligini ham bilmay turib doʻstim haqida yomon gap aytishni xohlayapsan. Unda soʻzlaringni uchinchi - Foyda elagidan oʻtkazib ol. Menga aytmoqchi boʻlgan narsalaringni haqiqatan ham bilishim kerakmi?

- Yoʻq... Aslo yoʻq.

- Demak, bu gaplarda na Haqiqat, na Mehr va na Foyda bor ekan. Aytginchi, kerak boʻlmagan narsalar haqida soʻzlash zarurmikan? Yaxshisi aytmay qoʻya qol. Bilib qoʻy: har bir inson hurmatga loyiq, - debdi Suqrot.

6-sinf Tarbiya fanida “Doʻstlik va mehr-oqibat” degan mavzuga doir hikoya

Chin doʻst boshga tashvish tushganda bilinadi

Biroz pulga muhtoj boʻlib qolgan bir kishi yordam soʻrab doʻstining uyiga bordi va eshigini taqillatdi. Doʻsti chiqib, u bilan koʻrishdi, hol-ahvol soʻrab uyga taklif qildi.

- Doʻstim, uzr, vaqtim juda ziq. Menga biroz pul kerak boʻlib qoldi, iloji boʻlsa, yordam bersang degandim.

Uy egasi darhol ichkaridan pul olib chiqib, doʻstiga berdi va:

Doʻstim, agar biror narsaga muhtoj boʻlib qolsang, mendan yashirma, senga har doim qoʻlimdan kelganicha yordam berishga tayyorman, - deb uyiga qaytib kirdi va yigʻladi. Xotini buning boisini soʻraganda, u shunday deb javob berdi:

Doʻstim pulga muhtoj boʻlib qolganini bilmaganimga achinib yigʻlayapman. U yonimga kelmasdan oldim men uning oldiga borib, “biror narsaga muhtoj emasmisan”, deb soʻrashim kerak edi, afsus, gʻaflatda qolibman.

Qissadan hissa: Ha, haqiqiy doʻstlar bir-biridan hyech narsani ayamaydilar. Dono xalqimiz “Chin doʻst boshga tashvish tushganda bilinadi”, deb bejiz aytmagan.

6-sinf Tarbiya fanida “Bilim ol, hunar tanla” yoki 8-sinfda “Vaqt – bebaho neʼmat” degan mavzularga doir hikoya

Umring behuda oʻtmasin

Bir odam bir necha -yillar mobaynida bir metrdan ipni uloqtirib, ignaning teshigiga solishni oʻrganibdi. Shu “hunar”ni odamlarga koʻrsatib, kun kechirar ekan. Uning ovozasi podshohga ham yetib boribdi. Podshoh “hunar”ni koʻrib, yuz tillo beribdi va yana yuz darra urishni buyuribdi. Buning maʼnosini soʻrashsa, podsho: - Uning mahoratiga yuz tillo berdim,

umrini behuda o‘tkazgani uchun esa yuz darra urishni buyurdim, - degan ekan.

Qissadan hissa: vaqtingni hyech kimga nafi tegmaydigan amallarga sarflab, umringni behuda o‘tkazma. Yunon donishmandi Suqrot aytadi: “O‘zini anglagan inson hayotda nimalarga qodir ekanligi va nima foydali ekanligini yaxshi biladi. U qo‘lidan keladigan ish bilan shug‘ullanish asnosida o‘z ehtiyojini qondiradi va saodatga erishadi. Har qanday xato va baxtsizliklardan xoli bo‘ladi. Buning natijasi o‘laroq, u o‘zga odamlarni qadrlay oladi va ulardan ezgulik yo‘lida foydalana biladi. Oqibatda o‘zini kulfatlardan asraydi”.

7-sinf Tarbiya fanida “Inson axloqi bilan go‘zal” degan mavzuga
doir hikoya

Farosatli bola

Xorun ar-Rashid bir kuni Bag‘dod ko‘chalarining biridan o‘tib ketayotib maktabdan uylariga qaytayotgan bolalarni uchratib qoldi. Ulardan birining o‘z o‘rtoqlariga qilgan xush muomalasi, dono-dono so‘zlari xalifaning diqqatini jalb etdi, uning aqlli, farosatli va ziyrak bola ekanini anglab, darhol yoniga chaqirib oldi va ardoqlab, boshini silab-siypab unga bir oltin berdi. Bola xalifaning hadyasini qabul qilmay, o‘rtoqlari yoniga keta boshladi. Xalifa uni to‘xtatib:

O‘g‘lim, nega hadyamni olmading, xalifalarning in‘omini rad etish odobsizlik emasmi? – dedi. Bola:

Gapingiz to‘g‘ri, lekin otamning “Xalifalar bir odamga hadya bermoqchi bo‘lsalar, bitta emas, ko‘p oltin beradilar”, degan so‘zlari yodimga tushdi. Hozir siz bergan bitta oltinni olib, uyga borganda otamga “Xalifamiz berdilar”, deb ko‘rsatsam, ularda shubha paydo bo‘ladi, “Yolg‘on gapirma, Xorun ar-Rashidning xalifa bo‘la turib senga bir oltin berishi mumkin emas, sen nodon, albatta, birovning oltinini o‘g‘irlab olib kelgansan, darrov egasini topib, uzr so‘rab, oltinini qaytarib ber. Oltin egasi yoshligingni nazarda tutib, gunohingni kechiradi”, deb mendan norozi bo‘lishadi, - dedi.

Xalifa Xorun ar-Rashid bu aqlli, farosatli, ziyrak bolaning bir-biridan go‘zal so‘zlarini eshitib zavqlandi, uning boshini silab, peshonasidan o‘pdi,

kitob solgan xaltasini oltin bilan to'ldirib unga hadya qildi, ertasi kun shu ziyarak bolani yo'qlab, huzuriga keltirib, o'z tarbiyasiga oldi.

8-sinf Tarbiya fanida "Ilm va zakovat" degan mavzuga doir hikmatlar

O'tkir aql va teran fikr ehtiyoji

Inson ilm olishdan to'xtamasligi kerak, zero ilm – insonning hayotdagi doimiy hamrohi bo'lmog'i lozim. Muborak hadislarda aytilganidek, "Beshikdan qabrgacha ilm izla", chunki ilm barcha kulfatlarga qalqon, inson dunyoni qanchalik ko'p bilsa, o'zligini ham shunchalik anglab boradi. Ilmi yo'q inson – eng ojiz va notavon insondir.

"Qanday odamni baxtli sanamoq mumkin?" degan savolga buyuk donishmand Suqrot shunday javob bergan:

- O'tkir aql va teran fikr egasi baxtiyor insondir".

Darhaqiqat, ulug' mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy "Yigitlikda yig'ilmning mahzani, qyeksalik chog'i xarj qilg'il ani", deb bejiz aytmagan.

11-sinf Tarbiya fanida "Halollik vaksinasi" degan mavzuga doir hikoya

Pok vijdonli qiz

Xalifa Umar (r.a.) kechasi ko'chada sayr qilib yurardi. Bir uyning yonidan o'tarkan, hovlida uy bekasining qizi bilan janjallashayotgan ovozi eshitildi. Ayol qiziga achchiqlanib:

Men bilan tortishma. Ertaga sotiladigan sutimizga suv qo'shishni unutm, - dedi. Qiz:

Axir xalifa Umar hamma sutchilarga sutga suv qo'shib sotmaslik haqida ko'rsatma berganlar-ku, unutdingizmi? – dedi.

Ko'p gapirma, suv qo'sh dedimmi, qo'shaver, Xalifa Umar bilmaydi, - dedi achchiqlanib qizning onasi.

Onajon, buni xalifa koʻrmasa ham vijdonimiz koʻrib turibdi-ku, unga qarshi ish qilmaylik, - deb onasiga iltijo qildi qiz.

Xalifa qizning soʻzlaridan zavqlanib, saroyga qaytdi. Keyinroq shu halol, pok niyatli qizni oʻgʻliga kelin qildi.

Qissadan hissa: baxtli boʻlishni istasang, halol boʻl!

Nazorat savollari

1. *Interfaol taʼlimning afzalliklarini ayting.*
2. *Interfaol darslar qanday tayyorlanadi? Uni oʻtkazish shart-sharoitlarini tushuntiring.*
3. *Boshlangʻich sinflarda interfaol mashgʻulotlarni oʻtkazish qanday samara beradi?*
4. *Boshlangʻich sinflarda Tarbiya fani boʻyicha dars berish jarayonida oʻqituvchilar har bir mavzuga ijodiy yondashgan holda qanday jihatlarga alohida eʼtibor berishlari zarur?*
5. *Ilk boshlangʻich sinflarda Tarbiya fanini oʻqitishda interfaol metodlarni tatbiq yetishning qanday yoʻllarini bilasiz?*
6. *3-4 sinflarda Tarbiya fanini oʻqitish jarayonida interfaol usul va metodlarning qoʻllashning oʻziga xos jihatlari nimada?*
7. *3-4 sinflarda Tarbiya fanini oʻqitishda innovasion texnologiyalarni tatbiq yetish yoʻllariga misollar keltiring.*
8. *3-4-sinf Tarbiya fanini oʻqitishda qanday interfaol usul va metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq?*
9. *Boshlangʻich sinflarda interfaol usul va metodlarni qoʻllashda oʻquvchilarning qanday psixologik xususiyatlarini eʼtiborga olishlari zarur?*
10. *5-9 sinflarda Tarbiya fanini oʻqitish samaradorligini hamda taʼsirchanligini oshirish maqsadida qanday asosiy talablarga rioya yetish zarur?*
11. *5-sinfda Tarbiya fanini oʻqitishda “Tushunchalar tahlili” metodini qoʻllashning oʻziga xos jihati nimada?*
12. *5-sinfda Tarbiya fanini oʻqitishda “Menyu” metodini qoʻllash tartibini tushuntiring.*

13. 6-sinfda Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida interfaol usul va metodlarni qo‘llashda birinchi navbatda nimalarni e’tiborga olish muhim deb hisoblaysiz?

14. 6-sinfda Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida “Davra suhbat”, “T-jadval” metodlaridan foydalanish tartibi va ahamiyatini tushuntiring.

15. 7-sinfda Tarbiya fani mazmunining uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga rioya yetilgan holda o‘quvchilarda qanday bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish ko‘zda tutiladi?

16. 7-sinfda Tarbiya fani dasturidan o‘rin olgan muayyan mavzularni o‘qitishda “Sinkveyn”, “T-sxema”, “Nima uchun?” sxemasi, “Konseptual jadval” kabi metodlardan foydalanishning ahamiyati nimada?

17. 8-sinfda Tarbiya fani dasturiga kiritilgan “Vaqt - bebaho ne‘mat” mavzusini o‘qitishda qanday usul va metodlarni qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblaysiz?

18. 9-sinfda Tarbiya fani dasturida belgilangan mavzularni mashg‘ulotlarida ko‘proq qaysi usullardan foydalanasiz?

Testlar

1. “Interfaol” degan so‘zning lug‘aviy ma’nosi

- A) “o‘zaro harakat qilmoq”;
- B) “o‘zaro fikr almashmoq”;
- S “o‘zaro kelishib olmoq”;
- D) “o‘zaro yordam bermoq”.

2. O‘quvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metod -

- A) “Rolli o‘yin” metodi;
- B) “Ishbop o‘yin” metodi;
- S) “Bahs-munozara” metodi;
- D) “Muammoli vaziyat” metodi.

3. Passiv, faol, interfaol ta’lim usullari bular ...

- A) ta’lim modellari;

- B) ta'lim shakllari;
- S) ta'lim tamo-yillari;
- D) ta'lim mazmuni.

4. Noan'anaviy ta'limda 4 ta komponent uyg'unlikda amalga oshiriladi. Bular:

- A) maqsad, mazmun, faoliyat, natija;
- B) Vaqt, faoliyat, samara, natija;
- S) Mazmun, mohiyat, vaqt, samara;
- D) harakat, mazmun, faoliyat, natija.

5. Pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik kiritish, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalanish – bu...

- A) innovasion texnologiya;
- B) axborot texnologiyalari;
- S) pedagogik usullar yig'indisi;
- D) zamonaviy pedagogik texnologiya.

6. Tarbiya fanida tushunchalarni chuqur o'zlashtirishga imkon beruvchi metod - bu ...

- A) tushunchalar tahlili;
- B) aqliy hujum;
- S) klaster;
- D) FSMU.

7. Tarbiyaga oid ma'lumotlarni tarkiblashtirish va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rnatishda qulay usullar

- A) klaster, B/B/B, Venn diagrammasi;
- B) aqliy hujum, klaster;
- S) insert, nima uchun;
- D) charxpalak, B/B/B.

8. O'quvchilar bahs-munozaraga kirishish orqali ma'lumotlarning necha foizini o'zlashtiradi?

- A) 50 foizini;
- B) 40 foizini;
- S) 90 foizini;
- D) 75 foizini.

9. Tushunchalar tahlili, keys-stadi, hamkorlikda o‘qitish, loyiha, rezyume, SWOT kabilar interfaol texnologiyaning qaysi turiga kiradi?

- A) pedagogik texnologiyalar;
- V) interfaol metodlar;
- S) strategiyalar;
- D) grafik organayzerlar.

10. Quyidagi metodlardan qaysi biri inglizchadan tarjima qilganda “Tezkor, bir zumda” degan ma’noni anglatadi?

- A) “Blis-so‘rov”;
- B) “Konseptual jadval”;
- S) “Muammo”;
- D) “Juftlikda o‘ylang, fikrlang, fikr almashing”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 7 noyabr. 06/20/6108/1483-son.

2. “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 7 noyabr. 07/20/4884/1484-son.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil 23 avgustda o‘qituvchining ijtimoiy mavqeyini oshirish masalalariga doir o‘tkazilgan

videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. -“Xalq so'zi” gazetasi, 2019 -yil 24 avgust. - №174 (7404)-son.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: “O'zbekiston”, 2021. – 464 b.

III.Maxsus adabiyotlar

1. Ziyomuhammadov B., Ismoilov F. Barkamol avlodni voyaga yetkazish sirlari. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2011. – 440 b.

2. Ziyomuhammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: “Tib-kitob”, 2009. – 184 b.

3. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo'llanma. – T.: “O'qituvchi”, 2004. –104 b.

4. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 2-kitob. –T.: “Ma'naviyat”, 2019. – 856 b.

5. Pedagogika: yensiklopediya. 1-jild. – T.: “O'zbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.

6. Saifnazarov I. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishni nega kuchaytirishimiz kerak? // “Xalq so'zi”, 2021 -yil 29 oktyabr. -№231 (8011).

7. Xodjayev B., Sattorov Sh., Artikova M. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 168 b.

8. Qurbonova M. Yoshlarda kreativ tafakkurni shakllashtirishning pedagogik asoslari // “Xalq ta'limi” jurnali, 2020. – T.3.

9. Quronov M. Milliy tarbiya. - T.: “Ma'naviyat”, 2007. – 240 b.

10. Haydarov K. Sharq falsafasida ma'naviy tarbiya ustuvorligi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – 240 b.

11. Haydarov K. Milliy qadriyatlarni ta'lim mazmuniga singdirish masalalari. Uslubiy qo'llanma. – T.: “Qamar media” nashriyoti, 2022. – 80 b.

12. Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2002. – 372 b.

13. Hikmatlar shodasi / to'plovchi va tarjimonlar A.Raimov, N.Raimova; muharrir A.Ziyadov. T.: “O'zbekiston”, 2016. –B.744.

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. <https://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

2. <http://www.yeduportal.uz>- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi axborot-ta'lim portali.

3. <http://www.uzedu.uz>- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi portali.

4. www.ziynet.uz - Ziyonet ta'lim axborot tarmog'i.

O‘QUVCHILAR BILIMI VA KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH

Tayanch iboralar: bilim, bilish, kompetensiya, kognitivlik, kreativlik, strategiya, baholash, xulosa.

Jamiyat hayotining barcha sohalari singari ta’lim sohasining ham kelajagini belgilab beradigan strategiyalar mavjud. Ta’lim strategiyalari jamiyatda ta’lim tizimining ayni paytdagi holati to’g’risida ma’lumot beradigan, ta’lim sifati va mazmunini yaxshilashga ko’maklashadigan va uni yanada raqobatbardosh bo’lishini ta’minlaydigan, shuningdek, ta’lim taraqqiyotining eng asosiy, ustuvor yo’nalishlarini belgilaydigan va uzoqqa mo’ljallangan maqsaddir.

Mamlakatimizda maktab ta’limini rivojlantirishga qaratilgan, strategik ahamiyat kasb etadigan hujjatlar, ustuvor rejalarda asosan bir maqsad – o’quvchilarni erkin, mantiqiy fikrlashga o’rgatish, ularning bilim va kompetensiyalarini shakllantirish, baholash orqali yuqori ta’lim sifatiga erishishdan iborat. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Ta’lim sifatini oshirish — Yangi O’zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to’g’ri yo’lidir”⁵¹, degan so’zlari bevosita ana shu maqsadni ifodalaydi.

“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”da o’quvchilarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)larni shakllantirishning asosiy yo’nalishlari

⁵¹ xabar.uz // Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси , 2022 йил 20 декабрь.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 -yil 31 dekabrdaqi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarori millat kelajagi, uning ma’naviy taraqqiyoti uchun tarixiy voqyelik bo‘ldi. Mazkur konsepsiya 70 ta bandni o‘z ichiga olgan 8 ta bob va ma’naviy tarbiyaning uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan 61 ta maqsadli va manzilli tadbirlar rejasidan iborat bo‘lib, 4 bosqichda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan. Mazkur konsepsiya tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishiga ko‘mak beradigan eng asosiy manba, strategik hujjatlardan biridir.



Mazkur konsepsiya 70 ta bandni o‘z ichiga olgan 8 ta bob va ma’naviy tarbiyaning uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan 61 ta maqsadli va manzilli tadbirlar rejasidan iborat bo‘lib, 4 bosqichda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan. Mazkur konsepsiya tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishiga ko‘mak beradigan eng asosiy manba, strategik hujjatlardan biridir.

Konsepsiyada ta’kidlanganidek, taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ygan mamlakatimizda “tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi”⁵².

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining asosini milliy tarbiyamiz tashkil yetadi. Milliy tarbiya ma’naviy qadriyatlarimizga tayanadi. Ular yesa Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Forobiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug‘ mutafakkirlarimizning



52 Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “Узлуksиз маънавий тарбия концепциясини тасдиqlаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори//”Халқ сўзи”, 2020 йил 2 январь.

ma'naviy-ilmiy merosiga asoslangan. Ayni vaqtda dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o'tgan zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish Konsepsiyaning zamon bilan hamnafasligiga xizmat qiladi.

“Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”, degan edi milliy pedagogikamizning buyuk darg'asi Abdulla Avloniy. Konsepsiya ana shu hikmatga hamohang bo'lib, unda farzandlarimizda milliy yuksalishimiz uchun eng zarur fazilatlar - Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnasevarlik bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi. Voyaga yetgan o'g'il-qizlarimiz mustaqil hayotga ana shu fazilatlar bilan kirib boradilar. Bu fazilatlar ularning o'zlarini ham, xalqimizni ham baxtli, farovon qiladi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi o'zida dunyo pedagogik tajribasi va yutuqlarini mujassam yetgan hujjatdir. Jumladan, Yevropa Ittifoqining tarbiyaviy tavsiyalari, AQSh tajribasidan shaxs erkinligi, tadbirkorlik, muvaffaqiyatga erishishga intilish, Janubiy Koreyada yoshlar ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallarni singdirish, Yaponiyaning “xarakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim”, Xitoyning yaxshilik, to'g'rilik, poklik, donolik va ishonchlilik kabi fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik tajribalari o'rganilgan.

Konsepsiyada O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar va uni bugungi kun yehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish masalasiga katta ahamiyat berilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirish orqali oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, professional, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik hamkorligi yangi darajaga ko'tariladi.

Konsepsiya o'z-o'zidan, stixiyali tarzda yuzaga kelmagan. Bugun mamlakatimiz yoshlari ongi va qalbida Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik kabi fazilatlar jamiyatimizdagi yangilanish tendensiyalariga mos holda rivojlanmayotgani, aksinchi, ular ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketayotgani bois uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayotgani, afsuski, haqiqat. Alal-oqibat, ularning so'zlari

bilan amallari o'rtasida anchagina tafovut yuzaga keldi, bu yesa voyaga yetgan, mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning jamiyatda o'z o'rinlarini topishlarida qator muammolarni keltirib chiqarayotgani ham ayni haqiqat.

Dono xalqimizda “kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi”, degan naql bor. Ochiq aytaylik, ba'zi o'quvchi-yoshlar o'zlariga yuksak maqsadlarni qo'ya olmayotgani, kelajak sari dadil intilish, faollik xislatlari rivojlanmayotgani, o'zini namoyon qilish, iroda, matonat, mehnasevarlik, tirishqoqlik kabi fazilatlarning yetarli emasligi, mustaqil va erkin fikri shakllanmayotgani ham bor gap.



Uning ustiga ma'naviy tarbiya sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlashni nazarda tutadigan o'quv materiallari, xususan, ma'naviy tarbiya sohasiga doir metodik

mazmundagi adabiyotlar, o'quv qo'llanmalari, didaktik va yordamchi materiallar, ayniqsa zarur darsliklar ham yetarli emas.

Sanayversak, yuqorida bayon qilinganlarga o'xshash kamchiliklar bisyor. Ularni bartaraf qilish, illatga aylanib ketmasligining oldini olish, yoshlarda yangi O'zbekistonga xos fazilatlarni shakllantirish tarbiyaviy ishimizning bosh maqsadi bo'lishi barobarida ta'lim islohotlarining ham asosiy yo'nalishidir.

Shulardan kelib chiqib, “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi”da belgilangan tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Konsepsiyada O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar va uni bugungi kun yehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish masalasiga alohida urg'u berilgan. Bunda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, professional

hamda oliy ta'lim muassasalari, fuqarolar yig'ini kabi tuzilmalarning ijtimoiy-pedagogik hamkorligi yangi darajaga ko'tarilishi belgilangan.

O'zbekiston hukumatining 2019 -yil 31 dekabrda 1059-son qarori asosida ishlab chiqilgan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ni hayotga joriy qilish mobaynida mamlakatimizda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanishi juda qiyin kechmoqda. Buning oqibatida yoshlarda so'z va ish birligi, ya'ni fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu o'z navbatida, mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlari, muayyan kasb egasi



bo'lib shakllanishlarida ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda. O'quvchi-yoshlarning ayrimlarida yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi shakllantirish, irodani pishitish, matonatli bo'lish, tirishqoqlik, faollik zarur ravishda rivojlanmaganligi

ta'lim sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ta'lim islohotlari doirasida "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da belgilangan vazifalarni oqilona va samarali amalga oshirish orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish uzluksiz ta'lim islohotlarining muhim talabidir.

Mazkur Konsepsiyaning maqsadi ham shuni nazarda tutadi - yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarini yoshiga mos holda bosqichma-bosqich shakllantirish. Ushbu maqsadga erishish uchun *quyidagilar talab etiladi:*

ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom yetadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamo-yillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq yetish;

bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;

tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;

ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish;

ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamo-yillariga asoslanishi.

O'z navbatida, uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi qator bosqichlarni o'z ichiga oladi:


birinchi bosqich - oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr - homila davri, ikkinchi davr - bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr);

ikkinchi bosqich - maktabgacha ta'lim 3 - 6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;

uchinchi bosqich - umumiy o'rta ta'lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr - 7 (6) -10 yosh boshlang'ich sinf, ikkinchi davr - 11 - 17 yosh o'rta va yuqori sinflar); *to'rtinchi bosqich* - ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar, shuningdek, professional va oliy ta'lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr - professional va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar - 17 - 30 yosh, ikkinchi davr - o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi-talabalari 15 - 22 (24) yosh yetib belgilangan. Ushbu bosqichlarda tarbiyaga alohida e'tibor berish zarurligi ko'zda tutilgan.

Mazkur Konsepsiyaga asosan umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari o'quvchilarda quyidagi yoshiga mos *tayanch ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni* shakllantirishi nazarda tutilgan:

- Vatanga sadoqat;
- tadbirkorlik;
- irodalilik;
- mafkuraviy immunitet;
- mehr-oqibatlilik;
- mas'uliyatlilik;
- tolerantlik;
- huquqiy madaniyat;
- innovasion fikrlash;
- mehnasevarlik.



Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining eng muhim jihatlaridan biri shundaki, u boshlang'ich sinflarda ham inobatga olinishi lozim bo'lgan turli omillarni nazarda tutadi:

- Tarbiya fanini o'qitish orqali o'quvchi yoshlarda ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladigan bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim mazmuniga chuqur singdirish;

- fanlar doirasidagi ma'naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy yetish, ularni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish (ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar);

- muvaffaqiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi;

- bolaning o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish;

- o'zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnasevarlikka o'rgatish;

- kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga ijtimoiy motivlarning paydo bo'lishi;

- bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarning rivojlanishi;

- o'z xalqining va boshqa xalqlarning an'analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo'lishi;

- ijtimoiylashuv jarayonida talab yetiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish;

- xavfsiz hayot ko'nikmalarini mustahkamlash;

- kasblar to'g'risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga

qiziqtirish;

- vijdonan mehnat qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatish;

- muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirish;

- o‘zini-o‘zi baholashga o‘rgatish;

- faoliyatda o‘zini ko‘rsatishga intilishni rag‘batlantirish;

- tengdoshlari bilan ma‘naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish.



Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasining g‘oyat muhim va ahamiyatli tomonlaridan biri shundaki, unda o‘rta va yuqori sinf o‘quvchilarini ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar orqali tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar ham belgilab berilgan:

- o‘smirlik yoshiga xos ichki pozisiyaning paydo bo‘lishi;

- irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishi;

- ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o‘zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi;

- faoliyat va muloqot mazmunini belgilovchi shaxsiy qadriyatlar tizimining shakllanishi;

- shaxslararo munosabatlarning differensiallashuvi, referent guruhlarning paydo bo‘lishi;

- fuqarolik pozisiyasi, o‘zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishi;

- milliy qadriyatlar, an‘analarga hurmatning namoyon bo‘lishi;

- o‘zini-o‘zi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishi;

- o‘z muammolarini o‘zi mustaqil hal qilishga intilish;

- xavfsiz hayot madaniyati bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning namoyon bo‘lishi;

- axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy ye’tiqodning shakllanishi;

- pozitiv ijtimoiy mo'ljallarning oydinlashuvi va ularga erishish yo'lidagi intilishlar;

- ma'naviy-axloqiy prinsiplarning qat'iylashuvi;

- ichki his-tuyg'ularga e'tiborning oshishi, yemosional munosabatlarning tanlov asosida namoyon bo'lishi;

- mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarining odatlarga aylanishi.



Shu o'rinda Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining matnini ba'zi qisqartirishlar bilan keltirishni maqsadga muvofiq deb topdik.

II bob. Konsepsiyaning maqsad va vazifalari

Konsepsiyaning maqsadi — yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarini yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish asosida yuksak fazilatli, barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iborat.

Ushbu yezgu maqsadga erishish, uni amalda to'la-to'kis ro'yobga chiqarish uchun qator vazifalar belgilangan:

ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom yetadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamo-yillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq yetish;

bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;

tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;

ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish;

ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamo-yillariga asoslanishi.

III bob. Konsepsiyada belgilangan vazifalarni oila va uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirish

Uzluksiz ma'naviy tarbiya:
davlat ta'lim standartlariga
muvofiq ta'lim dasturlarini
amalga oshiruvchi davlat va
nodavlat ta'lim muassasalari;
ta'lim sohasida ilmiy-
tadqiqot ishlarini amalga
oshiruvchi ilmiy-pedagogik
muassasalar;

davlat boshqaruvi organlari,
jamoatchilik tashkilotlari,
mahalla va oila institutlari orqali joriy yetiladi.



Mazkur bobning 9-bandida uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish bosqichlari quyidagicha belgilangan:

birinchi bosqich - oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr - homila davri, ikkinchi davr - bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr);

ikkinchi bosqich - maktabgacha ta'lim 3 - 6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;

uchinchi bosqich - umumiy o'rta ta'lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — 7 (6) - 10 yosh boshlang'ich sinf, ikkinchi davr - 11-17 (18) yosh o'rta va yuqori sinflar);

to'rtinchi bosqich - ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar, shuningdek, professional va oliy ta'lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr - o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar - 17-30 yosh, ikkinchi davr - professional, oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi-talabalari 15-22 (24) yosh).

IV bob. Oilalarda uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish

Oilalarda uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi o'z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davrda - hududlardagi oilaviy poliklinikalarda, mahallalardagi homilador ayollar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy, tibbiy, psixologik yordam ishlari tizimli tashkil qilinadi. Yosh otalar bola parvarishi va tarbiyasiga tayyorlanadi;

ikkinchi davrda - bola tugʻilganidan 3 yoshgacha boʻlgan davr orasida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilinadi.

Homilador ayollar oʻqishi tavsiya qilinadigan tibbiy-maʼrifiy, tarbiyaviy, badiiy va yelektron adabiyotlar turkumlari tayyorlanadi, roʻyxati shakllantiriladi va tarqatiladi.

Mahalla, oilalarda ota-onalar va bolalar maʼnaviy tarbiyaviy munosabatlarini tahlil yetish asosida “Namunaviy oilaviy tarbiya muhiti” mezonlarini belgilash va shu asosida mahalla, tuman, shahar, hududlar va respublika tanlovlarini oʻtkazish.



Oiladagi maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal yetishning huquqiy va pedagogik-psixologik asoslarini oʻrgatish, ajralishlarning oldini olishda «Ota-ona farzandini voyaga yetguniga qadar boqish va tarbiyalash uchun

javobgar» prinsipi asosida «Ota-onalik — baxt va burch» targʻibot tadbirlarini tashkil yetish.

Mazkur bobning 16-bandida oilada uzluksiz maʼnaviy tarbiyaning xususiyatlari belgilab berilgan boʻlib, ular quyidagilarda iborat:

muloqot, oʻyin turlari jarayonida predmetlar, namunaviy xulq, xatti-harakat qoidalari bilan tanishish, taqlid orqali kattalarning maʼnaviy-axloqiy tajribasiga eʼtibor qaratish;

oʻzining va boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish, baho berishga oʻrgatish;

ilk maʼnaviy-tarbiyaviy motivlarni shakllantirish;

oʻziga-oʻzi xizmat qilish, kundalik turmushda xavfsizlik koʻnikmalarini oʻrgatish.

3 yoshgacha bolalarda badiiy-yestetik didni shakllantirish va intellektni rivojlantirishga moʻljallangan alla, yertak, maqollar va topishmoqlar bilan yaqindan tarbiyaviy ishlarni tashkil yetish.

Bolalarga taklif yetilayotgan oʻyinchoqlarni maʼnaviy tahlil va tadqiq qilish orqali bolalar ruhiyatiga salbiy taʼsirlarning oldi olishga alohida eʼtibor qaratish.

Oilada ota-onalarning farzand tarbiyalash metodlariga oid bilimlarini muntazam oshirib borish maqsadida:

bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;

mahallalardagi "Ota-onalar universitetlari"da ota-onalar uchun farzandlarda yoshiga mos ijtimoiy kompetensiyalarni tarbiyalash bo'yicha treninglar o'tkazish;

"Tarbiya maktabi" rukni ostida ota-onalar, pedagoglar uchun teleko'rsatuvlar, bolalar, yoshlar uchun turli rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang-barang qo'llanmalar, multimedia mahsulotlari kabi didaktik materiallar turkumini yaratish;



uzluksiz ma'naviy tarbiya amaliyotida to'plangan ijobiy tajribani ommalashtirish maqsadida "Yosh ota-ona kitobi" va boshqa metodik qo'llanmalar asosida multimediali taqdimotlar seriyasini yaratish va ota-onalarga tarqatish mexanizmi yo'lga qo'yiladi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi qoshida xalqimizning boy milliy ma'naviy tarbiya merosini keng targ'ib qilishga yo'naltirilgan "Ma'naviy tarbiya" ilmiy-ijodiy studiyasini tashkil yetish orqali:

ota-onalar, bolalar, o'smirlar, yoshlar va kattalarga mo'ljallangan hujjatli, o'quv, tarbiyaviy va badiiy kitoblar, qo'llanmalar, multimedia mahsulotlari yaratiladi;

oilalarda yoshlarning ma'naviy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan innovasion ijtimoiy-pedagogik sog'lom va barqaror muhit yaratish usullari ishlab chiqiladi.

Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, oilaviy qadriyatlarimizga zid bo'lgan turli ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil yetish, hududlar bo'yicha oilalarda sog'lom tarbiyaviy muhitni yaratish va ota-onalarga tarbiya usullarini o'rgatishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ'ibot tadbirlari va treninglar o'tkaziladi.

V bob. Maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining ushbu bosqichi o'z ichiga maktabgacha 3 - 6 (7) yoshli bolalarni qamrab oladi.

Ushbu bosqichda 3 - 7 yoshli bolalarga xos xususiyatlar, jumladan:
o'z tuyg'ularini boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishi;
o'z xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko'nikmalarining yuzaga kelishi;

shaxsiy fazilatlar asoslarining paydo bo'lishi;

ijtimoiy motivlar va milliy an'analariga qiziqishning paydo bo'lishi, o'zini namoyon qilishga intilish;

muvaffaqiyatga erishish yehtiyojining tug'ilishi;

o'ziga o'zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma'naviy-axloqiy munosabatning paydo bo'lishi;

bola faoliyatining yetakchi turlari - muloqot, o'yinlar, mashg'ulotlar; nutq va uning asosida ma'naviyat asoslarining rivojlanishi inobatga olinadi.

Tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan ushbu yoshdagi bolalarga: asosiy faoliyat turlari jarayonida o'zini o'zi anglashga o'rgatish;



muloqot, kuzatish va taqlid orqali kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasini o'zlashtirish;

o'zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o'rgatish;

faoliyat va syujetli-rolli o'yinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlash;

ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish;

kundalik turmushda xavfsizlik qoidalarini o'rgatish;

kattalar, ularning mehnati, kasblar, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to'g'risida tushunchalar berish;

o'yin, o'zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish yehtiyojining paydo bo'lishi orqali xarakter sifatlarini shakllantirib borish;

bola tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning



ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rgatiladi.

“Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi” asosida 3 - 6 (7) yoshli bolalarni ma'naviy tarbiyalash, ularda shaxsiy fazilatlar, jumladan, o'z tuyg'ularini boshqarish, ijtimoiy motivlarni uyg'otish, milliy an'analarga qiziqishni paydo qilish, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish kabi yehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan “Baxtli bola ma'naviyati” kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Ota-onalar va tarbiyachilarning bola tarbiyasi borasidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan hududiy o'quv treninglar, seminarlar, forumlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun tayyorlanadigan spektakllar, kuy-qo'shiq va raqslar, turli teatrlashtirilgan tomoshalar, sahna ko'rinishlari, milliy o'yinlar ssenariylarini ishlab chiqish.

Mulkchilik shakllaridan qat'i nazar barcha maktabgacha ta'lim muassasalarini o'zbek milliy yertaklari, afsonaviy qahramonlar, buyuk bobolarimiz, qadimiy milliy me'morchilik obidalari, O'zbekiston tabiati, milliy Vatan timsollari asosida bezash, jihozlash tartibi va ko'rgazmali namunalarini ishlab chiqish.

Bolalarda ijobiy xulq motivlarini shakllantirish bo'yicha “Bola aziz,



odobi undan aziz” mavzuida yertak, matal, afsona, doston, maqollar asosida multimedia mahsulotlarini tayyorlash.

Barcha turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida “O'zbekiston - mening Vatanim!” tuyg'usini shakllantirish, ularda davlat ramzlariga hurmat hissini tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish.

O'g'il bolalarda mardlik, shijoat, milliy g'urur, qat'iyat, tadbirkorlik, oriyat, qiz bolalarda ibo, hayo, qanoat, mehnasevarlik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan seriallar, milliy qo'g'irchoq va multiplikasion filmlar yaratish, ularni telekanallarda praym-taym vaqtlarida namoyish yetishni ta'minlash.

Tarbiyalanuvchilarda ma'naviy tarbiyani yanada kuchaytirish maqsadida ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish.

Bolalarda atrof muhit ozodaligi, shaxsiy gigiyena, tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan yekologik tarbiya mazmunidagi “Ona tabiatni asraylik!” ruknida tarbiyaviy roliklar yaratish.

Bolalarda orzuga intilish, ijodiy fikrlash, yaratuvchanlik, ichki qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan aqliy va harakatli o‘yinlar, konstruktorlik o‘yinlari va o‘yinchoqlarning “Bolalar dunyosi” variativ o‘yinlar majmuasini ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish.

Maktabgacha ta’lim muassasalari hududida bolalarni mardlik, shijoat, qat’iyat, zukkolik, jasorat, go‘zallik, olijanoblik, mehr-shafqat, kitobxonlik namunalarini o‘zida aks yettirgan milliy siymolar, milliy yertaklar va multfilm qahramonlari ko‘rinishlari va lavhalari ifodalangan tarbiyaviy ahamiyat kasb yetuvchi haykalchalar majmualarini o‘rnatish.

VI bob. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani amalga oshirish

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya jarayoni o‘z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davr - 7 (6) - 10 yoshli davrda - boshlang‘ich sinflarda;

ikkinchi davr - 11 - 17 yoshli davrda - o‘rta va yuqori sinflarda.

Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari o‘quvchilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar - Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnasevarlik shakllantiriladi.

Boshlang‘ich sinflarda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar:



“Tarbiya” fani orqali o‘quvchilarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim mazmuniga keng singdirish;

o‘quv fanlari doirasidagi ma’naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy yetish, ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish (ma’naviy-axloqiy kompetensiyalar);

muvaffaqiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi;

bolaning o‘z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish;

o'zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnasevarlikka o'rgatish;

kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga ijtimoiy motivlarning paydo bo'lishi;

bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarning rivojlanishi;

o'z xalqining va boshqa xalqlarning an'analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo'lishi;

ijtimoiylashuv jarayonida talab yetiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish;

xavfsiz hayot ko'nikmalarini mustahkamlash;

kasblar to'g'risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish;

vijdonan mehnat qilish ko'nikmalarini o'rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatish;

muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirish;

o'zini-o'zi baholashga o'rgatish;

faoliyatda o'zini ko'rsatishga intilishni rag'batlantirish;

tengdoshlari bilan ma'naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish.

Umumta'lim maktablarining o'rta va yuqori sinflari o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tamo-yillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar:

o'smirlik yoshiga xos ichki pozisiyaning paydo bo'lishi;

irodaviy sifatlarning namoyon bo'lishi;

ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o'zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi;

faoliyat va muloqot mazmunini belgilovchi shaxsiy qadriyatlar tizimining shakllanishi;

shaxslararo munosabatlarning differensiallashuvi, referent guruhlarning paydo bo'lishi;

fuqarolik pozisiyasi, o'zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishi;

milliy qadriyatlar, an'analarga hurmatning namoyon bo'lishi;

o'zini-o'zi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishi;

o'z muammolarini o'zi mustaqil hal qilishga intilish;

xavfsiz hayot madaniyati bo'yicha bilim va ko'nikmalarning namoyon bo'lishi;

axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy ye'tiqodning shakllanishi;

pozitiv ijtimoiy mo'ljallarning oydinlashuvi va ularga erishish yo'lidagi intilishlar;

ma'naviy-axloqiy prinsiplarning qat'iylashuvi;

ichki his-tuyg'ularga e'tiborning oshishi, yemosional munosabatlarning tanlov asosida namoyon bo'lishi;

mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarining odatlarga aylanishi.



“Uzluksiz ma'naviy tarbiya” ruknida ota-onalar, pedagoglar, bolalar va o'smirlar uchun darsliklar, adabiyotlar, mediamahsulotlar, ilmiy-metodik qo'llanmalar majmuasini yaratish;

davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va rejalari asosida o'quvchilarda yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilat, kompetensiyalarni shakllantirish.

Ta'lim muassalarida o'quvchilarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan tantanali marosimlarning yangi, ta'sirchan shakllarini ishlab chiqish va joriy qilish.

O'g'il bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, mardlik, jasorat, fido-yilik, halollik, rostgo'ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g'ururi, or-nomus, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlar, tadbirkorlik va oilaparvarlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Qiz bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, mehnasevarlik, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo, hayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo'stlik, bolajonlik, murosallilik, orastalik, saranjomlik, xushmuomalalik, pazandalik kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Har -yili bir marotaba “Milliy tarbiya va zamon” mavzusida pedagogik simpozium o'tkazib borish.

VII bob. Professional va oliy ta'lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar o'rtasida uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish

Professional va oliy ta'lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar o'rtasida ma'naviy tarbiya jarayoni o'z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davr - professional va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar - 17 -30 yosh;

ikkinchi davr - professional, oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi-talabalari 15 - 22 (24) yosh.

Professional va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlarda ular yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar - Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnasevarlikni rivojlantirish davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorligi asosida maqsadli ma'naviy-ma'rifiy dasturlar orqali amalga oshiriladi.

Professional va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar bilan ishlashda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar:

kelajakka ishonch, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni shaxsning ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlash;

mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish;

vijdonan mehnat qilish, tadbirkorlik, kasbiy-ma'naviy ko'nikmalarni o'rgatish, halol mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatish;

mustaqil hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun innovasion tafakkur, tashabbuskorlik, fido-yilik fazilatlarini rivojlantirish;



oilaviy burch, oilada o‘zaro ishonch, sadoqat, mehr-muhabbat va hamjihatlikni mustahkamlash malakalarini shakllantirish, ma’naviy barqarorlikni ta’minlash;

yoshlar, yosh ota-onalarda farzand tarbiyasi uchun mas’ullik, oilani boshqarish, moddiy farovonlikka erishish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

namunali, ma’naviy uyg‘unlikka yerishgan, farzand tarbiyasida ibrat bo‘la oladigan, ota-onalar roziligiga erishayotgan keng jamoatchilik tomonidan ye’tirof yetilayotgan yosh ota-onalarni rag‘batlantirish;

yosh oilalarning hayotda munosib o‘rin egallashlariga ko‘maklashish, ularning mahallada integrasiyalashuvini qo‘llab-quvvatlash, jamiyatning to‘laqonli a‘zosi bo‘lishiga erishish.

Professional va oliy ta’lim tizimi o‘quv dasturlari, ma’naviy-ma’rifiy rejalari asosida o‘quvchi-talabalarning yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilatlar - Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas’uliyatlik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnasevarlik rivojlantiriladi.



Professional va oliy ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar:

ijtimoiy-gumanitar fanlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali o‘quvchi-yoshlarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim-tarbiya mazmuniga singdirish va ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq, topshiriq va pedagogik vaziyatlar bilan boyitish;

o‘quvchi-yoshlarda zamonaviy bilimlarni egallash, media madaniyatni rivojlantirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy yetish, xorijiy davlatlardagi ilg‘or tajribalarni o‘rganishni rag‘batlantirish;

kasbiy-ma’naviy ko‘nikmalarni mustahkamlash, o‘zini-o‘zi tarbiyalashga o‘rgatish;

faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish;

ilmiy, ma’naviy-axloqiy, siyosiy dunyoqarash va sog‘lom diniy ye’tiqodni shakllantirish;

baxtli oilaviy hayot, farzand tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

kelajakka ishonch va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish.

Professional va oliy ta'lim muassasalari murabbiylari, professor-o'qituvchilari, yoshlar yetakchilarini "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ni amalga oshirish maqsadida malakasini oshirish.

Ta'lim muassasalarida o'quvchi-talabalarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan tantanali marosimlarning zamonaviy shakllarini ishlab chiqish va joriy qilish.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi samaradorligini oshirish va takomillashtirishga qaratilgan dissertasiyalar, ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni yo'lga qo'yish.

Teleradiokanallarda tarbiya mavzularida tok-shoular, ko'rsatuv va yeshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlarda tarbiyaviy mavzularda virtual muloqot maydonlarini tashkil yetish.

Konsepsiyaning amalga oshirilishi jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lom va barqaror bo'lishiga salmoqli hissa qo'shadi.

VIII bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

Konsepsiyaning joriy qilinishi uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil yetilishiga, tarbiya sohasining ilg'or innovasion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, bag'ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnasevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Oilalar, ta'lim muassasalari, mahallalar va korxonalarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish layoqatiga ega bo'lgan yoshlarning ma'naviy kamol topishi uchun zarur bo'lgan innovasion ijtimoiy-pedagogik sog'lom va barqaror muhit yaratiladi.



Jamiyatda jinoyatchilik, yekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko'zbo'yamachilik, yolg'onchilik, yegosentrizm, axloqiy buzuqlik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, "ommaviy madaniyat"ga ko'r-ko'rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o'zibo'larchilik, farzand tarbiyasida mas'uliyasizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, yel-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar keskin kamayadi. Band bo'lmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishga, kelajakka bo'lgan ishonchi oshadi. Mamlakat dunyoda raqobatbardosh, boy inson kapitaliga ega bo'ladi.

Oila, ta'lim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to'g'risida bilimlar shakllanadi, ularni o'rganish, saqlash, targ'ib qilish, o'rgatish orqali milliy fazilatlarining avloddan-avlodga bezavol o'tib borishi ta'minlanadi.

Konsepsiyaning amalga oshirilishi jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lom va barqaror bo'lishiga salmoqli hissa qo'shadi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi bilan tanishgan kishida Yangi O'zbekistonni ma'naviy barkamol, innovasion g'oyalari, mustahkam hayotiy e'tiqodi bo'lgan fidoyi insonlar barpo qila oladilar, degan xulosa paydo bo'lishi shubhasiz. Tarbiya fani o'qituvchisi ana shunday insonlar toifasiga kiradi. Endilikda o'qituvchi ta'lim berishda asosiy e'tiborini darsning sifat va samaradorligiga qaratishi, o'quvchida fan bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirib, uning shaxsini rivojlantirishda bor mahoratini ishga solishi zarur bo'ladi. O'quvchining bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish, unda tafakkur madaniyatini shakllantirish, avvalo, Tarbiya fani o'qituvchisining qiyofasi (imiji), uning ilmiy va ma'rifiy salohiyati, g'oyaviy yetukligi, shaxsiy sifatlari, o'quvchi yoshlar oldidagi obro'-e'tibori, hayotiy tajribasi va ko'nikmalariga bog'liq, albatta.

Konsepsiyani o'qigan kishi ma'naviy tarbiyadan ko'zlangan pirovard maqsadga avvalo sifatli ta'lim orqali erishish mumkinligini anglab yetadi. Boshqacha aytganda, konsepsiya uzluksiz ta'lim taraqqiyoti yo'lidagi yangi imkoniyatlar va innovasiyalar uchun mustahkam huquqiy poydevor hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. *“Ta’lim strategiyasi” deganda nimani tushunasiz?*
2. *Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini ishlab chiqishda qaysi davlatlarning pedagogik tajriba va yutuqlaridan foydalanildi?*
3. *Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining asosida qanday ma’naviy qadriyatlar yotadi?*
4. *Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi yaratilishiga asos bo’lgan omillarni sanab bering.*
5. *Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish bosqichlarini tushuntirib bering.*
6. *Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasiga asosan umumiy o’rta ta’limning Davlat ta’lim standarti o’quvchilarda yoshiga mos qanday tayanch ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi?*
7. *Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi maktab ta’limi istiqboli uchun qanday imkoniyatlar yaratadi?*
8. *Umumiy o’rta ta’lim maktablarida Tarbiya fanini joriy etilishi tarixi haqida tushuncha bering.*
9. *Tarbiya fanining asosiy vazifasi nima?*
10. *Yangi O‘zbekistonning Tarbiya fani o‘qituvchisiga xos bo‘lgan mas‘uliyat nimalarda ifodalanadi?*

Testlar

1. **Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasiga ko‘ra uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish nuqtalarini ko‘rsating.**
 - A) davlat va nodavlat ta’lim hamda ilmiy-pedagogik muassasalari, davlat boshqaruvi organlari, jamoatchilik tashkilotlari, mahalla va oila institutlari;
 - B) ilmiy-pedagogik muassasalar;
 - C) davlat va nodavlat ta’lim muassasalari;
 - D) mahalla va oila institutlari.
2. **Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi bosqichlari qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) oilalarda, maktabgacha ta'limda, umumiy o'rta ta'limda, ishlayotgan va band bo'lmagan yoshlar; professional va oliy ta'limda;
- B) bog'chalarda, maktablarda, kollej va liseylarda, institutlarda;
- C) oilada, maktablarda, kasb-hunar maktablarida, oliy ta'lim muassasalarida;
- D) oilada, mahallada, bog'chalar va maktablarda, akademik liseylarda, institutlarda.

3. Uzlüksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasining birinchi bosqichi qaysi davrlarni qamrab oladi?

- A) **birinchi bosqich** - oilalarda (ikki bosqich asosida: 1- bosqich — homila davri, ikkinchi bosqich - bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr);
- B) **birinchi bosqich** - maktabgacha ta'lim 3 - 6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;
- C) **birinchi bosqich** - umumiy o'rta ta'lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr - 7 (6) - 10 yosh boshlang'ich sinf, ikkinchi davr - 11 - 17 yosh o'rta va yuqori sinflar);
- D) **birinchi bosqich** - oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr - homila davri, ikkinchi davr - bola tug'ilganidan 5 yoshgacha bo'lgan davr).

4. Uzlüksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasiga asosan umumiy o'rta ta'lim tizimida uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonini tashkil yetish ikki bosqichda amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, bular...

- A) birinchi bosqich - 7 (6) -10 yosh, boshlang'ich sinflarda; ikkinchi bosqich - 11-17(18) yosh;
- B) birinchi bosqich 7 (6) - 9 yosh, boshlang'ich sinflarda; ikkinchi bosqich - 11-17 yosh;
- C) birinchi bosqich - 7 (6) - 10 yosh, boshlang'ich sinflarda; ikkinchi bosqich - 1 -16 yosh;
- D) birinchi bosqich - 7 (6) - 11 yosh, boshlang'ich sinflarda; ikkinchi bosqich - 12-17 yosh.

5. Uzlüksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi birinchi bosqichining birinchi davri qaysi yosh davrlarni o'z ichiga oladi?

- A) homila davri;
- B) bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr;
- C) 11-17 yosh o'rta va yuqori sinflar;
- D) maktabgacha ta'lim 3-6 (7) yoshgacha bo'lgan davr.

6. Uzlüksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi birinchi bosqichining ikkinchi davri qaysi yosh davrlarni o'z ichiga oladi?

- A) bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr;
- B) homila davri;
- C) maktabgacha ta'lim 3-6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;
- D) 7 (6)-10 yosh boshlang'ich sinf.

7. Uzlüksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi uchinchi bosqichining birinchi davri qaysi yosh davrlarini o'z ichiga oladi?

- A) 7 (6)-10 yosh boshlang'ich sinf;
- B) bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr;
- C) 11-17 yosh o'rta va yuqori sinflar;
- D) homila davri.

8. Uzlüksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiya uchinchi bosqichining ikkinchi davri qaysi yosh davrlarni o'z ichiga oladi?

- A) 11-17 yosh o'rta va yuqori sinflar;
- B) 7 (6)-10 yosh boshlang'ich sinf;
- C) homila davri;
- D) bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr.

9. Uzlüksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiya to'rtinchi bosqichining birinchi davri qaysi yosh davrlarni o'z ichiga oladi?

- A) o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar - 17-30 yosh;
- B) 11-17 yosh o'rta va yuqori sinflar;

- C) o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15-22 (24) yosh);
D) homila davri.

10. Tarbiya fani darsliklarini tayyorlashda Yaponiyaning qaysi fani va darsligi o‘rganildi?

- A) “Axloq ta’limi”;
B) “Fe’l-atvor va fuqarolik ta’limi”;
C) “Tafakkur”;
D) “Xulq ta’limi”.

11. Tarbiya fani darsliklarini tayyorlashda Singapurning qaysi fani va darsliklari o‘rganildi?

- A) “Fe’l-atvor va fuqarolik ta’limi”;
B) “Axloq ta’limi”;
C) “Tafakkur”;
D) “Xulq ta’limi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 -yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. - Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06.19.5712.3034-son.

3. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 7 noyabr. 06/20/6108/1483-son.

4. “2022-2026 -yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining Farmoni. - T.: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. - 2022 -yil 29 yanvar. 06/22/60/0082-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-son Qarori. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.09.2017 y. 06.17.5194.0032-son.

6. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. - T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 3 yanvar. 09/20/391/0777-son.

7. "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy yetish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. – T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 07.07.2020 y., 09/20/422/1033-son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: "O'zbekiston", 2021. – 464 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2022 -yil 21 dekabr.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. - T.: "Ma'naviyat", 2006. – 280 b.

2. Ziyomuhammadov B., Ismoilov F. Barkamol avlodni voyaga yetkazish sirlari. – T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2011. – 440 b.

3. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo'llanma. – T.: "O'qituvchi", 2004. –104 b.

4. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. – T.: "Ma'naviyat", 2019. – 920 b.

5. Pedagogika: yensiklopediya. 1-jild. – T.: "O'zbekiston milliy yensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.

6. Pedagogika: yensiklopediya. 2-jild. – T.: "O'zbekiston milliy

yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.

7. Xodjayev B., Sattorov Sh., Artikova M. Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyasi. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 168 b.

8. Qurbonova M. Yoshlarda kreativ tafakkurni shakllashtirishning pedagogik asoslari // “Xalq ta’limi” jurnali, 2020. – T.3.

9. Qodirov A. va b. Baxtli bola ma’naviyati. – T.: “Muharrir”, 2018.

10. Quronov M. Milliy tarbiya. - T.: “Ma’naviyat”, 2007. – 240 b.

11. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...T.: “Ma’naviyat”, 2014.

12. Haydarov K. Sharq falsafasida ma’naviy tarbiya ustuvorligi. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – 240 b.

IV. Dissertasiyalar

1. Mamatqulov D.M. Malaka oshirish jarayonida umumta’lim maktab rahbarlarining mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan. bo‘yicha fal. dok. ... dis. –T.: 2018.

2. Haydarov K.D. Yangilanayotgan O‘zbekistonda ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi va uning uzluksiz ta’lim tizimidagi ahamiyati. Falsafa f. d-ri (DSc) diss. - Samarqand, 2022.

V. Elektron ta’lim resurslari

1. <https://www.lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

2. <http://www.yeduportal.uz> - O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi axborot-ta’lim portali.

3. <http://www.uzedu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi portali.

4. <http://www.multimedia.uz> - Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti.

5. <http://www.istedod.uz> - “Iste’dod” jamg‘armasi sayti.

6. www.ziynet.uz - Ziyonet ta’lim axborot tarmog‘i.

7. <https://www.coursera.org> - Onlayn ta’lim platformasi.

O'QUVCHILARNI MANTIQUIY FIKRLASHGA O'RGATISH – MASHG'ULOTLARDA SAMARADORLIKKA ERISHISH OMILI

Tayanch iboralar: mantiq, mantiqiy fikrlash, mantiqiy xulosa, ijodiy mushohada, tafakkur madaniyati, suqrotona usul, mantiqiy samaradorlik.

Davlatimiz rahbari o'zining “Yangi O'zbekiston strategiyasi” nomli asarida “Biz yangi O'zbekistonni yetuk ma'naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz lozim”⁵³, deb ta'kidladi. Baxtli inson - ma'naviy barkamol insonni shakllantirish jarayoni ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ulardan biri “Tarbiya” fanini o'qitish, ushbu fandan mashg'ulotlar mazmunini kuchaytirish, ularning ta'sirchanligi va natijadorligini oshirishdir.



Albatta, Tarbiya fanidan mashg'ulotlarni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil yetish o'quvchilarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish barobarida zamonaviy bilimlar egallashiga, umumiy dunyoqarashi va intellektual jihatdan rivojlanishiga yordam beradi. Tarbiya fani mashg'ulotlari o'quvchi yoshlarda ularning yoshiga mos kompetensiyalarni shakllantirish, ijtimoiy faol hayotiy ko'nikmalar va fazilatlarni rivojlantirishda g'oyat muhim ahamiyat kasb yetadi. Ayniqsa yoshlarda mehnasevarlik, irodalilik, serg'ayratlik, tirishqoqlik kabi fazilatlarni shakllantirish, ularning o'z ustida qunt bilan muntazam ishlash, o'ziga ishonchni qaror toptirish kabi xislatlarini kamol toptirishda ushbu fanning imkoniyatlari kattadir.

53 Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: “О'zbekiston”, 2021. – 274 бет.

Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida ta’limning yangi, zamonaviy texnologiyalari va interfaol shakllaridan foydalanish mashg‘ulotlar sifati va natijadorligini oshirishi ayni haqiqatdir. Ayniqsa, bunga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgan yangi metodikalarning ahamiyatli jihatlari borasidagi xulosalar va fikr-mulohazalar tez-tez ye’tirof yetilmoqda.



O‘quvchi yoshlarning aqliy kamoloti, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyati, falsafiy tafakkurini rivojlantirish, ularning ye’tiqodini shakllantirish, egallagan bilim va ko‘nikmalarini turmushda qo‘llay olishlariga erishish yangilanayotgan davrimizning muhim vazifasi sifatida davlatimiz siyosatida alohida o‘rin tutmoqda. Bunda ta’lim-tarbiya jarayonining barcha zarur imkoniyatlari, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, didaktik vosita va usullaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratilayotir.

Umumta’lim maktablari o‘quv-tarbiya jarayonida eng yangi metodikalarni joriy qilish o‘quv materialini mukammal o‘zlashtirish va mustahkamlashga, o‘quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga, hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltiriladi, ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga o‘rgatadi, shaxsning o‘z xulqini boshqarish ko‘nikmasi shakllanadi va h.k. Shu bilan birgalikda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma’naviy-yestetik dunyoqarashini shakllantirish borasida o‘zaro hamkorlik, jamoaga kirishib keta olish, kommunikativlik ko‘nikmalarini ham tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

Yangi metodikalar qanday shaklda bo‘lmasin, o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra o‘quvchilarni yagona maqsad sari yo‘naltirish, ularning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, keng dunyoqarash egasi bo‘lgan komil insonni kamol toptirishdan iborat ezgu vazifani hal yetishga qaratiladi.

Bugun mamlakatimiz maktab ta’limi tizimida o‘qituvchilarni yangi, zamonaviy metodikalarga o‘rgatish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Bundan kutilgan pirovard maqsad – ta’limning eng samarali metodlarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish orqali kutilgan natijaga erishish, ya’ni o‘quvchi yoshlarda tafakkur madaniyatini shakllantirish, ularni mustaqil mantiqiy fikrlashga o‘rgatishdan iborat.

Xo‘sh, mantiqiy fikrlash nima degani? Mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari qanday qilib shakllantiriladi?

Ushbu masalalarga bag‘ishlab kitoblar yozilmoqda, maqolalar chop yetilyapti va hokazo. Falsafiy va pedagogik mazmundagi adabiyotlarda mantiqiy fikrlashning ahamiyati to‘g‘risida, uni qo‘llashda pedagogning mahorati va tajribasi zarurligi to‘g‘risida muayyan fikr-mulohazalar bayon qilingan. Masalan, “Jahon falsafasi qomusi”da “mantiqiy fikrlash” degan tushunchaga quyidagicha ta’rif berilgan: “Mantiqiy fikrlash – inson tomonidan ko‘rib, yeshitib, bilib, his qilib va anglanib turgan borliq, voqyelik yoki taassurotlarning boshqalar uchun ham tushunarli tarzda tafakkur yetilishini anglatuvchi tushuncha”⁵⁴.


Demak, mantiqiy fikrlash barcha sohalarda, ayniqsa pedagogik faoliyatda juda muhimdir. Chunki aynan pedagogik faoliyatda izchillik, mantiqiy ketma-ketlik orqali ko‘zlangan natijaga erishish mumkin. Shundan kelib chiqib, “mantiqiy fikrlash” degan tushunchaga yanada aniqroq qilib, shunday ta’rif berish mumkin: **mantiqiy fikrlash** – bu inson bilan uni o‘rab turgan olamdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlar, ular o‘rtasidagi aynanlik va tafovutlarni kuzatish, idrok va tasavvur qilish, taqqoslash, tahlil qilish orqali anglab yetish va shu asosda faoliyatni to‘g‘ri tashkil yetish demakdir.



54 Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. –Т.: “Маънавият”, 2019. – Б.710.

Mantiqiy fikrlash insonning tafakkur madaniyati darajasini bildiradi. Shu boisdan mantiqiy fikrlash tafakkur qonunlarining namoyon bo'lishi hamdir. Umuman, mantiqiy fikrlashning nima ekanligini bilish uchun tafakkur qonunlaridan yaxshi xabardor bo'lish lozim. Ayniyat, ziddiyasizlik (nozidlik), uchinchisi istisno hamda yetarli asos qonunlari mantiqiy tafakkurning mohiyatini tashkil yetadi.

Ayniyat qonuni olamdagi har qanday narsa yoki hodisaning o'ziga tengligini, fikr-mushohadada, yozishda (matnda), o'zaro so'zlashuvda so'zlarni to'g'ri va bir xil qo'llashni bildiradi. Ziddiyasizlik




(nozidlik) qonuni ayni vaqtning o'zida har qanday voqyea-hodisaning ziddi (teskarisi) bo'lmasligini taqozo qiladi. Yetarli asos qonuni fikrning chinligi avvaldan isbotlangan bo'lishi shart, degan talabga asoslanadi. Uchinchisi istisno qonuni ikkita zid fikrdan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchisiga o'rin yo'q, degan ma'noni bildiradi. Xullas, mantiqiy fikrlash jarayonida tafakkurning ushbu qonunlari o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. Mulohaza jarayonida ushbu qonunlarning buzilishi mantiqiy xatoliklarga olib keladi va bunday mantiqiy xatolar paralogizmlar deb ataladi. Paralogizmlar ataylab yoki bilmasdan sodir yetilishi mumkin. Bunday xatoliklarga yo'l qo'yish yesa pedagogning faoliyatida noxush oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Mantiqiy fikrlash insonning dunyoni bilishida g'oyat muhim o'rin tutadi. Shu bois, mantiqiy fikrlashni kundalik turmushda, bizni o'rab turgan atrof-muhitda sodir bo'layotgan turli tuman vaziyatlarni mulohaza va mushohada qilish, munozara yuritish va tushuntirish vositasi deb ham atashadi.

Insonning dunyoni bilishida mantiqiy fikrlash universal xarakter kasb yetadi. Shunday bo'lsa-da, mantiqiy fikrlashning o'ziga xos xususiyatlari bor. Birinchidan, mantiqiy fikrlash deduktiv mohiyatga ega, ya'ni umumiy bilimlardan juz'iy, alohida bilimlarga qarab yo'nalish jarayoni hisoblanadi. Aniqroq aytganda, narsa yoki hodisa haqida umumiy bilimlardan alohida,

konkret bilimlarga qarab borish mantiqiy fikrlashning mazmunini ifodalaydi. Ikkinchidan, mantiqiy fikrlash qiyosiy va tahliliy mohiyatga ega: inson fikrlash jarayonida albatta narsa yoki hodisalarni o‘zaro qiyoslaydi, kerakli hollarda tahlil qiladi va yakunda xulosaga ega bo‘ladi. Uchinchidan, mantiqiy fikrlash konvergent xarakterga ega, ya’ni kishi muayyan xulosaga ega bo‘lish uchun avvalgi, o‘zaro yaqin, o‘xshash fikrlarga, bilim va tajribaga asoslanadi.

Mantiq (logika) fani, uning qoida va tamo-yillarini yaxshi bilish pedagog xodimlar faoliyatida g‘oyat muhim ahamiyat kasb yetadi. Misol uchun, “chuqurligi 3 metr, yeni 6 metr chuqurlikda qancha tuproq bor?” yoki “xodani 4 ga bo‘lish uchun uni necha marta arralash kerak?” degan oddiy



savollar ham o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydi va matematika darsi mashg‘ulotlarining mazmunini oshiradi (birinchisiga javob - chuqurda tuproq yo‘q, ikkinchisiga – 3 marta). Ko‘rinib turibdiki, bunday fikrlar to‘g‘ridan to‘g‘ri tajribadan kelib chiqadi va o‘quvchilar muammoga duch kelganda, to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini rag‘batlantiradi.

Bugun umumiy o‘rta ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalar, interfaol metodlardan ta’lim jarayonida keng foydalanish muhim va dolzarb masalaga aylandi. Hozir maktab ta’limida tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatish emas, balki zarur bilimlarni o‘quvchining o‘zi qidirib topishga o‘rgatish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. O‘qituvchi ushbu jarayonda o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, ya’ni yo‘naltiruvchilik, “rejissyorlik” vazifasini bajaradi. Nemis pedagogi A.Disterveg aytganidek, “noqobil o‘qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo‘yadi, yaxshisi yesa uni topishga o‘rgatadi”.


Mantiqiy fikrlashda asosiy omil bilim ekanligi o‘z-o‘zidan tushunarli. Lekin mantiqiy fikrlash ko‘p narsani emas, balki kerakli narsani bilish

deganidir. “Bugungi o‘qituvchi zamonga “moslashish” emas, balki undan bir qadam oldinda yurishga intilishi kerak”⁵⁵.

Bugun uzluksiz ta’lim tizimida ko‘plab zamonaviy texnologiyalar muvaffaqiyali qo‘llanmoqda. Ushbu metodlar ishtirokchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga singdirishga, ochiq bahslashish, egallangan bilimlarni tahlil qilishga, o‘z bilimlarini baholash va o‘zaro bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

Mantiqiy fikrlashga o‘rgatishning klassik namunalari qadimgi (antik) davr donishmand muallimlari tomonidan yaratilgan, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Masalan, qadimgi Yunonistonda donolik va chiroyli so‘zlashuvga o‘rgatuvchi o‘qituvchilar, faylasuflarni sofistlar deb atashgan. Sofistlar (yunoncha sophistes – mohir, dono) o‘z o‘quvchilariga munozara olib borish san’atini, bahslarda o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazish, ularni engib chiqish usullarini o‘rgatganlar. Protogor, Gorgiy, Gippi, Prodik ana shunday mashhur sofistlardan bo‘lganlar.

Ba’zilar qadimgi yunon sofizmini Sharqda o‘rta asrlarda keng tarqalgan so‘fiylik falsafasi bilan adashtiradilar. So‘fiylik bizning Markaziy Osiyo mintaqasida keng tarqalgan falsafiy ta’limot bo‘lib, asosan ilohiy ishq – Allohga bo‘lgan sevgi, insonning diniy-axloqiy barkamollikka yerishuvini oliy baxt deb targ‘ib qiluvchi ta’limotdir. Sofizm tushunchasi yesa yeramizdan oldingi V asrning ikkinchi yarmi - IV asrning birinchi yarmida Yunonistonda mavjud bo‘lgan va “bilimdon”, “usta”, “san’atkor”, “donishmand” kabi ma’nolarni anglatgan va o‘sha davrdagi faylasuf o‘qituvchilarga nisbatan qo‘llanilgan. Sofistika” degan so‘z “munozarani



o‘tkir aql, ziyraklik, ustomonlik, uquvlik bilan olib borishni bildiradi”⁵⁶.

Qadimgi yunon donishmandi Suqrot bu borada ko‘plab shogirdlarga ustoz bo‘lgani, falsafiy maktablar yaratgani tarixdan ma’lum. Polemika

55 Хайдаров К. Шарқ фалсафасида маънавий тарбия устуворлиги. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2020. – Б.219.

56 Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-китоб. –Т.: “Маънавият”, 2019. – Б.203.

ustasi bo'lgan Suqrotning savol-javob usulidan ta'lim jarayonida foydalanish o'quvchida mantiqiy tafakkur shakllanishida muhim o'rin tutadi. "Suqrotona savol-javob usuli hozirgacha eng samarali ta'lim usullaridan biri sifatida qo'llaniladi. Bunda o'quvchi chuqur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to'g'ri so'zlashga, nutqning mantiqiyligi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatilgan. Masalan, suqrotona suhbatlar deganda o'qituvchining o'quvchini mustaqil va faol fikrlash jarayoniga olib kirishi hamda uning fikrlashidagi noto'g'ri jihatlarni ziyraklik bilan aniqlagan holda ularni tuzatish yo'liga olib chiqishdan iborat usullar nazarda tutiladi"⁵⁷.

Suqrotona suhbat o'ziga xos bosqichlardan iborat bo'lib, unda:

savol-javob yo'li bilan o'quvchining bilim darajasi va fikrlash qobiliyati aniqlanadi;

savol-javob o'quvchining mo-yilligi va qiziqishiga qarab tanlangan misollar orqali amalga oshiriladi;

o'quvchi rag'batlantirish orqali faol munozara jaryoniga olib kiriladi;

o'qituvchi savollar berib borish yo'li bilan o'quvchini yanada erkin va teranroq fikrlashga undaydi;

o'quvchining yanglish fikrlari ham aniqlab boriladi;

o'quvchi yo'l qo'ygan xatolarni uning o'zi tuzatishiga yo'naltiriladi.

Ye'tibor bergan bo'lsangiz, sofistlar, avvalo, faylasuf bo'lganlar. Demak, mantiqiy fikrlashga o'rgatuvchi o'qituvchining o'zi ma'lum darajada faylasuf bo'lishi lozim. Ayniqsa ushbu xulosa Tarbiya fani o'qituvchisiga ko'proq tegishli. Bugungi Tarbiya fani o'qituvchisi falsafiy mushohadaga qodir, teran fikrlaydigan mohir pedagog bo'lishi kerak.

57 Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари: қўлланма. – Т.: “Ўқитувчи”, 2004. –Б.46-47.

Buyuk xitoy donishmandi Konfusiylar ta'limotida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil yetishga doir klassik yondashuvlar bugungi kunda ham o'z ahamiyati va qadriyatini yo'qotmaganligi, aksincha, ko'plab mamlakatlar ta'lim tizimi islohotlarida



asosiy tamo-yil sifatida xizmat qilib kelayotganligi ko'pchilikka ma'lum. Sharq falsafasi taraqqiyotida xitoylik donishmandlarning alohida o'rni bor. Bugungi Xitoy Xalq Respublikasi o'zining boy tarixi, dunyo tamadduni taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan mutafakkirlari bilan ham mashhurdir. Xitoy miloddan avvalgi ming -yillikning, ya'ni antik dunyoning eng yirik tamaddun markazi bo'lgani ma'lum. Uning uch ming -yillik tarixi bunga guvoh.

Ayniqsa, hozirgi davrda Xitoyda barcha sohalarda ulkan ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Do'stona munosabatlarning rivojlanib borayotgani o'zbek va xitoy xalqlarining manfaatlariga to'la mosdir. Samarqandda buyuk faylasuf Konfusiyning mahobatli haykali qad rostlashi xalqlarimizni yanada yaqinlashtirdi, ulug' donishmandning milliy qadriyatlarimizga monand g'oyalarini o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. XXRda 2019 -yilda "Prezident Shavkat Mirziyoyev – O'zbekistondagi islohotlar davrining me'mori" nomli kitobning nashr etilganligi har ikkala mamlakat o'rtasida hamkorlik munosabatlarini yangi bosqichga ko'tarishda g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Qariyb yigirma yetti asr muqaddam yashab o'tgan buyuk donishmand *Konfusiylar*, keyingi davrlarda uning ko'plab shogird va izdoshlari qoldirib ketgan bebaho ma'naviy meros bugungi kunga qadar o'zining qadriyatini yo'qotmagan. Konfusiychilik faqat Xitoyda emas, butun dunyoda ma'lum va mashhur bo'lgan barhayot ta'limotdir. Konfusiylar buyuk yunon faylasufi Suqrot dan salkam bir asr avval yashagan, shu bois uni "Donishmandlik ilmining otasi" deb atash mumkin. Aslzodalar xonadoniga mansub bo'lgan Konfusiylar miloddan avvalgi 551 -yilda tug'ilgan, 72 -yil

umr ko‘rgan. Uning asli ismi Kun Syu bo‘lib, muxlislari Kun Fu-szi, deb atashgan. Ushbu laqab “hurmatli ustoz Kun”, degan ma‘noni anglatgan⁵⁸. XVII asrda Xitoyga tashrif buyurgan iyezuit-missionerlar uning ta‘limotiga ixlos qilib, Yevropada ham keng yoyish maqsadida Konfusiylar deb ataganlar. U ham xuddi yunon donishmandi Suqrot kabi ta‘limotini faqat og‘zaki bayon qilib kelgan. Bizga ma‘lum asarlarining barchasini Konfusiylarning shogirdlari yozib qoldirishgan. Konfusiylar ta‘limotining dovrug‘i dunyo bo‘ylab oshib ketganligiga va hozir ham barhayotligiga sabab – uning insonparvarlik mohiyati, yuksak axloqiy g‘oyalar bilan yo‘g‘rilganligidir.

Buyuk faylasuf Konfusiylarning ta‘limoti butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham yuksak qadrlanadi. Ayniqsa bugungi kunda – mamlakatimiz ta‘lim tizimida islohotlar jadal tus olayotgan bir paytda mutafakkirning g‘oyalarini ushbu tizimga joriy yetish innovatsion yondashuv sifatida qaralmoqda. Mamlakatimiz uzluksiz ta‘lim tizimining har bir bo‘g‘inida mashg‘ulotlar buyuk Konfusiylarning “Yeshitdim – unutdim, ko‘rdim – yesladim, bajardim – tushundim” degan tamo-yili asosida tashkil yetilayotgani yuqori samaraga erishishni ta‘minlamoqda. Uning ma‘nosi shundaki, mashg‘ulotlar to‘liq ma‘ruza shaklida tashkil yetilsa samara bermaydi, ko‘rgazmalilik asosida tashkil yetilsa xotiraga muhrlanadi, ishtirokchilar topshiriqni bajarsalar, ularda mavzu haqida to‘la tasavvur hosil bo‘ladi va mashg‘ulot o‘z maqsadiga erishadi.

Konfusiylar shogirdlari bilan o‘tkazgan saboqlarida o‘zaro faollik masalalariga alohida e‘tibor bergan. Yigirma yetti asr muqaddam yashab o‘tgan ulug‘ donishmand shogirdlarining mushohada madaniyati, rasional fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga jiddiy e‘tibor bergan. Konfusiylardan keyingi davrlarda yashagan va Sharq falsafasida chuqur iz qoldirgan ulug‘ allomalar ham shogirdlariga shunday munosabatda bo‘lganlar.

O‘rta asrlar Sharqida keng tarqalgan so‘fiylik ta‘limotida bilim va aql – yuksak qadriyatlar hisoblanib, ular insonni bezaydi, kim bu sifatlardan mahrum bo‘lsa, u - baxtsiz odam, deb qaralgan. Bilimni turmushga joriy qilish lozim, amalda qo‘llanmagan bilim foydasiz va keraksizdir. So‘fiylarning nazdida ma‘lumotli odam, agar u kambag‘al bo‘lsa ham,

58 Қаранг: Ҳақиқат манзаралари. 96 мумтоз файласуф. -Т.:”Янги аср авлоди”, 2002. -32 бет.

podshodan ulugʻdir. Ilm har qanday boylikdan ustun. Odamning boyligi uning amali emas, bilimidir. Bilimli odamning turmushi ham fayzli boʻladi.

Soʻfiy oʻzining barkamol bilimlari bilan boshqalardan ajralib tursa-da, lekin u hych qachon oʻzini olim hisoblamaydi. U oʻziga nasib etgan ilm va axloqiy sifatlarni boshqalarga ham singdirishga intiladi. Muayyan ilohiy va dunyoviy bilimlarga ega boʻlmagan kishi soʻfiy boʻlolmaydi, oʻz navbatida, uzlat uning uchun haromdir va uning ibodati qabul qilinmaydi. Maʼnaviy pok, ruhan tetik, bilimdon, oʻzini yomonlikdan, aysh-ishrat va nojoiz harakatlardan tiya olgan kamtar va kamsuqum kishilargina soʻfiy boʻla oladi.

Soʻfiylar oʻzlaridan avval yashab oʻtgan mutafakkirlar va falsafiy maktablarning taʼlimotlaridan foydalandilar – qadimgi yunon va hind falsafasi, zardoʻshiylik hamda xristianlik taʼsirida shakllandilar. Shuningdek, soʻfiylik Oʻrta Osiyoda falsafiy-axloqiy fikrlarning keyingi rivojiga katta taʼsir koʻrsatdi. Uning gʻoyalari Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab kabi mutafakkirlarning ijodiga barakali taʼsir koʻrsatdi.

Moziyga qilgan murojaatimiz bejiz emas. Mantiqiy tafakkurga asoslangan taʼlimni joriy qilish uchun oʻtmishda yaratilgan ilgʻor tajribalarni zamonaviy yondashuvlar bilan uygʻunlashtirish kerak. Ayniqsa Tarbiya fani oʻqituvchisi donishmandlik ilmidan yaxshi xabardor boʻlishi, moziydan meros qolgan rivoyatlar, hikmatlar, matallar va maqollarni bilishi, hadislardan namunalar keltira olishi mashgʻulotlar samaradorligini oshiribgina qolmay, oʻquvchilar mantiqiy tafakkur va mushohada maniyatini shakllantirishda muhim oʻrin tutadi.

Mutafakkir alloma bobomiz Ibn Sino aytadi: “Aql tarozusida tortib koʻrilmagan har qanday bilim asossizdir. Shu bois mantiq ilmini oʻrganmoq juda muhim”⁵⁹. Zero, mantiqiy fikrlashga asoslangan mashgʻulotlar bugun taʼlim islohotlarida muhim ahamiyatga ega boʻlib, birinchidan, ular pedagoglarni yangi, zamonaviy metodikalar bilan qurollantirishda muhimligi, ikkinchidan, taʼlimda kutilgan natijaga erishishning asosiy, sinalgan yoʻli ekanligi bilan ajralib turadi.

⁵⁹ Хақиқат манзаралари. 96 мумтоз файласуф. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2002. – 197 бет.

Mantiqiy fikrlashga doir topishmoq-hikoyalar

Bir yigit donishmandning oldiga kelib:

- Dunyoda men bilmagan narsa qolmadi, hamma narsani bilaman. Harqalay, bilimlarimda mabodo oq dog'lar qolgan bo'lsa o'shalarni ham to'ldirish uchun sizdan biror narsa o'rganish maqsadida oldingizga keldim, - debdi.

Shunda donishmand:

- Senga biror narsa o'rgatish befoyda, - debdi.

Unga javoban yigit:

- Befoydami yoki o'rgatishga ilmingiz yetishmaydimi, - debdi kulib.

- Mayli, senga mantiq bo'yicha bitta savol beraman, agar unga to'g'ri javob bersang, shogirdlikka qabal qilaman, - debdi donishmand. - Eshit, o'g'lim, mantiq bo'yicha savol: Ikki kishi bir mo'ridan tushishdi. Birining beti qora bo'ldi, ikkinchisiniki esa toza. Qani ayt-chi, qaysi biri betini yuvgani boradi?

Yigitni jahli chiqib: - Shu ham savolmi, shu ham mantiqmi, axir buni hamma biladiku, albatta beti qora bo'lgani-da, - debdi.

- Yo'q sen adashding, - debdi donishmand. - Mana, mantiqan o'ylab qara. Ikkalasi mo'ridan tushdi va bir-birining betiga qarashdi. Beti qora sherigining betiga qarasa, u toza, o'zining ham betini toza deb o'ylaydi. Ikkinchisi esa sherigining betining qoraligini ko'rib, o'ziniki ham shunday deb o'ylaydi va betini yuvgani boradi. Demak, beti tozasi boradi.

- Ha, bu tomonini o'ylamabman. Mayli, yana bir savol bering-chi, - debdi yigit shashti tushib.

- Mayli eshit, yana bitta mantiqiy savol beraman, - debdi donishmand. Ikki kishi bir mo'ridan tushishdi. Birining beti qora bo'ldi, ikkinchisiniki esa toza. Qani ayt-chi, qaysi biri betini yuvgani boradi?

- Voy ustimdan kulayapsizmi, hozir aniqlab oldik-ku, albatta, beti tozasi-da.

- Yo'q, yana adashding, - debdi donishmand. - Mana, o'zing mantiqan o'ylab qara. Beti toza inson sherigining betini ko'rib, yuvingani boradi. Ikkinchisi esa o'zining ham betini qoraligini sezib, u ham yuvingani boradi. Ikkalasi ham yuvingani boradi.

- Ha, men yana bunisini o'ylamabman. Yana bitta savol bering, iltimos, - debdi yigit sekingina.

- Mayli, eshit. Ikki kishi bir mo‘ridan tushishdi. Birining beti qora bo‘ldi, ikkinchisiniki esa toza. Qani ayt-chi, qaysi biri betini yuvгани boradi?

- Axir hozir aniqladik-ku, ikkalasi ham boradi, - debdi yigit asabiylashib.

- Yo‘q, yana topa olmading. Mantiqan o‘ylamayapsan. Beti qorasi sherigining betini tozaligini ko‘rib yuvгани bormaydi. Ikkinchisi esa bundan o‘zining beti tozaligini bilib, u ham bormaydi. Demak, ikkalasi ham bormaydi.

- Xo‘p, mayli, men engildim, - deb taslim bo‘libdi yigit. - Lekin men sizga shogird bo‘lib, o‘rgatayotganingizni o‘zlashtira olaman. Boshqa biror narsa so‘rang, - debdi.

- Ikki kishi mo‘ridan...

- Bo‘ldi, bo‘ldi, axir, bildik-ku, mantiqan ikkalasi ham bormaydi-da!

- Yo‘q sen mantiqan adashding - chuqurroq o‘ylamading. To‘g‘ri javobni eshit (**savol: Donishmandning javobi qanday edi?**).

Donishmandning javobi: - "Men hamma narsani bilaman" degan fikring seni ko‘r qilgan: oddiy haqiqatni ko‘rmayapsan. Chunki ustozingni eshitmayapsan. Axir o‘zing mantiqan o‘ylab qara, qanday qilib bir mo‘ridan tushgan ikki insonning birini beti toza, ikkinchisiniki qora bo‘lishi mumkin. Ushbu savolning o‘ziyoq mantiqsiz edi. Sen shunday mantiqsiz savollarga javob qidirsang, hayotingda mantiq qolmaydi. Sen boshidanoq xato yo‘lda eding. O‘rganish uchun keldingmi, o‘rganishga tayyor bo‘l. Asosni, maqsadni ko‘zdan qochirma. Mantiqsiz, keraksiz narsani izidan quvma.

Yunon danishmandi Aflotun "Har qanday savolga javob berish mumkin, faqat u mantiqan to‘g‘ri berilsa bas", deb bejiz aytmagan.

"Qazisan, qartasan, asli zotingga tortasan" degan maqolning ma‘nosini tushuntirib bering.

Javob: Qazi, ayniqsa qarta qanchalik mazali taom bo‘lmasin, baribir qandaydir hidi kelib turadi. Yomondan tug‘ilgan, yomonlar davrasidan chiqqan odamning yaxshi bo‘lib ketgani bilan baribir, uning gap-so‘zidan odamlarga yoqmaydigan qandaydir asorat saqlanib qoladi.

Hikoya. Charchagan, holdan toyib, ochlikdan qiynalgan musofir oxiri bir qishloqqa yetib kelib, bir uyning darvozasini taqillatdi. Ichkaridan chiqqan yosh va go‘zal juvondan bir burda non so‘radi. Juvon: "o‘tira turing, men sizga hozir yegulik olib kelaman", deb orqasiga o‘girilganda ichkaridan

erining “Unga non berma, biz har qanday o‘tkinchiga non berishga majbur emasmiz”, degan dag‘al ovozi eshitildi. Musofir hafsalasi pir bo‘lib orqaga qaytdi va boshqa bir uyning darvozasini taqillatdi. Ichkaridan uyning egasi - bir erkak chiqqanda, undan yegulik so‘radi. Erkak unga yegulik bermoqchi bo‘lganida ichkarida uning xotini musofirga qarata “yo‘qol uyimdan!” deb baqirib berdi. Musofir esa xoxolab kuldi. Erkak undan nega kulganini so‘raganda, musofir unga bo‘lgan voqyeani so‘zlab berdi. Erkak unga qarata: “Narigi uydagi juvon mening singlim bo‘ladi, mening xotinim esa senga non bermagan odamning singlisi bo‘ladi”, dedi.

Shunga aytadilar-da, “Qazisan, qartasan, asli zotingga tortasan”, deb.

“Maqtanma g‘oz, hunaring oz” degan maqolning mazmunini tushuntirib bering.

Javob: Bir g‘oz “mening hunarim ko‘p: xoxlasam uchaman, xoxlasam yuguraman, xoxlasam suzaman”, deb maqtanibdi. Unga qurbaqa “sen lochinday ucholmaysan, kiyikday yugurolmaysan, baliqday suzolmaysan. Uchta hunarning bittasini ham to‘liq eplolmaysan, maqtanma g‘oz, hunaring oz”, degan ekan.

“Tovus tanasiga qarab yayraydi, oyog‘iga qarab yig‘laydi” degan maqol qanday ma‘noni bildiradi?

Javob: Tovus rang-barang tovlanib, hammaning havasini keltiradi. Ammo uning oyoqlari ola-pes bo‘lib, ko‘rgan kishini jirkantiradi. Hayotda ham ba‘zilar davlatmand, “egani - oldida, yemagani - ketida” bo‘lib, hyech narsaga muhtojlik sezmaydi. Ammo uning tuzalmas dardi, nuqsoni bo‘lishi mumkin (masalan, yuragi xasta, befarzand, farzandining jismoniy nuqsoni bor va h.k.). Bir tomondan xursand, boshqa tomondan xafa bo‘lib yashaydi. Maqol majoziy ma‘noda ishlatiladi.

Yaratganning o‘zi har bir insonga bitta og‘iz, ikkita quloq ato etgan. Nega?

Javob: Kamroq so‘zlash va ko‘proq eshitish uchun. Suhbatdoshingizni ko‘proq eshitishga harakat qiling, hurmatingiz oshadi. Yunon donishmandi Pifagor aytadi: “Tinglash va sukut saqlash seni donolikka yetaklaydi”.

Nazorat savollari

1. *“Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” degan tamo-yilning mazmunini tushuntirib bering.*
2. *Tarbiya fani mashg‘ulotlarini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad nimalardan iborat?*
3. *Ta’limning didaktik vosita va usullari deganda nimani tushunasiz?*
4. *Mantiqiy fikrlash nima degani?*
5. *O‘quvchilarda mantiqiy fikrlashga doir ko‘nikmalar qanday shakllantiriladi?*
6. *Tarbiya fani o‘qituvchisining mantiqiy qonunlarni bilishi qanchalik muhim?*
7. *Paralogizm nima?*
8. *Mantiqiy fikrlashning klassik namunalari haqida tushunchangiz.*
9. *“Suqrotona savol-javob usuli” Tarbiya fanini o‘qitishda qanchalik muhimligini tushuntiring.*
10. *So‘fiylik ta’limoti va uning Tarbiya fanini o‘qitishdagi o‘rni haqida so‘zlab bering.*

Testlar

1. Bugun uzluksiz ta’limni isloh qilishdagi muhim vazifa

- A) yangi, zamonaviy metodikalarni joriy etish;
- B) o‘qituvchining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;
- C) o‘qituvchining maoshini bosqichma-bosqich oshirib borish;
- D) ta’limning huquqiy asoslarini mustahkamlash.

2. “Noqobil o‘qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo‘yadi, yaxshisi yesa uni topishga o‘rgatadi”. Ushbu so‘zlar kimga tegishli?

- A) A.Disterveg;
- B) Z.Freyd;
- C) A.Suxomlinskiy;
- D) G.Spenser.

3. Erkin bahs-munozara

- A) o‘quvchida fikrlash, mushohada qilish ko‘nikmalarini

shakllantiradi;

B) o'quvchining o'z mehnatidan zavqlanishiga o'rgatadi;

S) o'quvchining ham ma'naviy, ham jismoniy barkamolligini ta'minlaydi;

D) o'quvchida hayotga bo'lgan mehr-muhabbatini yanada kuchaytiradi.

4. Mantiqiy fikrlash

A) insonning tafakkur madaniyatini boyitadi;

B) odamning botiniy go'zalligini oshiradi;

S) kishilarning o'zaro munosabatini mustahkamlaydi;

D) shaxsning notiqlik mahoratini kuchaytiradi.

5. Tarbiya fani mashg'ulotlarida o'quvchilarni nimaga o'rgatish muhim?

A) bilimlarni qidirib topishga;

B) tayyor bilimlarni egallashga;

S) mehnat intizomiga rioya etishga;

D) hozirjavoblik, samimiylik, hushyorlikka.

6. Mantiqiy fikrlashdan maqsad

A) ko'p narsani emas, kerakli narsani bilish;

B) mutolaa madaniyatini shakllantirish;

C) kitob o'qishga xoxish o'yg'otish;

D) tabiatga mehr-muhabbat o'yg'otish.

7. Qadimgi yunon donishmandi, bahs-munozara ustasi

A) Suqrot;

B) Konfusi;

S) Lukresiy;

D) Gegel.

8. "Eshitdim – unutdim, ko'rdim – esladim, bajardim - tushundim" degan pedagogik tamo-yil muallifi

- A) Konfusi;
- B) Aflotun;
- S) Al-Maarriy;
- D) Ibn Sino.

9. O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan axloqiy-falsafiy oqim

- A) so'fiylik;
- B) mazdakiylik;
- C) zardushtiylik;
- D) yangi platonchilik.

10. Yangi O'zbekistonning to'rt tayanch ustuni qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) tarbiyachi, muallim, olim, ijodkor;
- B) quruvchi, hunarmand, olim, shifokor;
- C) ziyoli, shifokor; muallim, quruvchi;
- D) tadbirkor, hunarmand, ijodkor, fermer.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

2. "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida". O'zbekiston Respublikasining Qonuni. - T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2019 -yil 30 oktyabr. 03/19/576/3970-son.

3. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 7 noyabr. 06/20/6108/1483-son.

4. "2022-2026 -yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining Farmoni. - T.: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. - 2022 -yil 29 yanvar. 06/22/60/0082-son.

5. "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. - T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 7 noyabr. 07/20/4884/1484-son.

6. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. - T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2020 -yil 3 yanvar. 09/20/391/0777-son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil 23 avgustda o'qituvchining ijtimoiy mavqeini oshirish masalalariga doir o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. - "Xalq so'zi" gazetasi, 2019 -yil 24 avgust. - №174 (7404)-son.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: "O'zbekiston", 2021. - 464 b.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. - 224 b.

2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. - Tanlangan asarlar. 1-jild. - T.: Fan, 1968. - 486 b.

3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. -T.: "Fan" nashriyoti, 1987-2003 -yillar.

4. Amir Temur. Temur tuzuklari / forschadan A.Sog'unliy va H.Karomatov tarjimasi. - T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. - 144 b.

5. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo'llanma. - T.: "O'qituvchi", 2004. -104 b.

6. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. – T.: “Ma’naviyat”, 2019. – 920 b.
7. Pedagogika: yensiklopediya. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.
8. Pedagogika: yensiklopediya. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.
9. Smeshnyye rasskazi: per. s srednevek. assir. Bar-Yebraya G.Yu. (Abul Faradj). – M.: Politizdat, 1992. – 207 s.
10. Xodjayev B., Sattorov Sh., Artikova M. Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyasi. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 168 b.
11. Qurbonova M. Yoshlarda kreativ tafakkurni shakllashtirishning pedagogik asoslari // “Xalq ta’limi” jurnali, 2020. – T.3.
15. Quronov M. Milliy tarbiya. - T.: “Ma’naviyat”, 2007. – 240 b.
16. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...T.: “Ma’naviyat”, 2014.
17. Qodirov A. va b. Baxtli bola ma’naviyati. – T.: “Muharrir”, 2018.
18. Haydarov K. Sharq falsafasida ma’naviy tarbiya ustuvorligi. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – 240 b.
19. Haydarov K., Rasulova D. Birinchi Renessans davri Sharq ma’naviy merosini o‘rganish masalalari. Uslubiy qo‘llanma. – T.: “Qamar media” nashriyoti, 2022. – 89 b.
20. Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2002. – 372 b.

IV. Elektron ta’lim resurslari

- 1.<https://www.lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
- 2.<http://www.yeduportal.uz>- O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi axborot-ta’lim portali.
- 3.<http://www.uzedu.uz>- O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi portali.

4. <http://www.multimedia.uz> - Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti.

5. <http://www.rtm.uz> - Respublika ta'lim markazi sayti.

6 <http://www.kundalik.com> - “Kundalik” avtomatlashtirilgan ta'lim tizimi sayti.

7. <http://www.istedod.uz> - “Iste'dod” jamg'armasi sayti.

8. www.ziynet.uz - Ziyonet ta'lim axborot tarmog'i.

GLOSSARIY (atamalarning izohli lug‘ati)

“Davra suhbat” metodi	– aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr–mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodi.
“Interaktiv”	Ingliz tilidan olingan “Interakt”, ya’ni “Inter” – o‘zaro, “akt” – harakat, ta’sir, faollik
“Keys-stadi” texnologiyasi	Muammoli vaziyat; o‘quvchilarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya
“Konseptual jadval” metodi	– turli g‘oyalar, qarashlarni o‘zaro taqqoslash va ularni turli toifalar bo‘yicha taqqoslagan holda baho berishga qaratilgan organayzer hisoblanadi.
“Tushunchalar tahlili” metodi	– ushbu uslub o‘tilgan mavzu yuzasidan ma’ruzachi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berish, shu orqali olgan bilimlarini tekshirishga yo‘naltirilgan.
“FSMU” metodi	– texnologiya ishtirokchilaridagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish. F - fikringizni bayon qiling S - sabab ko‘rsating M - misol bilan isbotlang U - umumlashtiring (fikringizni)
Bilim	– 1) Obektiv mavjudot haqidagi yoki sohaga oid ma’lumotlar majmuiga ega bo‘lish. 2) O‘rganilgan ma’lumotlarni yeslab qolish.
Bunyodkor shaxs	Ham jarayon, ham natija sifatida obektiv

	ijodkorlikni amalga oshiradigan va talablar darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs.
Validasiya	Ta'lim mahsuloti, ta'lim xizmatlari yoki ta'lim tizimi iste'molchilari ehtiyojlarining qondirilishi
Globalas'huv	(global.fr. - umumiy; globus.lot. - shar) – turli mamlakatlar, xalqlarning jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalaridagi o'zaro ta'siri va bog'liqligining keskin kuchayishi.
Didaktika	(yunon.) – pedagogikaning ta'lim nazariyasi, fanlarni o'qish va o'qitish, ta'lim masalalari bilan shug'ullanuvchi fan.
Dramatik o'yinlar	Psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan o'yinlar
Ijod	Ijtimoiy subektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.
Ijodiy tafakkur	Tafakkurning ijod jarayonini tashkil yetish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi.
Ijodiy topshiriqlar	Muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo'naltirilgan masalalar tizimi.
Ijodkor shaxsni shakllantirish	Kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g'oya, ularni amalga oshirish ko'nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish hamda rivojlantirish
Ijodkorlik	Muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi.
Imitasion o'yinlar	Ishlab chiqarish korxonalari, ish o'rinlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan

	amalga oshiriladigan faoliyatni imitatsiyalash (taqlid qilish, ko‘chirish) asosida o‘quvchilarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo‘naltiradigan o‘yinlar
Individual ta’lim	Ta’lim jarayonida o‘qituvchining faqatgina bir nafar o‘quvchi bilan yoki o‘quvchining ta’lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, radio, televideniye va b. axborot texnologiyalari) bilan o‘zaro hamkorligi asosida o‘quv materiallari o‘zlashtirilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan ta’lim
Individual ta’lim	Ta’lim jarayonida o‘qituvchining faqatgina bir nafar o‘quvchi bilan yoki o‘quvchining ta’lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, radio, televideniye va b. axborot texnologiyalari) bilan o‘zaro hamkorligi asosida o‘quv materiallari o‘zlashtirilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan ta’lim
Innovasiya	– yangilash, o‘zgarish, yangilik kiritish, joriy qilish.
Inson kapitali	– zamonaviy jamiyatning asosiy kapitali - yangi bilimlarni izlash, egallash, nostandart qaror qabul qilishga qodir inson.
Interfaol ta’lim	O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini tashkil yetishga asoslanuvchi ta’lim
Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi	Ijodkorlikning jarayon va natija sifatida obektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko‘rinishidagi tuzilishi, mantiqiy tashkil yetilishi, metod va vositalari haqidagi ta’limot.
Kasbiy-ijodiy imkoniyat	1) kasbiy kompetensiya, malakaga egalik; 2) kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini

	o'zlashtirganlik; 3) ijodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi; 4) kasbiy-ijodiy layoqat va shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi.
Kasbiy-ijodiy faoliyat	Mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovasion hatti-harakati.
Keys study	aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil yetish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodi.
Klaster	– bir hududdagi bir necha korxona yoki tadbirkorlarning kreativ yechim uchun umumiy intilishi, harakati.
Kompetensiya	– mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatida qo'llash qobiliyati; munosiblik, loyiqchilik kabi tushunchalar.
Konsepsiya	(lot.-majmua,tizim) – 1) biror sohaga oid qarashlar, tamo-yillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, angalash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar; 2) adabiyotda – asarning asosiy g'oyasi.
Kreativ qobiliyat	Shaxsning ijodiy faoliyatni tashkil yetish va uning natijalanganligiga erishishni ta'minlash imkoniyatini belgilovchi individual xususiyati
Kreativlik	(lot."create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.
Ko'nikma	– 1) Muayyan vazifani bajarish uchun egallangan qobiliyat. 2) O'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish.
Malaka	– 1) Kasbiy tayyorgarlik talablarining muayyan darajasiga muvofiqligi; 2) O'rganilgan bilim va

	ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish.
Mahorat darslari	Ochiq tashkil etilgan, eng ilg'or pedagogik tajribalarni targ'ib yetishga qaratilgan samarali o'qitish shakli
Ma'naviyat	(ma'no) – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, diniy, ahloqiy tasavvurlarini o'z ichiga oladi.
Ma'naviyatga tahdid	– insonning o'zligiga va kelajagiga tahdid.
Metod	(yunon.) – voqyelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, fasafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.
Model	Real, haqiqatda mavjud bo'lgan obektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshash nusxasi
Motivasiya	(lot.) – harakatni uyg'otmoq. Ruhiy-fiziologik rejaning dinamik jarayoni, inson harakatini boshlovchi, maqsad sari yetaklovchi vosita.
Muammoli ma'ruza	O'qituvchi tomonidan o'quvchini muammoli vaziyat, muammoli masalani hal yetishga yo'naltirish orqali unda bilish faolliyatini oshirishga yo'naltirilgan ma'ruza
Rivojlanish	Shaxsning fiziologik hamda intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlari mohiyatini ifoda yetuvchi murakkab jarayon
Rivojlantiruvchi ta'lim	O'quvchilarning ichki imkoniyatlari rivojlantirish va ularni to'la ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan ta'lim

Startup	– jarayonning boshlanishi, boshlang‘ich. Yosh tadbirkorlar amalga oshirmoqchi bo‘lgan, tez natijaga erishish niyatidagi loyihalar.
Tarbiya	– aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, tarbiyalanuvchilarning ongi, hulq-atvori va dunyoqarashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimli jarayon.
O‘zini o‘zi ijodiy faollashtirish	Shaxsning ijodiy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi
O‘yin texnologiyalari (o‘yin ta’limi)	Ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri
O‘quv loyihasi	1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (yechim)ni mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil yetish usuli; 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o‘quv harakati vositasi; 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta’lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik vosita
Fidbek	– har bir g‘oyani muhokama qilish, eng to‘g‘ri g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash.
Frilansing	– masofadan turib ishlash imkoniyatini yaratish tizimi.
Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim	O‘quvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos

	xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim
Shaxsni rivojlantirish	Individida vaqt nuqtai nazaridan jismoniy va ruhiy oʻzgarishlarning sodir boʻlish jarayoni

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
1-mavzu: Tarbiya va uni oʻqitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari	6
2-mavzu: Tarbiya metodlari va shakllari, ularni amalda qoʻllash.....	28
3-mavzu: Tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari	40
4-mavzu: Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining	55
faoliyati. Sinf rahbarining oʻquv faoliyati samaradorligini oshirish yoʻllari	56
5-mavzu: Oʻquvchilar bilim sifatini oshirish va sinfda intizomni mustahkamlash	69
6-mavzu: Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari	87
7-mavzu: Sinf rahbari ishini rejalashtirish. Sinf rahbarining namunaviy -yillik ish rejasini tuzish metodikasi.....	104
Tarbiya va uni oʻqitish metodikasiga doir qoʻshimcha materiallar	114
Darslarda interfaol metodlar, ibratli hikoyalar va hikmatlardan foydalanish.....	130
Oʻquvchilar bilimi va kompetensiyalarini baholash	142
Oʻquvchilarni mantiqiy fikrlashga oʻrgatish – mashgʻulotlarda samaradorlikka erishish omili	169
Glossariy	188

Komil HAYDAROV

TARBIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI

(O‘quv qo‘llanma)

“ACCESS SERVICE” nashriyoti

Muharrir: D.Urinbayeva

Texnik muharrir: A.Shakarov

Nashrga tayyorlovchi: Sh.Xujakulov

ISBN: 978-9910-8721-2-9

“ACCESS SERVICE” nashriyoti.

Faoliyat manzili Samarqand shahar, So‘lim shaharchasi,

B.Yalangtush MFY, 128-uy, 74-xonadon.tel.: +998 97-289-89-86

Terishga berildi: 22.02.2025-yil. Bosishga ruxsat etildi: 11.03.2025-yil.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆, “Times New Roman” garniturası.

Bosma tabog‘i 12,25. Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 2025/ NI-6

Bahosi kelishilgan narxda. Noshirlik litsenziyasi: № 098355